








UZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

S. TOHIROV

ARUZ VAZNI QOIDALARI



801
T-24



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI


TOHIROV SOBIRJON QOBILOVICH

"ARUZ VAZNI QOIDALARI"
O'QUV QO'LLANMA

-4929-

Samarqand davlat universiteti
kengashining 2019 yil
28-noyabrdagi 4 - sonli
qaroriga asosan nashrga
tavsiya etilgan
(Guvohnoma № 108)

Samarqand davlat universiteti - 2019 y.



UDK: 801.731

Tohirov S.Q. Aruz vazni qoidalari. O'quv qo'llanma. Samarqand SamDU nashri, 2019. – B. 148.

Turkiy va fors-tojik mumtoz she'riyatining asosiy o'lchov tizimi bo'lgan aruz, uning nazariyasi va amaliyoti, turkiy aruzning o'ziga xos ritmikasi hamda qonuniyatlarini o'rganish va o'rgatish filologiya sohasining muhim vazifalaridan biridir. Zero vazn she'r badiiyati va jozibasining asosiy unsurlaridan bo'lib, uni o'rganish badiiy asar matnining mukammalligi, undagi shakl va ma'no munosabati, ijodkor mahorati, asarning badiiy barkamolligi haqida tasavvur hosil qilishning asosiy omillaridan biridir.

Ushbu o'quv qo'llanmada aruz vaznlar tizimining tarixiy taraqqiyoti, nazariy qonuniyatlari va amaliyotini o'rganish, rang-barang vaznlarda yaratilgan mumtoz nazm namunalarining o'ziga xos ritmikasini tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan "Aruz vazni qoidalari" fanining asosiy mazmuni o'z ifodasini topgan.

Qo'llanma "filologiya va tillarni o'qitish" yo'nalishi talabalari, magistrantlari hamda shu soha yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir
filologiya fanlari doktori **D.Salohiy**

Taqrizchilar:
filologiya fanlari nomzodi **I.Sulaymonov**
pedagogika fanlari nomzodi **M.Tursunova**

ISBN – 978-9943-6298-1-3

*Fanlari adabiyotshunos va aruzshunos olim Tohirov Qobiljon
Tohirovning portret xatirasi haqida bag'ishlanadi*

KIRISH

SHE'RIV VAZN TIZIMCHASI, ARUZ VA ARUZSHUNOSLIK

Aruz she'riyatining asosiy belgilaridan biridir. Nutq bo'laklarining bir-biriga bog'lanishi, ularning joylashirilishi ritmi, bu esa o'z navbatida she'r ritmikasi hamda qonuniyatlarini o'rganish va o'rgatish filologiya sohasining muhim vazifalaridan biridir. Zero vazn she'r badiiyati va jozibasining asosiy unsurlaridan bo'lib, uni o'rganish badiiy asar matnining mukammalligi, undagi shakl va ma'no munosabati, ijodkor mahorati, asarning badiiy barkamolligi haqida tasavvur hosil qilishning asosiy omillaridan biridir.

Ushbu o'quv qo'llanmada aruz vaznlar tizimining tarixiy taraqqiyoti, nazariy qonuniyatlari va amaliyotini o'rganish, rang-barang vaznlarda yaratilgan mumtoz nazm namunalarining o'ziga xos ritmikasini tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan "Aruz vazni qoidalari" fanining asosiy mazmuni o'z ifodasini topgan.

Dahri muqayyad bila ozodasi,
Dorcha arur "kol" ila "nun"zodasi.³

Shu tilga birga, "kalomi mavzunu muqaffa" deya ta'riflangan
nazmning marabasi nazmga nisbatan ulug'roqdir:

Nazm anga gulshanda ochilmog'lig'i,
Nazm qaro yerga sochilmog'lig'i.
Do'lmasa e'joz⁴ maqomida nazm,
Do'lmas edi tengri kalomida nazm.⁵

Alisher Navoiy kalomullohda nazm namunalarining mavjudligini, ularning ayrimlari aruz o'lchovlariga mos ekanligini inobatga olib bu ilmni ("ilmi aruz") "sharif fan" deya ta'riflaydi.

³ Faridga solingan.

⁴ Feng qonlarga bo'linuvchi.

⁵ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 7-tom ("Hayrat ul-abror"). – T.: Fan, 1991. 57-b.

⁶ Ma'jra, ya'ni inson tomonidan kashf etilgan hodisa emas, tangri mo'jizalaridan.

⁷ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 7-tom ("Hayrat ul-abror"). – T.: Fan, 1991. 61-b.

Madomiki, nazm, yoxud she'r o'lchovli nutq ekan, uning o'lchovli birliklari nima degan savol tug'iladi. Dunyo xalqlari she'riyatining tarixi taraqqiyyotida turli-tuman she'riy vaznlar yoki vaznlar tizimi qo'llangan va qo'llanmoqda. Ular hozirgi adabiyotshunoslikda ikkita katta guruhga bo'linadi.

1. Kvantitativ (nemis tilidan olingan bo'lib "miqdor" ma'nosi) bildiruvchi so'z) she'riy tizimlar.

2. Kvalitativ (lotin tilidan olingan bo'lib, "sifat, urg'uli" ma'nolari) bildiruvchi so'z) she'riy tizimlar.

Kvantitativ she'r tuzilishida misralardagi cho'ziq va qisqa hijolarning muayyan tartibda takrorlanishiga asoslaniladi. Bunday vaznlar manbalarda metrik (metr-o'lchov) vaznlar nomi bilan ham yuritiladi. Hind, arab, forsi, tojik, grek va yunon she'riyatidagi vaznlar, shu jumladan, aruz ham kvantitativ she'riy tizimlar sirasiga kiradi.

Kvalitativ she'riy tizimlarda misralardagi hijolar miqdorining tengligi, urg'ularning muayyan tartibiga asoslaniladi. Shunga ko'ra ular uchta asosiy guruhni tashkil etadi:

1. Sillabik (bo'g'in) - bo'g'inlar yoki hijolar sonining tengligiga asoslanuvchi vaznlar.

2. Tonik (urg'u) - urg'uli bo'g'inlarning muayyan tartibiga asoslanuvchi vaznlar.

3. Sillabik-tonik (bo'g'in-urg'u) bo'g'in va urg'ularning miqdori hamda muayyan tartibiga asoslanuvchi vaznlar.

Rus, fransuz, polyak, serb va boshqa xalqlar she'riyati, shu jumladan, o'zbek she'riyatidagi barmoq she'riy tizimi kvalitativ she'riy tizimlar sirasiga kiradi.

Demak, barcha xalqlar she'riyatida nazmning asosiy o'lchov birliklari harf (tovush), hijo (bo'g'in yoxud undan kattaroq birlik) va urg'udir.

Aruz vaznlar tizimi haqida dastlabki tushunchaga ega bo'lish uchun uning boshqa she'riy mezonlar bilan mushtarak va farqli jihatlari haqida aniq tasavvur hosil qilish lozim bo'ladi. Buning uchun bir necha misolni ko'rib o'tamiz.

Quyidagi misralarni solishtirib, hijolar soni, urg'ular o'rni hamda hijolarning cho'ziq-qisqaligiga e'tibor bering:

1-misol:

Derazamni'ng / oldida' bir tu'p, = 9 ta hijo

V V - - / - V - - -

U'rk' u'pqaq / bo'li'b gulladi' = 9 ta hijo

V - - - - / V - - - V -

fihl: "V": qisqa bo'g'in, "-" = cho'ziq bo'g'in, " ' " - urg'u belgisi

Shunday qilib, ushbu misralarda urg'ularning ham cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning ham muayyan tartibi mavjud emas, ya'ni ikkala misrada ular bir xil emas. Bunda faqat hijolar miqdori (9 ta) hamda bu hijolarning pauza (to'xtash) belgisi qaratiladigan ritmik bo'lak-turoqlarni (4+5) tashkil qilishiga e'tibor beriladi.

2. misol

Vigini' makubi'n bitganda' qonda'n, = 11 ta hijo

V - - - - -

Ikkinchi misol: chelkanda' yohu'. = 11 ta hijo

V - - - V - - - - -

Bu misralarda bo'g'inlar soni (11 ta) hamda urg'ularning muayyan tartibi (birinchi, ikkinchi, to'rtinchi va o'n birinchi hijolarda) mavjud.⁶ Shunday qilib, ushbu misralarda urg'ularning tartibi doimiy emas. Xususan, 1- misrada 4 hijosi (mak) cho'ziq bo'lsa, keyingi misraning shu hijosi (fi) qisqa bo'ladi.

3. misol

Ихъуа'й на оу'гга други'м, = 8 ta hijo, urg'u - 2, 4, 8

Ихъуа'й оста'лось, мне оста'лось = 9 ta hijo, urg'u - 2, 4, 8

Ихъуа'й оста'лось, мне оста'лось = 8 ta hijo, urg'u - 2, 4, 8

Ихъуа'й оста'лось, мне оста'лось. = 9 ta hijo, urg'u - 2, 4, 8

Ushbu che'riy haqida bo'g'inlar soni ikki xil (8 va 9), biroq asosiy urg'ular to'rtta misrada ham bir xil tartibda, ya'ni ikkinchi, to'rtinchi va sakkizinchi bo'g'in yoki hijolarga to'g'ri keladi. Demak, bu she'rda ham bo'g'in va urg'u qoidalariga (sillabik-tonik) amal qilingan. Biroq misralardagi bo'g'inlarning cho'ziq va qisqaligi bir xil tartibda emas. Buni to'rtta misraning birinchi bo'g'inlarini solishtirish orqali ham bilib olish mumkin.

⁶ Bu o'rinda A.Oripovning mashhur she'ridagi aynan shu misralarning o'zi nazarda tutilgan.

⁷ Исмаилов С.А. Избранное. - М.: Просвещение, 1989. стр. 67.

4-misol:

Baholik	dino-r	ul	biliklik	kishi	= 11 ta hijo
V - -	V - -	V - -	V - -		
Bu	johil,	biliksiz	bahosiz	bishi	= 11 ta hijo
V - -	V - -	V - -	V - -		

Baytda bo'g'inlar soni (11 ta) teng bo'lishidan tashqari, ularning cho'ziq-qisqaligi ham bir xil tartibda takrorlangan. Biroq birinchi misradagi "dinor" va "ul" so'zlari alohida urg'uga ega bo'lsa, ikkinchi misradagi "biliksiz" so'zida bitta-oxirgi bo'g'inda urg'u mavjud. Demak, bu baytda hijolar miq'dori hamda cho'ziq-qisqaligining muayyan tartibi e'tibor qaratilgan.

She'riy vaznlar shu tariqa bir-biridan farqlanadi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, keltirilgan misollar orasida so'ngi baytning vazn-o'lchov-talabi boshqalariga nisbatan murakkabroq. Unda so'zdagi hijolar soni yoxud birgina hijoda mavjud bo'ladigan urg'u inobatga olishning o'zi yetarli emas. Balki har bir hijoning sifati, cho'ziq yoki qisqaligini e'tiborga olish va bir xil tartibga qat'iy rioya etish talab qilinadi. Bu esa she'mi ijod etuvchi muallifdan ham, uni o'rganuvchi adabiyotshunos yoxud shunchaki mutolaa qiluvchi kitobxondan ham muayyan tayyorgarlik, salohiyat va malaka talab etadi. Vaholonki, ko'rinib o'tgan misolimiz aruz she'riy tizimidagi eng soddavaznlardan biridir. Shu bilan birga o'zlashtirmoqchi bo'lgan fanimiz ayni shu tayyorgarlik vazifasini o'taydi.

Har bir fanni, sohani o'rganishning eng muhim omillaridan biri zamohaviy istiloh bilan aytganda motivatsiya, ehtiyoj va maqsad uyg'unligidir. Aruzni o'rganishning bo'lajak adabiyotshunos, pedagog umuman madaniyatli inson uchun qanday ahamiyati bor? Quyida aruzni ayrim ahamiyatli jihatlarini keltiramiz. Zora ular motivatsiyani shakllantirish va kuchaytirishga ko'maklashsa.

1. Aruz qoidalarini bilish, murakkab vaznlarda yozilgan baytlarni taqte' qila olish (ritmik bo'laklarga ajrata olish) azaldan salohiyat iqtidor ta'bir joiz bo'lsa yuksak madaniyat belgisi sanalgan. Mana bir misol. Sayt Saroyi "Guliston bit-turkiy" asari muqaddimasida shunday voqea keltiradi:

"Ilk yoz kunlarida bir kun, bo'ston ichinda, gullar orasinda bir nechta zarif olimlar bilan o'turub, insho ilmindan bahs qilib, abyoti g'arib va ash'ori ajib o'qudum esa, ul olimlarning ulusi aruz ilmidin bir mushku baytning taqattu'in savol etti. Filhol javobin eshitib aytti: "Ey adibi g'arib senga bir muvofiq nasihatim bor. Qabul qilsang, xayr bo'lg'ay". Ayttim

“Guliston”. Aytib: “Shayx Sa’diy ‘Guliston’ni turkiy tarjima qilsang, bir kishiga olib bersan.”¹

Bu qisqada “mushbu bayt taqto’ni” bilan Sa’diy “Guliston”ining mazmuni o’rtasida qanday aloqa bor, deb o’ylash mumkin. Biroq ayni shu baytning o’ziga ko’ra baytning mazmuni tahlil qila olishi muallifning “adibi” sifatida o’zining o’ziga ega bo’lganligini ko’rsatgan. Tarixiy va ijodiy jihatlarida bunday misollar juda ham ko’p. Binobarin, aruz qo’shiqlarini qo’shiqlarini o’rganish nafaqat she’r ilmini zabt etish uchun zarur bo’lgan madaniyati, fasohat ilmini egallashga, inson madaniyatining kengayishiga ko’maklashadi.

2. Aruzning o’ziga xos ohanglarini bilish, shu vaznda yozilgan baytlarning faqat mazmunidagina emas, ohang jozibasidan ham zavqlana olish, shu mazmunning shakl bilan mutanosibligini his qilishga ko’maklashadi. Bunday zavqlu odatda so’z bilan ifodalab bo’lmaydi.

3. Aruz qo’shiqlarini puxta o’rganish ijodkor badiiy mahoratini o’rganish nazariyasini qilish imkonini beradi. O’zbek adabiyoti tarixida vazn nazariyasidan mohirana foydalanadigan, yangi vaznlar ijod eta borgan, shu an’anaviy yon talablariga to’la rioya etadigan hamda an’anaviy nazariyadan ba’an cho’ga chiqadigan shoirlar mavjud. Bu esa shoir badiiy mahorati masalalaridan biridir.

4. Aruz mustahkam o’lchovlarga ega bo’lganligi uchun uning baytlarida she’riy matnlardagi odatiy va tasodifiy xatolarni aniqlash imkoniyati mavjud. Quyidagi misollarga e’tibor bering:

Ushbu baytning ko’chiri ho’l erur,
V - - V - - V - - V -

Ushbu baytning ko’chiri ho’l erur
Ushbu baytning ko’chiri ho’l erur

V - - V - - V - - V -

Alisher Navoiy, MAT, 20 tomlik. 3-tom. – T.: Fan, 1989. 525-b.

Demaki nar’g’is ko’zi mas’ti xarob,

V V - - V V - - V ~

Dalki (adam) gulshanida masti xob.

- V (V) - - V V - - V ~

Alisher Navoiy, MAT, 20 tomlik. 7- tom. – T.: Fan, 1991. 19-b.

Bu bayt baytda “halol” (hal qiluvchi) so’zidagi bitta “l” harfining o’chirib qolishi cho’ziq bo’g’inni qisqaga aylantirgan bo’lsa, ikkinchi baytdagi “adam” (yo’qlik) so’zidagi “a” harfining tushib qolishi natijasida bitta hi’jo kamaygan. Bunday nuqsonlar mazmunga jiddiy zarar etkazishini

¹ Sayyid Ruzviy. Ruzviy, Guliston. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi badiiy adabiyot adabiyoti, 1968. 44-45-b.

inobatga olganda, vaznni bilishning ahamiyati yanada oydinlashadi. Keltirilgan misollar faqat shu nashrlardagina tahririyat tomonidan qo'yilgan xatolar. Biroq barcha nashrlarda takrorlanuvchi, odat tushirib berilgan nuqsonlar ham yo'q emas. Jumladan, eng ko'p takrorlanuvchi xatolardan biri Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidan olingan mashhur bayt:

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo'q/ xalq g'ami/din g'ami.
- V V - - V V - - V ~

Ikkinchi misraning uchinchi hijosi qisqa bo'lganligi uchun "onikim" so'ziga "m" tovushini qo'shishning iloji yo'q. Aks holda "muftailun" ruhiy "foilotun"ga aylanadi. Bu esa "Hayrat ul-abror" dostoni vazniga xilofdir.

4. Aruzni bilish she'riy janrlarni farqlash va to'g'ri tahlil qilish imkonini beradi. Zero, ruboiy, tuyuq, mustazod, noma (yoxud muhabbatnoma), sayohatnoma kabi janrlar uchun vazn asosiy xususiyat sanaladi. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida qayd etilgan turkiy, chinga, aruzvoriiy kabi "surud" nav'larini ham shu qatarga qo'shish mumkin.

Aruz ilmini o'rganishning bundan boshqa ham ko'plab foydalari jihatlar mavjud bo'lib, ular belgilangan ko'nikma va malakalarni egallash davomida oydinlashadi.

"Aruz" atamasining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud.

1. Alisher Navoiyning ma'lumot berishicha, bu atama vazn asoschi Xalil Ibn Ahmadning vatani bo'lmish Arabiston yarim orolida joylashgan bir vodiyni nomi bo'lib, u vodiydagi kishilarning asosiy mashg'uloti vaqtinchalik uy-chodir tikib sotishdan iborat ekan. Arab tilida uy ma'nosini "bayt" so'zi bilan ifodalanganligi uchun, Xalil Ibn Ahmad she'rning eng kichik qismini ham shu so'z bilan nomlagan. Aruz tizimidagi atamalarning ko'pchiligi shu vodiylar xalqining urf-odatlarini, ashyolari nomidan olingan.

2. "Aruz" so'zi, shuningdek, uyni (chodirning) asosini tashkil etuvchi ustunlar (ruklar)dan birining nomini ham ifodalay ekan. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra vaznning nomi aynan shu so'zdan olingan.

3. Fors-tojik aruzshunosligining asoschilaridan biri bo'lgan Shamsiddin Muhammad Qays Roziyning "Al-Mu'jam" asarida mazkur atamaning etimologiyasi haqida boshqacha fikr keltirilgan: "Bidon, ki aro'z mizoni kalomi manzum ast, hamchunon ki nahv mizoni kalomi mansur ast. Va onro az bahri on aro'z xonand, ki ma'ro'zi alayhi she'r ast, ya'ne she'rro bar on arz kunand, to mavzuni on az nomavzun padid oyad

...mushu (sahih) az nomustaqim (nosaheh) mumtoz gardad".⁹ Ayni paytda, shu (mushu) mansur (nasriy) nutq o'ldhovi bo'lgani kabi, aruz (nasriy) nutq o'ldhovidir. Va uni shuning uchun aruz deb nomladilar, shu'ni unga arz qiladilar, toki vaznli she'r vaznsizdan, (g'ayri nomustaqim bo'lganidan).

Arzobon olimlar, xususan Alisher Navoiyning fikriga ko'ra aruz (nasriy) she'r (mushu) ancha qadimdan qo'llangan. Shuningdek, (nasriy) she'r (mushu) dagi ayrim oyatlar, Payg'ambar (s.a.v.) hadislari ham aruz (nasriy) she'r (mushu) dan iboratligini ta'kidlab Navoiy bir necha misol ham keltiradi:

Arzu bilukim, aruz fanikim, nazm avzonining¹⁰ mezonidur¹¹,
shu'ni fashar. Nevehunkim, nazm ilmining rubasi¹³ bag'oyat biyik¹⁴
... Arzu bilukim, haq subhanahu va taoloning kalomi majidida ko'p
... mezonidur¹⁵ voqe bo'lubdurki, aruz qavoidi¹⁵ bila rostdur. Ul jumladin biri
... "Lan tanoval birra hatta tunfiqun"¹⁶dur, "ramali musaddasi
... mezonidur¹⁷ voqe bo'lubdur. Va yana budurkim: "Val-mursaloti urfan, fal-
... mezonidur¹⁸ afdan"¹⁹ kim vazni "maf'uvlu foilotun maf'uvlu foilotun"dur... Va
... mezonidur²⁰ afdan alayhi vasallam ahodisida¹⁸ dag'i ham bu tariq tushubdur.
... mezonidur²¹ biri budurkim, "man akrama oliman faqad akramani"¹⁹kim,
... mezonidur²² maf'uvlu mafafoilun mafafoilun faul"dur va ruboiy vaznida "hazaji
... mezonidur²³ maqbuzi maktufi majbub" voqe bo'lubdur" [2. 45].

Ayrim mutafakkirlarning qarashlariga ko'ra ruboiy janrining paydo bo'lishida ham eng mashhur oyatlardan biri "La havla va la quvvata illa billah" oyatining vazn-o'ldhovi zamin bo'lgan.

Demak, aruz vaznlar tizimi VIII asrda yaratilgan bo'lsa-da, anihila aruz ritmikasi qadimdan mavjud bo'lgan.

Aruz she'riy vaznlar tizimi nazariyasiga milodning VIII asrida yashab o'tgan arab filologi Xalil Ibn Ahmad (vafoti 791 y.) tomonidan asos solingan. Uning "Kitob ul-ayn" asarida mazkur vaznning nazariy

⁹ Shamsi Qayni Roziy. Al-Mu'jam. — Dushanbe: Adib, 1991. 31-bet.

¹⁰ avzon — Vazn so'zining ko'plik shakli, vaznlar.

¹¹ mezon — o'ldhov.

¹² shu'ni — shu'nfli.

¹³ ruba — martaba, daraja.

¹⁴ biyik — yuqori, yuksak.

¹⁵ qavoid — qoida so'zining ko'plik shakli, qoidalar.

¹⁶ Tarj. "Suygan narsalaringizni infoq-ehson qilib bermaguningizcha hargiz yaxshilikka (jannatga) yetmagaysiz" (Qur'oni Karim, "Oli Imron" surasi, 92-oyat).

¹⁷ Tarj. "Paydar-pay yuboriladigan shamollar va quturadigan bo'ronlar (ga qasam)" (Qur'oni Karim, "Val Mursalot" surasi, 1-2-oyatlar).

¹⁸ ahodis — hadis so'zining ko'plik shakli, hadislar.

¹⁹ Tarj. "Kim olimlarni e'zozlasa, o'zi ham e'zozlanadi".

qonuniyatlari o'z ifodasini topgan. Biroq Xalil ibn Ahmadning asari hadda qadar yetib kelmagan. U yaratgan qoidalar va misollar keyingi asarlarda yashagan aruziylar²⁰ning asarlari orqali yetib kelgan. Jumladan, fors aruzining asoschilaridan biri Nasiruddin Tusiy o'zining «Me'yori ul-ash'or» asarida shunday yozadi: «Aruziylar har bir vaznni tushunish uchun misol tariqasida bayt keltiradilar. Va arab aruzidan aynan Xalil ibn Ahmad izohlagan baytni keltiradilar. Shu sababli biz ham ushbu baytni aynan o'zgarishsiz keltiramiz... Biz ishni Taviil bahrini tahlil qilish boshlaymiz, zero, Xalil ibn Ahmad shu yo'ldan borgan va boshqalar ham unga ergashgan edilar».²¹

Manbalarda qayd etilishicha, Xalil ibn Ahmad aruz ilmidagi juzv sakkizta asl rukn (asllar), 15 ta bahr (taviil, madid, basit, vofir, komil, hamd, rajaz, ramal, sari', munsarih, muzori', xafif, muqtazab, mujtassab, muta'arab, muta'arib) hamda beshta doira (bir-biriga yaqin bahrlarni aks ettirish uchun maxsus chizma) yaratgan.²²

Aruz vazni IX asrdan boshlab fors-tojik she'riyatiga, XI asrdan boshlab esa turkiy she'riyatga ham kirib keldi. Biroq mazkur tillar (arab, fors-tojik va turkiy) fonetik, leksik va grammatik jihatdan tubdan farqlanish tufayli, har bir tildagi aruzning o'ziga xos belgilarini yoritish, aruz boshqa tillarga moslashtirish, yoxud shu tillarni aruzga moslashtirish muammosi yuzaga chiqdi. Natijada, "forsiy aruz", "turkiy aruz" kabi maxsus atamalar vujudga keldi. Shu bilan birga, badiiy ijod, xususan she'riyatning ravnaq topishi natijasida amalda qo'llangan vaznlar Xalil ibn Ahmad tomonidan ko'rsatilgan bahr va vaznlar doirasidan kengayib ketganligi sababli, aruz nazariyasiga oid yangi asarlarga ehtiyoj sezildi.

Xalil ibn Ahmaddan keyin XI-XIII asrlarda bir qator arab va fors-tojik she'rshunos olimlari yuqoridagi muammolar tahliliga bag'ishlangan asarlarni maydonga keltirishdi. Mahmud Zamaxshariyning "Al-qistos", Abu Jaysh Andalusiyning "Aruzi Andalusi", Abu Zakariyo Xatib Tabreziyning "Al-kafi fil aruz val-qavofiy", Rashiddin Vatvotning "Hadoyiq us-sehr", Ibn Hojibning "Ilm ul-aruz", Shamsiddin Muhammad ar-Roziyning "Al-Mu'jam fi ma'oyiri ash'oril Ajam", Nasiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" kabi asarlari shular jumlasidandir. Bular orasida Shams Qays Roziy va Nasiruddin Tusiy asarlari alohida o'ringa

²⁰ Aruz ilmi bilan mashg'ul bo'lgan olimlarga nisbatan aruziy atamasi ishlatilgan.

²¹ Насируддини Тӯсий. Меъёр-ул-ашъор. – Душанбе: Ориён, 1992. – С. 52-53.

²² Aruz ilmiga oid bu atamalar: juzv, asl, bahr va doiralar haqida keyingi mavzularda chuqurroq ma'lumotga ega bo'lamiz.

o'z fikrlarini asosan shu asarlari orqali ifoda etishgan.

Ushbu kitobda "Al-Mu'jam"²³ da she'riy ilmlar uchligi – aruz, qofiya va iqtisodiy masalalar haqida bahalashib, she'rning mezonini va uning vazifalari, uning asosiy turlari, badiiy san'atlar va ularning tuslanishi, xillari haqida qisqartirib ilmiy-nazariy mulohazalar yuritgan. Ustoz olim Shamsiddin Qaysi bu asarning o'z zamonida va undan keyingi davrdagi ilmiy mulohazalar haqida fikr yuritib, jumladan shunday yozadilar: "Shamsiddin Qaysi Roziyning "Kitob ul-mu'jam" asari uzoq yillar davomida she'r va iqtisodiy masalalar haqida shug'ullanuvchilarning dasturulamaliga aylangan edi. Ushbu asar qaysiy asarlar shundaki, Qays Roziy o'zigacha mavjud bo'lgan asarlarni o'z o'rniga asosida maydonga kelgan nazariy fikrlarni o'z ichiga olishgan edi. Shuning natijasida, muallifning aruz, qofiya va iqtisodiy masalalar sohasidagi mulohazalari, adabiy janrlar haqidagi fikrlari o'z davri asarlari sharoitiga nisbatan mukammalligi bilan ajralib turardi".²⁴

Aruzshunoslik tarixida XV-XVI asrning birinchi yarmi, ya'ni 15-asr davri alohida o'ringa ega. Shu davrda, aniqrog'i, 1437-yilda Shamsi Andoydodi Ahmad Taroziyning Mirzo Ulug'bek topshirig'i bilan yozilgan "Funun ul-balog'a" asari turkiy tilda mazkur masala tahliliga bag'irlangan ilk manba bo'lganligi bilan ahamiyatlidir.

Alshuramon Jomiyning "Risolayi aruz", Alisher Navoiyning "Mozon ul-avzon", Sayfiy Buxoriyning "Arusi Sayfiy", Zahiriddin Navoiyning "Muxtasar", Atoulloh Husayniyning "Badoe' us-sanoe'" kabi asarlarda ham she'rshunoslikning boshqa jihatlarini (janrlar, badiiy san'atlar) bilan bog'liq qatorda, turkiy va forsiy aruzning nazariyasi hamda o'z davriga bog'liq amaliyotiga oid fikr-mulohazalar, qonuniyatlar o'z ifodasini topgan. Baholanganlar orasida Navoiy va Boburning asarlari turkiy-o'zbek tilida ekanligi hamda shu muammoga maxsus bag'ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.²⁵ G'iyosiddin Xondamir «Makorim ul-axloq» asarida «Mozon ul-avzon» haqida shunday yozadi: "Hazratning she'riyatning barcha jihatlarini borasidagi katta mahorati va tajribasi ana shu risoladan (Mozon ul-avzon)" ma'lum bo'ladi. Chunki [ul Hazrat ushbu asarda] ilgari yashab o'tgan shoirlarning aql yog'dusi unga tushmagan bir necha

²³ Shamsi Qaysi Roziy. Al-Mu'jam. – Dushanbe: Adib, 1991.

²⁴ Valixojayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. X-XIX asrlar. -Toshkent: O'zbekiston, 1993. 32-b.

²⁵ Temuriylar davrida yaratilgan aruz ilmiga oid asarlar haqida to'liqroq ma'lumot olish uchun qarang: Yusupova D. "Temuriylar davridagi aruzga doir risolalarning qiyosiy tahlili". Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. www.navoiy-uni.uz, www.ziyounet.uz.

go'zal bahrni aruz bahrlari qatoriga qo'shganlar".²⁶ XVI asrning yirik mutafakkir olimi Hasanxoja Nisoriy esa "Muzakkiri ahbob" tazkirasida Boburning "Aruz risolasi" ("Muxtasar")ni "durru gavharga to'la dengiz" deya yuksak baholagan edi.

XVIII asrda boburiylar sulolasidan bo'lgan Mirza Alibaxt Azlarning Boburning «Aruz risolasi»ni «Aruzzoda» nomi bilan fors tiliga nazm asosida tarjima qiladi. XIX asrda Munis Xorazmiy Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» risolasini kitobat qilgani, Zokirjon Furqat esa shu risola asosida «Ilmi she'ring qoidai avzonini bayoni» kitobini yozganligi ma'lum.

XX asrda adabiyotshunoslik ilmining boshqa yo'nalishlari kabi aruz she'riy tizimini tadqiq etishga bag'ishlangan bir qator ilmiy asarlar, monografiya va dissertatsiyalar maydonga keldi. Bu borada rus olimlari Y.E.Bertels, M.Stebleva, tojik adabiyotshunoslari Bahrom Sirius, M.Zehniy, U.Toirov, R.Musulmonqulov, S.Solihov, A.Nadjibullohi hamda o'zbek olimlaridan Abdurauf Fitrat, I.Sultonov, S.Mirzayev, Sh.Shomammedov, E.Talabov, A.Rustamov, U.To'ychiev, S.Hasanov, A.Hojiahmedov, H.Boltaboyev kabilarni alohida qayd etish lozim. Mazkur olimlarning ayrimlari (M.Stebleva, I.Sultonov, S.Hasanov) alohida manbalarni tadqiq etish orqali, ayrimlari esa aruz she'riy vaznlar tizimini yaxlit o'rganish asosida (Fitrat, Bahrom Sirius, U.To'ychiev, A.Hojiahmedov) o'z tadqiqotlarini yaratishdi.

Sanab o'tilganlar orasida, ayniqsa, U.To'ychiev va A.Hojiahmedovning ishlarini alohida qayd etish lozim. U.To'ychievnin "O'zbek poeziyasida aruz sistemasi" monografiyasi aruzning nazariyasi asoslari hamda turkiy she'riyatdagi tadrijiy taraqqiyotini o'rganishda qimmatli manba bo'lsa, A.Hojiahmedovning "O'rta maktabda aruzni o'rganish", "O'zbek aruzi lug'ati", "Navoiy aruzi nafosati" kabi qator kitoblari aruzni o'rganish va o'rgatish uslubiyati borasida qator yillardan beri birlamchi manbalar sanaladi.

Yangi asrning o'tgan davri davomida aruz vaznlar tizimini ilmiy tadqiq etish, o'qitish bilan birga, shu vaznlarda ijod etish amaliyoti ham XX asrga nisbatan ma'lum darajada kuchayganligini sezish qiyin emas. Jumladan, M.Olimovning "Risolai aruz" (– T.: Yozuvchi, 2002), A.A'zamovning "Aruz" (– T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2006), N.Shodmonovning "Aruz vazni asoslari" (– Qarshi: Nasaf, 2012), D.Zohidovanning "Aruz saboqlari" (– T.: MUMTOZ SO'Z, 2016) hamda

²⁶ Xondamir G'iyosiddin. Makorim ul-axloq (Fors tilidan Komiljon Rahimov tarjimasi). – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015. 44-bet.

Ushbu asarlar muallifining "O'zbek she'riyatida aruz" (– Sam.: SamDU nashri, 2010) kabi risola va qo'llanmalarini qayd etish mumkin.

Hu. husnida, ayniqsa, adabiyotshunos D.Yusupovanning so'nggi yillar davrida aruz ilmi asoslariga doir olib borgan izlanishlari e'tiborga molik. Ushbu "Alisher Navoiy "Xamsa"sida mazmun va ritmning badiiy qurilishi" monografiyasi (–T.: MUMTOZ SO'Z, 2011), Abdurahmon Jo'miy "Risolayi aruz" asari tarjimasining nashri, "Aruz alifbosi" (–T.: MUMTOZ SO'Z, 2015) qo'llanmasi hamda "Temuriylar davridagi aruzga oid risolalarning qiyosiy tahlili" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ushbu jumladan.

Aruz ilmiga doir tadqiqotlarning soni va salmog'idan qat'i nazar, bu sohada hali muammolar yetarlicha topiladi.

Hu. husndan, aruz ilmiga oid manbalarning birontasi hozirga qadar asosiy tadqiqotiy ma'tniga ega emas.

Aruz nazariyasi va amaliyotiga oid yaratilgan va yaratilayotgan tadqiqotlarning aksariyati u yoki bu manba (ko'pincha "Mezon ul-avzon" yoki "Muxtasar")ga tayanib yozilayotganligi uchun o'sha manbalardagi, ularning nashrlaridagi kamchiliklar takrorlanmoqda. Natijada, qoidalar, tamomalaridagi tafovutlar yuzaga kelmoqda.

So'nggi yillarda aruz vaznlarida she'r yozishga ishtiyoq yosh olimlar orasida ancha kuchayib, hatto "yangi vaznlar kashf etish" holatlari ham kuzatilmoqda. Shunday paytda aruz ritmikasiga oid fundamental tadqiqot, vaznlarni sanab o'tishgagina emas, ularning tuzilishini, poetik mohiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy manbalarga ehtiyoj tug'iladi.

Jahon she'riyatidagi vaznlar, xususan, aruz haqidagi umumiy tushunchalarni boyitish uchun quyidagi manbalarga murojaat etish mumkin.

1. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. 307-331-betlar.

2. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Тошкент: Фан, 1985, 51-53-betlar.

Adabiyot va manbalar

1. Абдурахмон Жомий. Рисолайи аруз (Таржимон, шарх ва изохлар муҳлифи Д.Юсупова). – Т.: Tamaddun. 2014.
2. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 1998.

3. Ахмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003 й., 1-6 сонлар; 2003 й., 1-6 сонлар.
4. Бобур. Мухтасар (Нашрга тайёрловчи С.Хасанов). - Т.: Фан, 19...
5. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. -Т.: Ўзбекистон мила...
6. Юсупова Д. "Темурийлар давридаги арузга доир рисолалари киёсий таҳлили". Филология фанлари доктори дисс...
7. Шамси Қайси Розӣ. Ал-Муъҷам.- Душанбе: Адиб, 1991.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun topshiriqlar

1. "Aruz" atamasining lug'aviy va istilohdagi ma'nolarini sharhlab bering ("Mezon ul-avzon", Xalil ibn Ahmad, vodiy, o'lchov, qisqa cho'ziq hijolar).
2. Aruzshunoslik sohasida turkiy tilda yaratgan qaysi asarlarni bilasiz, ularga qisqacha tavsif bering (Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur, ilk manba, 19, 21, she'riy janrlar, ruboiy vaznlari).
3. XX asr o'zbek adabiyotshunosligida aruz she'riy tizimini o'rganib bo'yicha bajarilgan ishlar haqida nimalarni bilasiz? (Fitrat, A.Sa'diy, U.To'ychiyev, A.Rustamov, A.Hojiahmedov, S.Hasanov, D.Yusupova; aruzga doir asarlarni nashr ettirish, ilmiy tadqiqot ishlarini o'quv adabiyotlari).
4. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asari haqida ma'lumot bering (aruz vazni, asar tuzilishi, juzvlar, asllar, rukn o'zgarishlari, taqte', doiralar, ruboiy, tuyuq va mustazod janrlari, "surud" nav'lari).
5. 11 hijodan iborat bo'lgan ushbu she'riy parchalarni o'zaro qiyoslang, cho'ziq va qisqa hijolar ketma-ketligiga e'tibor bering:

Sen qaydan bilasan/, balki yulduzlar
Menga sirlarini / so'yalayotgandir.
Sen qaydan bilasan/, balki bu ko'zlar
Mungli bir qo'shiqni / kuylayotgandir.

Abdulla Oripov

Jamolidin / ko'rungach far/ri shohi,
Bu fardin yo/rudi mah to / ba mohi.
Qo'yub yuz him/mat-u iqbo/l-u davlat,
Hamul far so/yasidin topti / ziynat.

Alisher Nanoiy "Farhod va Shirin".

2-MAVZU:

TAJIZ VA UNING TARKIBIY QISMLARI, JUZV VA RUKNLAR

REJA:

1. Aruzda hijolar va ularning sifati.
2. Harakatli va sokin harflar, abjad haqida.
3. Juzvlar va ularning tarkibi.
4. Axlar va ularning vazn tarkibidagi ahamiyati.

O'qilgani mavzuda guvoh bo'lganimizdek, aruz vaznlarida qisqa va cho'ziq hijolar bir xil tartibda takrorlanishi lozim (bu mavzu ayrim-ayrim holatlar mavjud bo'lib, ular haqida keyinroq ma'lumotga ega bo'lumiz). Binobarin, aruzni o'rganish uchun dastavval aruzning sifati haqida aniq tasavvurga ega bo'lish talab etiladi. Zamonaviy istilahlar bilan aytganda, aruz vaznida hijolar uch xil bo'lga ega qisqa (V²⁷), cho'ziq (–) va o'ta cho'ziq (–). Misol sifatida quyidagi baytlarning hijolarini bir-biriga qiyoslab ko'ramiz:

Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokrok,
Kirpirim shabnam to'kulgan sabzadin namnokrok.

Bu ko'ngul g'amnokidin to shodmon ko'r dum seni,
Ishtaram har damki bo'lg'ay xotirim g'amnokrok.²⁸

Ko'k/ra/gim/dur subh/ning pi/ro/ha/ni/din chok/rok,
– V – – ~ – – V – – ~ ~
Kir/pi/kim shab/nam to'/kul/gan sab/za/din nam/nok/rok.
– V – – – V – – – V – – ~ ~

Bu ko'ngul g'am/no/ki/din to shod/mon ko'r/dum se/ni,
– V – – – V – – ~ – – V –
Is/ta/ram har dam/ki bo'l/g'ay xo/ti/rim g'am/nok/rok.
– V – – – V – – – V – – ~ ~

²⁷ Hijoning sifatini ifodalash uchun zamonaviy aruzshunoslikda qabul qilingan bu shartli hijolar paradigmalari deb nomlanadi.

²⁸ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 4-tom ("Navodir ush-shabob"). – T.: Fan, 1989. 237-b.

Baytdan quyidagilar ma'lum bo'lmoqda:

- yopiq bo'g'inlar cho'ziq sanaladi:
 - 1-misra: ko'k, gim, dur, ning, din;
 - 2-misra: kir, gim, shab, nam, kul, g'an, sab, din, nam;
 - 3-misra: ngul, g'am, din, ko'r, dum;
 - 4-misra: is, ram, har, dam, bo'l, g'ay, rim, g'am.
- ochiq bo'g'inlar odatda qisqa:
 - 1-misra: ra, ha; 2-misra: pu, to', za;
 - 3-misra: ko', ki, se; 4-misra: ta, ki, ti.
- "o" tovushi bilan tugagan ochiq bo'g'in ham cho'ziq:
 - 3-misra: no, to; 4-misra: xo.
- qator undoshli yoxud "o" tovushidan keyin undosh qatnash bo'g'inlar o'ta cho'ziq²⁹:
 - 1-misra: subh, chok, rok; 2-4-misralar: nok, rok;
 - 3-misra: sfiod.
- 3-misra oxirida kelgan "ni" bo'g'ini misra oxirida bo'lgan uchun co'ziq talaffuz qilinadi, zero misra hech qachon qisqa bo'lgan bo'lsa ham, bu misra o'ziga hiyo bilan tugamaydi.
- ayrim ochiq bo'g'inlar vazn talabiga ko'ra cho'ziq talaffuz etiladi:
 - 1-misra: pi, ni; 3-misra: bu.

Aruzni o'rganishning dastlabki muammosi ayni shu yerda ya'ni ochiq bo'g'inlarning qisqa va cho'ziq talaffuz etilishida paydo bo'ladi. Aruzga oid ba'zi qo'llanmalarda unlilarni qisqa va cho'ziq unlilarni ajratish holati kuzatiladi. Biroq masalaga bunday yondashish amalda yordam bera olmaydi. Misol uchun quyidagi misralarning vaznini qiyoslang (hozircha vaznni mustaqil aniqlash amaliyotiga o'tmaganim uchun keltirilgan paradigmatlarni to'g'ri deb qabul qilish kerak):

Meni shaydo / qiladurg'on / bu ko'nguldur, / bu ko'ngul...

- V - - V V - - V V - - V V -

Meni men is/tagan o'z suh/batig'a ar/juman-d³⁰ etmas...

V - - - V - - - V - - - V - - -

²⁹ Izoh: o'ta cho'ziq bo'g'inlar misraning boshi va o'rtasida ikki hijoga, ya'ni cho'ziq va qisqa (- V) hijoga ajratiladi, misra oxirida esa aslicha qoladi. Bu haqda keyinroq ma'lumotlarimizni to'ldiramiz.

³⁰ "mand" bo'g'ini o'ta cho'ziq bo'lganligi uchun oxirgi tovusi ("d") keyingi bo'g'inga ko'chiriladi.

Harf bo'lganimizdek, "meni" so'zi ikki misrada ikki xil hijolarni ifodalaydi: "bu" bo'g'ini esa yuqoridagi parchadan farqli o'laroq, "men" bo'g'ini ifodalaydi. Binobarin, aruz vaznini o'rganish uchun unli harflar bilan harflar, bo'g'in haqidagi zamonaviy ma'lumotlarimizdan foydalanish zarur. Bizning yozuvimizga, qanchalik qiyin bo'lmasin, arab yozuvi asoslariga tayanadigan "juzvlar" ta'limotini o'zlashtirishimizga ehtiyoj keladi. Bu ta'limot turkiy-o'zbek tilidagi she'rlarni tahlil qilish uchun zarur, balki aruz qoliplarini o'rganishimiz uchun zarurdir.

Aruz vaznida she'rning eng kichik bo'lagi bayt³¹ hisoblanadi. Bayt hajmi o'zgarib, odatda, ikki misrani tushunamiz. Bayt ruknlardan, rukn³²lar yoki juzvlardan tashkil topadi. Juzv (arabcha جزو – bo'lak, qism, qismlar) arab alifbosidagi harflarning harakatli (fatha, kasa, zamma) harflari bilan yoki sokin tarzda qo'llanishidan hosil bo'ladi. Demak, baytning hosil bo'lishini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

harf → juzv → rukn → bayt

Binobarin, aruz nazariyasini o'rganish uchun dastlab:

- arab alifbosi, xususan, abjad hisobida ishtirok etadigan 28 ta asl arab harflari haqida tasavvur hosil bo'lishi;
- harakatli va sokin harflar, ularning hozirgi yozuvimizda ifodalanish xususiyatlarini bilish zarur.

Abjad hisobi tarixiy sanalarni ifodalashning Sharq xalqlari orasidagi o'ziga xos usuli bo'lib, unda sanalar raqamlar bilan emas, harflar yoki harflar ishtirokida hosil bo'luvchi so'z va jumla ifodalashida ifodalanadi. Abjad hisobida harflarning maxsus tartibi mavjud bo'lib, "abjad" so'zi ham mazkur tartibdagi dastlabki to'rtta harfni (alif, ba, jim va dol) ifodalovchi so'zdir. 28 ta harf jami sakkizta so'zda ifodalanadi. Bular: abjad, havvaz, huttiy, kalaman, sa'fas, qarashat, zazaq, zazag'. Demak, shu sakkizta so'zni va ularning arabcha ifodalanishini yod olgan kishi abjad hisobidagi harflar tartibini eslab qoladi. Raqamlar 1 dan 9 gacha, 10 dan 90 gacha, 100 dan 1000 gacha har bitta harfda biriktiriladi. Buni jadvalda quyidagicha ifodalash mumkin:

³¹ "Bayt" so'zi arab tilida uy degan ma'noni ifodalaydi.

³² "Rukn" so'zi arab tilida ustun (uyning asosi) degan ma'noni ifodalaydi.

Arab alifbosining abjad hisobidagi tartibi

Harf	Nomi	Raqami	Harf	Nomi	Raqami
ا	Alif	1	س	Sin	60
ب	Be	2	ع	Ayn	70
ج	Jim	3	ف	Fe	80
د	Dol	4	ص	Sod	90
ه	He	5	ق	Qof	100
و	Vov	6	ر	Ro	200
ز	Ze	7	ش	Shin	300
ح	Ho	8	ت	Te	400
ط	To	9	ث	Se	500
ي	Yo	10	خ	Xe	600
ك	Kof	20	ذ	Zol	700
ل	Lom	30	ض	Zod	800
م	Mim	40	ظ	Zo	900
ن	Nun	50	غ	G'ayn	1000

Masalan, Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining yozilish tarixini asar so'ngidagi ruboiyning quyidagi misrasida ifodalagan:

Tarixi chu "xush" lafzidin o'ldi hosil...

Bunda "xush" so'zi arab yozuvida uchta harf ya'ni ش و خ harflari bilan ifodalanishi, ularning abjad hisobida 600, 6 va 300 sonlariga teng kelishini inobatga olsa, mazkur sonlar yig'indisi 906 ya'ni hijriy sanalar bilan asarning yozilgan yilini ifodalaydi.

Yusuf Amiriyning "Dahnoma" dostonida quyidagi bayt tarixi sifatida keltirilgan:

Bitidik emdi tarixini kotib,

Erur tarixi uchun "zabti vojib".

"Zabti vojib" birikmasi arab yozuvida quyidagi harflar bilan ifodalanadi (harflar odatiy tartibda – chapdan o'ngga qaratilgan joylashtirildi):

ب ج ا و ط ب ض

Bu harflar quyidagi raqamlarni ifodalaydi:

$$800 + 2 + 9 + 6 + 1 + 3 + 2 = 823$$

Demak, asar hijriy 823 yilda yozilgan. Bu melodiylar 1420-yilgacha to'g'ri keladi.³³

³³ Ma'lumot uchun hijriydan melodiylarga o'tkazish amali: $M = (H - H / 33) + 622$. Bunda H - hijriy, M - melodiylar yil.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, juzv aruzning eng kichik bo'lagi bo'linadi. Juzvlar arab alifbosidagi harakatli va sokin harflarning turli harakat va tartibda kelishi yordamida hosil qilinadi. Harakatlar, odatda, "a", "i" va "u" tovushlarini ifodalaydi. "Sokin" atamasi esa shu harf harakatlardan keyin qisqa unlilarning yo'qligini yoxud bo'g'in harakatini bildiradi. Misol uchun "maktab" so'zi joriy yozuvimizda olti harf va tovushdan iborat bo'lsa, arab yozuvida to'rtta harf bilan ifodalanadi: «ك ت ب ا» ("mim", "kof", "te", "be").

Ikki "m" harakatli ("a"), "k" sokin, "t" harakatli ("a") va "b" sokin. Demak, ikki bo'g'indan iborat bo'lgan bu so'zda har bir bo'g'in harakatli va bitta sokin harfdan tashkil topgan.

Avvalambor aytish joizki, aruz ilmiga oid manbalarda juzvlar masalasida ayrim tafovutlar ham mavjud. Jumladan, mazkur tushuncha Hujayy Boziyning "Al-Mu'jam" va Boburning "Muxtasar" («Aruz ilmi» asarida) juzv, Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a»sida asl, Hujayyning «Risolai aruz», Navoiyning «Mezon ul-avzon», Hujayyning «Badoyi' us-sanoyi'» va «Aruzi Sayfiy»da rukn tarzida ifodlangan. "Funun ul-balog'a" hamda "Mezon ul-avzon"da ularning tartibi quyidagicha:

1. Sabab (arabcha ustunlarni bog'laydigan arqon) - ikki harfli juzvlar.

2. Vatad (arabcha qoziq) - uch harfli juzvlar.

3. Fosila (maydon, tekislik, palos) - to'rt va besh harfli juzvlar.³⁴

Mazkur juzvlarning har biri harflarning harakatli yoki sokin harflariga ko'ra ikkiga bo'linadi. Demak jami olti xil juzv bor, deb aytish ham mumkin:

1. Sababi xafif (yengil sabab) - bir harakatli va bir sokin harfdan iborat. Masalan: man, gap, kim, gul, ul, uz, ish va hokazo. Mazkur juzv har bir cho'ziq hijoga teng keladi.

2. Sababi saqiyl (og'ir sabab) - ikki harakatli harfdan iborat. Masalan: kishi, mana, shuni, qara, ishi, meni va hokazo. Bu juzv ikki cho'ziq hijoga teng.

3. Vatadi majmu' (jamlangan vatad) - ikki harakatli va bir sokin harfdan iborat. Masalan: gulim, qamar, agar, tilim, guhar (gavhar), somon va hokazo. Bu juzv bir qisqa va bir cho'ziq hijoga teng.

³⁴ Ayrim manbalarda "fozila" juzvi ham tilga olinadi. Glossariy – izohli lug'atga qarang (130-bet).

4. Vatadi mafuq (ajratilgan vatad) - bir harakatli, bir sokin va ya bir harakatli harfdan iborat. Masalan: gulni, senda, qayda, ancha, kuni va hokazo. Bu juzv bir cho'ziq va bir qisqa hijoga teng keladi.

5. Fosilai sug'ro (kichik fosila) - uch harakatli va bir sokin harfdan iborat. Masalan: tilagim, qarasam, kamalak, alaming va hokazo. Bu juzv ikki qisqa va bir cho'ziq hijoga teng keladi.

6. Fosilai kubro (katta fosila) - to'rt harakatli va bir sokin harfdan iborat. Masalan: qaramading, tilaganim, so'ramasang, kuladilar va hokazo. Bu juzv uchta qisqa va bitta cho'ziq hijoga teng keladi.

Juzvlar albatta bitta so'zdan iborat bo'lishi shart emas, ikki yoki uchta so'zdan iborat bo'lishi ham mumkin. Chunonchi, bu tilak (fosilai sug'ro), bu kishi ham (fosilayi kubro).

Endi ayrim misollar tahlili orqali juzvlar nazariyasining amaliyotdagi ifodasiga doir ko'nikmani mustahkamlashga harakat qilamiz:

1. "Kam" - bu so'z arab yozuvida ikki harf bilan ("kof" - k va "mim" - m) ifodalanadi. Birinchi harf harakatli (fatha - qisqa "a") ikkinchisi esa sokin. Aruzshunoslikning hozirgi holatida bu so'z bitta cho'ziq hijoga teng, deb qaraladi. Aslida esa bu sababi xafif juzvidir.

2. "Kishi" - bu so'z ikki harakatli harf ("kof" - k va "shin" - sh)dan tashkil topgan. Harakatlar (kasra) esa qisqa "i" tovushini ifodalaydi. Ikki qisqa hijodan iborat bo'lgan bu so'z sababi saqiylidir.

3. "Tilim" - bu so'zda uchta harf ("te", "lom" va "mim") mavjud bo'lib, shundan ikkitasi harakatli ("te", "lom") va bittasi sokin ("mim"). Harakatlarning ikkisi ham kasra ya'ni qisqa "i". Demak bu bir qisqa va bir cho'ziq hijodan iborat vatadi majmu' juzvidir.

4. "Kutma" - Bu so'zda ham uchta harf ("kof", "te" va "mim") mavjud. Shundan ikkitasi harakatli ("kof" - zamma - u; "mim" - fatha - a) va bittasi sokin ("te"). Biroq ularning ketma-ketligi oldingi misoldagiday emas. Bunda sokin harf ikki harakatli harfning o'rtasida kelgan. Shuning uchun bu so'zning hijolar sifati teskari, ya'ni cho'ziq va qisqa bo'ladi va bu vatadi mafuqqa misol bo'la oladi.

Quyidagi jadvalda juzvlarning nomi, tarkibi, arab va joriy yozuvdagi yozilish shakli hamda paradigmasi (shartli belgilar) o'z ifodasini topgan:

Juzv nomi	Juzv tarkibi	Misol		Paradigma
		Arab	Lotin	
Sababi safif	Bir harakatli va bir sokin harf	گل	1. Gul, 2. Man	—
Sababi saqiyl	Ikki harakatli harf	گل	1. Guli, 2. Meni	V V
Vatadi majmu'	Ikki harakatli va bir sokin harf	گلم	1. Gulim. 2. Sanam	V —
Vatadi maf'uf	Bir harakatli, bir sokin va yana bir harakatli harf	گلم	1. Gulmi, 2. Senda	— V
Fosilai sug'ro	Uch harakatli va bir sokin harf	تگلم	1. Tilagim, 2. Harakat	V V —
Fosilai kubro	To'rt harakatli va bir sokin harf	تگلم	1. Tilaganim, 2. So'ramasam	V V V —

Juzvlarning miqdori va tarkibiga oid bir-biridan farq qiluvchi asoslar ham mavjud. Jumladan, Zahiriddin Boburning "Muxtasar" asarida:

• sababi mutavassit - bir harakatli va ikki sokin harf (dard);
 • vatadi kasrat - ikki harakatli va ikki sokin harf (parast);
 • fosilai uzmo - besh harakatli va bir sokin harf (tilamaganim) kabi ham ko'rsatilgan. Shuningdek, Boburning ta'kidlashicha, "Me'yor ash'or"da faqat ikki juzv: sabab va vatad e'tirof etilgan bo'lib, fosilalarning qo'shilishi natijasidir. Xususan:

• fosilai sug'ro - sababi saqiyl va sababi xafifning qo'shilishi;
 • fosilai kubro - sababi saqiyl va vatadi majmu'ning qo'shilishi natijasidir. Binobarin, ularni alohida juzv sifatida e'tirof etish shart emas [4: 17-18].³⁵

E'tibor bergan bo'lsangiz juzvlar tarkibi doimo ham tovushlar miqdoriga bog'liq bo'lavermaydi. Chunonchi, aruziy o'lchovlarga ko'ra "ul" so'zi bilan "shul" yoki "bul"; "agar" so'zi bilan "magar" yoki "qamar" teng vaznli hisoblanadi.

Aruz nazariyasining asoschisi Xalil ibn Ahmad juzvlarni turli tartibda qo'shish vositasida sakkizta ruknni hosil qilgan. Bu ruknlar dastlabki, birlamchi bo'lganligi uchun "asl ruknlar" yoxud "asl"lar ko'plik shakli "usul") deb nomlanadi. Rukn (ko'plik shakli "arkon")

³⁵ Muntazam murojaat etiladigan manbalar raqam bilan berildi. Katta qavs ichidagi raqamlar manbaning mavzu so'ngida berilgan adabiyotlar ro'yxatidagi tartibi hamda qit'ibox olingan sahifa raqamini ifodalaydi.

soʻzi arab tilida “ustun” degan maʼnoni ifodalaydi. Uy (bayt)ning ustunlar boʻlganidek, baytning asosi ruknlardir. Aruz ilmida bayt ritmik boʻlaklari ruknlar deyiladi. Barmoq vaznida misralar turoqlar boʻlganidek, aruz vaznlarida ruknlarga ajraladi. Biroq turoq bilan oʻrtasida jiddiy tafovutlar bor. Jumladan:

Turoq	Rukn
Turoqlar boʻgʻinlar miqdori bilan bir-biridan farq qiladi	Ruknlar hijolar miqdori bilan boʻgʻinlar miqdori bilan ham farq qiladi
Odatda bir misrada ikkita boʻladi	Misrada ikkita, uchta yoki toʻrtta boʻlishi mumkin (tavil usulida yozilgan sheʼrlar bundan mustasno)
Pauza bilan ajratiladi	Oʻz ritmiga ega boʻlib, pauza bilan ajratilmaydi
Soʻzlar oʻrtasida turoqlarga boʻlinmaydi	Ruknlarga ajratishda soʻzlar oʻrtasida boʻlinishi mumkin
Turoqlar ikki boʻgʻindan 7-8 boʻgʻingacha boʻlishi mumkin	Ruknlar 1 boʻgʻindan 4 (baʼzan 5) boʻgʻingacha boʻlishi mumkin.

Aruz ilmida ruknlar ikki xil ifodalanadi.

1. Mumtoz manbalarda ruknlarni ifodalaydigan maxsus oʻlchov (qolip) soʻzlar qoʻllangan boʻlib, ular “afoʻiyl” yoki “tafoʻiyl”lar deb atalgan. Ular lugʻaviy maʼnoga ega emas. Masalan: “faʼuvlun” degan soʻz (afoʻiyl) “samandar”, “bilardim”, “koʻnguldan”, soʻzlari yoxud “bilardim”, “sabab ne” kabi birikmalar va shularga teng nutq birliklari uchun oʻlchov soʻzi vazifasini bajaradi.

2. Zamonaviy aruzshunoslikda ruknlarni ifodalash uchun shartli belgilar – paradigmalarni qoʻllanadi. Masalan faʼuvlun uchun V – – va hokazo.

Demak, ruknning afoʻiyl va ruknning paradigmasini farqlashimiz lozim.

Mumtoz manbalarda asl ruknlarning hosil boʻlishiga oid qarashlar deyarli farq qilmaydi. Jumladan, Bobur “Muxtasar”da yozadi: “Fusohat (fasohatli kishilar) ajzoni (juzvlarni) har biri bila tarkib qilib ruknlar eʼtibor qildilar” [4. 18]. Boshqacha qilib aytganda, juzvlarni turli tartibda birlashtirish orqali ruknlar hosil qilinadi. Masalan “sen va “san” soʻzlari bir harakatli va bir sokin harfdan iborat boʻlganligi uchun, yuqorida koʻrganimizdek sababi xafif juzviga teng; “gulim” soʻzi esa

3. majmu' juzviga teng. Shu so'zlarni turli tartibda birlashtirish bo'lishda rukn hosil qilish mumkin:

1. Gulim sen - vatadi majmu' + sababi xafif.
2. Sen gulim - sababi xafif + vatadi majmu'.
3. Gulim sen san - vatadi majmu' + sababi xafif + sababi xafif.
4. Sen gulim san - sababi xafif + vatadi majmu' + sababi xafif.
5. Sen san gulim - sababi xafif + sababi xafif + vatadi majmu'.

Ma'lum bo'shda rukn vaznni ifodalovchi so'zlar – **afo'iyllar** bilan paradigmalari bilan quyidagicha ifodalanadi:

1. Gulim sen - fa'uvlun: V – –
2. Sen gulim - fo'ilun: – V –
3. Gulim sen san - mafo'iyun: V – – –
4. Sen gulim san - fo'ilotun: – V – –
5. Sen san gulim - mustaf'ilun: – – V –

Yuqorida qayd etganimizdek, asl ruknlar sakkizta bo'lib, ularning har biri bo'lishda Alisher Navoiyning fikricha sababi xafif, vatadi majmu', mustaf'ilun va fosilayi sug'ro juzvlari; Boburning fikricha esa sababi xafif, sababi saqiyl, vatadi majmu' va vatadi mafruk juzvlari ishtirok etadi.

Sakkizta aslning hosil bo'lish usullari, afo'iyli va paradigmasi quyidagi jadvalda misollar bilan ko'rsatilgan.

No	Asllar		Tarkibi	Misol	Paradigma
	Arab yozuvida	Lotin yozuvida			
1	فعلون	Fa'uvlun	Vatadi majmu' + sababi xafif	Gulim sen Gulim/ sen	V – – V –/ –
2	فعلن	Fo'ilun	Sababi xafif + vatadi majmu'	Sen bilan Sen/ bilan	– V – –/ V –
3	مفاعيلن	Mafo'iyun	Vatadi majmu' + Sababi xafif + Sababi xafif	Samarqandim Samar/qan/dim	V – – – V –/ –/ –
4	فاعلاتن	Fo'ilotun	Sababi xafif + vatadi majmu' + sababi xafif	Soqiyo kel So/qiyo/ kel	– V – – –/ V –/ –
5	مستعملن	Mustaf'ilun	Sababi xafif + sababi xafif + vatadi majmu'	Tunlar o'tib Tun/lar/ o'tib	– – V – –/ –/ V –
6	مفعولات	Ma'uvlotu	Sababi xafif + sababi xafif + vatadi mafruk	Kelmaysanmu Kel/may/sanmu	– – – V –/ –/ – V

7	مُتَاعِلُنْ	Mutafo`ilun	Sababi saqiyl + sababi xafif + vatadi majmu`	O'qiganlarim O'qi/gan/larim	V V V V
8	مُفَاعِلُنْ	Mafo`ilatun	Vatadi majmu` + sababi saqiyl + sababi xafif	Jafolaridan Jafo/lari/dan	V V -

Izoh: Jadvaldagi ma'lumot Boburning "Muxtasar" asari asosida berildi. Bobur shuningdek, "foilotun" va "mustaf'ilun" ruknlarini ikki xil yo'l bilan hosil qilinishini ham qayd etadi. Jumladan: fo-ilo hamda foi-lo-tun (vatadi mafruq + sababi xafif + sababi xafif).

Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon"ida oxirgi iiki asl juzvlar tarkibi boshqacha berilgan: Mutafo`ilun – fosilayi sug'ro vatadi mafruq. Mafo`ilatun - vatadi mafruq + fosilayi sug'ro.

Ogahiyning quyidagi baytini ruknlarga ajratib ko'ramiz:

Xokiy taning / barbo-d o'lur / oxir jahon / da necha yil,

- - V - - - V - - - V - - - V -

Say-r et Sulay / mondek agar / taxting qurub / bo-d ustina.

- - V - - - V - - - V - - - V -

Demak bayt "mustaf'ilun" aslining sakkiz marta takrorlanishida hosil bo'lgan.

Aruz ilmiga oid mumtoz manbalarda asl ruknlar asosan uch belgilarga ko'ra tasnif qilinadi: harflar miqdori, arab va ajam she'riyatiga xos ekanligi hamda juzvlar tarkibining bir xil ekanligi ("qarindoshlik").

Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" hamda Boburning "Muxtasar asarlarida asl ruknlar harflar miqdoriga ko'ra ikkiga – bes harfli ("xumosiyy") va yetti harfli ("suboi'y") ruknlarga ajratilgan: "Hech rukn besh harftin kamroq va yetti harftin ko'prak kelmaydur... Bas ush xumosiyy bo'lg'ay, yo suboi'y" [4. 18].

Ahmad Taroziy, shuningdek, ushbu ruknlarni tarkibi bo'yicha qarindoshlik nuqtai nazaridan tasnif qiladi. Uning fikricha, sakkiz rukndan yettitasi o'zaro "uxti" ("opa-singil"). Xususan, bir sababi xafif va vatadi majmu'dan tarkib topgan **fa'uvlun** va **fo'ilun**; ikki sababi xafif va bir vatadi majmu'dan tarkib topgan **fo'ilotun**, **mafo'iyun** va **mustaf'ilun** hamda vatadi majmu' va fosilayi sug'ro juzvlaridan tarkib topgan **mafo'ilatun** va **mutafo'ilun** o'zaro "qarindosh"dir. Faqatgina **mafu'lotu** rukni yolg'iz bo'lib, uning qarindoshi yo'q, chunki faqat

vatadi mafruq qatnashadi. Biroq fo'ilotun va mustaf'ilun aslida bir short bilan unga qarindosh sanalishi mumkin, Ya'ni, uning tarkibi:

fo'i - fo - tun (vatadi mafruq + sababi xafif + sababi xafif);

mun - taf'i - lun (sababi xafif + vatadi mafruq + sababi xafif)

mafo' - 'uv - lotu (sababi xafif + sababi xafif + vatadi mafruq) bilan o'zaro bog'lanish hosil qilishi mumkin.

Buning asarida asl ruknlarning bunday tasnifi uchramaydi. Buning ham mafoiylun va mustaf'ilun asllarining ikki xil tarkibiga e'tibor berib, "Bu arkon suvratta sekkizdur, haqiqatta o'n" deb aytilgan [2. 18].

Asllarning bunday tasnifi aruzda muhim ahamiyatga ega, zero ular o'zaro bog'lanish bahrlarining yuzaga kelishida e'tiborga olinadi (bu haqda keyingi mavzuda to'xtalamiz).

Alisher Navoiyning guvohlik berishicha, mazkur asllarning tarkibi fors-tojik va turkiy she'riyatda qo'llanadi: "Va ulcha bu sekkiz holdin (asllardan - S.T.) forsiy she'rda kasirul vuqu'dur - beshdur: mafoiylun va fo'ilotun va mustaf'ilun va maf'uvlotu va fa'uvlun. Va turkcha she'rda ham ulcha mulohaza qililibdur, bu arkondin (asllardan - S.T.) o'zga vuqu' topmas" [2. 47-48].

Hinobarin, fo'ilun, mutafo'ilun va mafo'ilatun asllari arab she'riyatiga xos bo'lgan ruknlardir.

Shundan kelib chiqqan holda, biz ham mazkur besh asl va ulardan hosil bo'ladigan bahrlarga ko'proq e'tibor qaratamiz. Zero asosiy maqsadimiz mumtoz she'riyatimizda qo'llanuvchi vaznlarni chuqurroq o'rganishdir.

Adabiyot va manbalar

1. Абдурахмон Жомий. Рисолайи аруз (Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи Д.Юсупова). – Т.: Tamaddun, 2014.
2. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 1998.
3. Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002 й., 1-6 сонлар; 2003 й., 1-6 сонлар.
4. Бобур. Мухтасар (Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов). - Т.: Фан, 1971.
5. Ёлтабоев Ҳ. Шарҳ мумтоз поэтикаси. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. - 427 б.

6. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998.
7. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz. – Sam.: SamDU nashri, 2011. B. 66.
8. Yusupova D. Aruz alifbosi. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
9. Юсупова Д. “Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг киёсий таҳлили”. Филология фанлари доктори диссерт. автореферати. –Т., 2019.
10. Шамси Қайси Розӣ. Ал-Мўъҷам.- Душанбе: Адиб, 1991.

O'zini o'zi nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

1. Quyidagi tarix va chiston she'rlarni abjad yordamida taqdim qiling:

"Zod" edi tarix taqi "he"yu "dol",
Muddati hijratdin o'tub mohu sol.

Durbek. "Yusuf va Zulayha"

Ul na boshi to'rt, bo'yni oltidur, sohib suxan,
Beli to'rt yuz, poyi bir, joni iki yuz rohzan?
Tong emas, dil muddaosi bo'lsa hosil, ey gado,
Bul Azizi Misrdurkim, Yusufi gulpirahan. *Uvaysiy.*

2. Quyidagi misrani juzvlarga ajrating:

Ul ko'zi qaro dardu g'amidin chidamadim.

"Mezon ul-avzon"dan

3. "Bayt", "rukni", "juzv" so'zlarining lug'aviy va istilohiy ma'nolari haqida nimalarni bilasiz? (ustun, uy, qism, harakatli va sokin harflar, ritmik bo'lak, asl ruknlar)
4. "Sabab", "Vatad" va "Fosila" juzvlarining tarkibi va turlari misollar bilan sharhlab bering (harakatli va sokin harflar, harflar miqdori, juzv, hijo va bo'g'in o'rtasidagi munosabat).
5. Quyidagi baytlarni ritmik bo'laklar - ruknlarga to'g'ri taqsimlab, qaysi aslga tegishli ekanligini hamda tarkibini (juzvlarini) izohlab bering:

Sango ul tur/rayi hindu,
Mango solmish / qaro qayg'u.
Navosiz / ulusning / navobax/shi bo'l,
Navoiy / yamon bo'l / sa sen yax/shi bo'l.

Nasroni nasrim / kotibi tax/minshunos,
Vatan yuz ming / bay-t etar er/di qiyos.
Hayri haram/da sar-basar / ul yuzdin is/tarlar xabar,
Ko'p ham nizo' / etma agar / ul der samad./ bul der sanam.

Ushbu bayt so'zlar vositasida turli asl ruknlarni hosil qiling:

birp, so'z, ham, jafo, chekma, qilasan, bilan.

Masalan: so'z bilan - foilun

**Quyidagining quyida berilgan baytidagi so'zlarni vaznga qarab
to'g'ri tartibda joylashtiring (misralardagi so'zlarning o'rnini
aniqlashtiring, vazn, qofiya va radif hamda mazmunga diqqat qiling):**

Vatan bor ayolu uzra to joni,

Harb toki kishi etar bor imkoni.

Fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'ul

3-MAVZU:
ASL RUKNLARNING O'ZGARISHI, ZIHOV VA FURU'I
REJA:

1. "Solim", "zihof" va "furu'" atamolari haqida.
2. Asl ruknlarning o'zgarishi, zihof va furu'lar.
3. Mufrad va murakkab zihoflar.
4. Zihof va furu'lar tarkibidagi muammolar.

Yuqorida ko'rib o'tganimiz sakkizta asl rukn ayni holatda ruknlar hisoblanadi. "Solim" so'zi arab tilida to'liq, butun degan ma'no bildiradi. Aruz nazariyotchilari, xususan, Xalil ibn Ahmad, ma'no solim ruknlarni turli tarzda o'zgartirish natijasida qisqargan, aniq o'zgargan shakllarini yuzaga keltirishgan. Masalan:

"Fa'uvlun" rukni ayni holatda solim hisoblanadi. Yuqoridagi ko'rganimizdek, bu rukn bitta vatadi majmu' va bitta sababi xafif tashkil topgan.

Fa'uv - ikkita harakatli va bitta sokin harf.

Lun - bitta harakatli va bitta sokin harf.

Ushbu rukn **"hazf"** usulida qisqartirilganda, uning oxirida sababi xafif (lun) to'laligicha olib tashlanadi. Natijada, fa'uv qoladi. Uning o'rnida talaffuzi qulayroq bo'lgan fa'ul so'zi qo'llanadi. Chunki bu ikki so'z harakatli va sokin harflar tarkibi va paradigmasiga ko'ra tengdir. **"Hazf"** usuli natijasida hosil bo'lgan rukn **"mahzuf"** deyiladi.

Biz yuqorida "qisqarish usuli" deb nomlagan hodisa aruz tilida **"zihof"**, "qisqarish natijasi" esa **"furu'"** atamasi bilan yuritiladi.

Yana bir misol:

"Fa'uvlun" rukni **"qasr"** usuli (zihofi)da qisqartirilganda uning oxiridagi sababi xafif (lun) to'laligicha olib tashlanmaydi. Undagi sokin **"nun"** harfi olib tashlanib, harakatli **"lom"** harfi sokinga aylantiriladi. Natijada, fa'uvl qoladi. Bu usul (zihof)ning hosilasi (furu'i) **"maqsur"** deyiladi.

Demak **"zihof"** deganda o'zgarish usuli (**"hazf"**, **"qasr"**) **"furu'"**deganda esa o'zgarish natijasi, hosilasi (**"mahzuf"**, **"maqsur"**) tushuniladi.

Alisher Navoiy **"zihof"**ni quyidagicha ta'riflaydi: **"Va bu besh aslning har biriga necha far'durkim tag'ayurlar sababidinki, an'aruziylar "zihof" derlar, hosil bo'lur"** (Va bu besh aslning har birida

qo'shlar sababidan yangi shakllar hosil bo'ladiki, aruziyalar uni zihof (zihoftalar) [2. 48].

Habur esa yanada aniqroq qilib: "Bilgilki har tag'ayyurkim o'ziga birer ani "zihof" derlar. Ul rukni mug'ayyarni muzohafu derlar. Hu tag'ayyur yo mufrad bo'lur, yo murakkab. Mufrad bo'lub, bir ruknda bir nav' tag'ayyurdin ko'prak voqi' bo'lur. Murakkab uldurkim, bir nav'din ziyoda bo'lg'ay", deb shahidlikdek, "tag'ayyur"ni yanada aniqlashtirib "...rukning mufradlikni soklu qilmoqdur, yo rukndin o'ksutmak, yo rukng'a murakkab", deb sharhlaydi.

Aruziylar (aruzshunoslar) zihof va furu'larni tushuntirishda asosan bu usuldan borishadi.

Alisher Navoiy fors-tojik va turkiy she'riyatda amalda ishlatilgan beshita asl ruknning zihoflarini alohida sanab izohlaydi va ularni keltiradi. Bu nisbatan sodda usul bo'lib, aruzga endi qaratilgan talabalar uchun qulay.

Habur esa asl ruknlarning zihoflarini sanab o'tishdan oldin har bir zihofning o'zini izohlaydi va uni asl ruknlarda qo'llash bo'yicha tushuntiradi. Bu usul bir oz murakkab bo'lsa-da, nazariy jihatdan qulay. Zero zihofning o'zini tushunib olgan kishi uni mustaqil tarzda asl ruknlarda amalga oshirishi mumkin bo'ladi. Quyidagi matnga e'tibor qilib uni "zihof va furu'lar" jadvali (2-3-ilovalar) bilan solishtiring:

"Xabn" sababi xafifning sokinini hazf qilmoqliqdurkim (olib tashlamoq - S.T.), ruknning ikkinchi harfi bo'lg'ay, nechukkim, fo'ilun-fa'ilotun, fo'ilotun-fa'ilotun bo'lur, mustaf'ilun-mutaf'ilun, maf'uvlotun-maf'uvlotun bo'lurkim, mafo'ilung'a naql qilurlar, mug'ayyar (o'zgargan - S.T.) ruknni maxbun derlar" [6. 19].

Endi Alisher Navoiy uslubidan bir misol olib ko'raylik:

"Mafo'iylun zihofoti o'n birdir va furu'i dag'i o'n birdir. Ammo zihofoti

1. Qabz - mafo'iylun "yo" sining isqotidur (olib tashlamoq), to mafo'ilun qolg'ay.

2. "Kal" - mafo'iylun "nun"ining isqotidur, to mafo'iylun qolg'ay.

3. "Xarm" - mafo'iylun "mim"ining isqotidur, to fo'iylun qolg'ay va maf'uvlun aning o'rnig'a bitirlar.

4. "Xarb" - mafo'iylun "mim"i va "nun"ining isqotidur, to fo'iylun qolg'ay va maf'uvlu aning o'rnig'a bitirlar.

5. "Shatr" - mafo'iylun "mim" va "yo" sining isqotidur, to mafo'iylun qolg'ay.

6. "Hafz" - mafo'iylun oxir sababi xafifi isqotidur, to mafo'iylundin mafo'iy qolg'ay va fa'uvlun aning o'rnig'a qo'yarlar.

7. "Qasr" - oxir juzvining, ya'ni sababi xafif oxirining isqotidur, to mafo'iylun mafo'iy bo'lg'ay.

8. "Xatm" - "Hafz" va "qasr" ijtimoi (jamlanishi ya'ni birga qo'llanishi), bas mafo'iylunda mafo' qolg'ay va fa'ul aning o'rnig' qo'yarlar.

9. "Jabb" ikki sababi xafif isqotidur, bas mafo'iylundin mafo' qolg'ay va fa'ul aning o'rnig'a qo'yarlar.

10. "Zalal" - "Xatm" va "xarm" ijtimoidur, mafo'iylunda bas mafo' qolg'ay.

11. "Batar" - "jabb" va "xarm" ijtimoidur, mafo'iylunda bas mafo' qolg'ay, fa' aning o'rnig'a qo'yarlar [2. 49].

Alisher Navoiy fors-tojik va turkiy she'riyatda qo'llangan besh aslning o'zgarish usullarini shu tarzda, nisbatan soddaroq uslubda sanab o'tadi.

Zihof va furu'larning miqdori hamda tarkibi borasida manbalarda ayrim tafovutlar ham kuzatiladi. Shams Qays Roziy o'z asarida ajam aruzidagi 35 zihofni ta'riflaydi. Uning fikricha, bu zihoflarning 22 tasi arab aruziga xos bo'lib, ajam she'riyatida ham foydalaniladi, qolgan 13 tasi esa ajam aruziga xosdir. Bundan tashqari, u alohida faslda oldingi kitoblarga kiritilmagan 16 zihofni ham sharhlaydi: "Va chand laqab digar hast, ki dar fusuli mutaqaddim zikr va sharhi on naraftaast, dar mavze' bayon kunem va on shonzdah ast: xazmu muoqabatu sadru apur turfonu bariyu muroqabatu solimu sahehu tomu mavfuru voliyu mo'tadilu muarroyu majzu" "u mashturu manhuk".³⁶ (Va yana bir nechta ism (atama) borkim, oldingi faslda ularning zikri va sharhi keltirilmagan edi, bu yerda sharhini keltiraylik. Ular o'n oltidir: xazm, muoqabat, sadru ajz, turfon, bariy, muroqabat, solim, saheh, tom, mavfur, voliy, mo'tadil, muarro, majzu, mashtur va manhuk).

Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a"sida barcha zihoflarning miqdori 35 ta deyilgan: "Bilgilkim, aruz ahlining istilohi birla o'ttuz besh zihaf kelibtur, bu sakkiz arkoni solimning nafsida amal qilurlar".

³⁶ Shamsi Qaysi Roziy. Al-Mo'jam. - Dushanbe: Adib, 1991. Sah. 60.

...beshinchi zihoflarning umumiy soni haqida ma'lumot bermagan, ...da amal qilinadigan 32 nomdagi zihofni izohlagan. ...da va: "Jami' zihofot qirq to'rttur", deb yozilgan [6. 19]. ...Husayniy arab aruziga xos bo'lgan 31 ta hamda ajam aruziga ...11 ta zihoflarni izohlagan. Tadqiqotchi D.Yusupovanning fikricha, "Temuriylar davri aruzshunosligida jami 45 ta zihof tanilgan bo'lib, ulardan 23 tasi mufrad, 18 tasi murakkab va 4 tasi murakkab zihoflardir... Boburda faqat *taxli'* zihofi keltirilmagan". Bobur *taxli'* mohiyatan *kablga* yaqin bo'lganligi uchun uni *kabl* zihof sifatida sanamagan, chunki *taxli'* ham *kabl* singari *qat'* va ...malakalarining birikuvidan hosil bo'ladi" [11]. ...davridagi asarlarida "Funun ul-balog'a", "Mezon ul-avzon", "Muxtasar" hamda "Badoye' us-sanoye'" asarlarida tilga olingan zihoflar ko'rsatilgan. Bunda istilohiy mazmuniga ko'ra bir xil bo'lgan zihoflar (masalan: *xarm*, *g'azb*, *taxniq* yoki *taxli'*, *kabl*). Shuningdek, ...bir to'rtinchi xil yozish holati ham mavjud bo'lib, ular ham shu ...berildi (*kashf*, *kasf*; *xazl*, *jazl*).

Zihof va furu'larning mazmun-mohiyatiga doir ta'riflarda ham ...uchraydi. Jumladan, "Mezon ul-avzon"da **mafoiylun** aslining zihoflaridan biri:

1. "Kaf" - mafo'iylun "nun"ining isqotidur, to mafo'iylun qolg'ay

2. "Kaf" - beshinchi harf isqotidur, bas foilotun foilon bo'lg'ay.

Yana shu yerda "foilotun - **makfuf**". Foilotundan beshinchi harf ("ilo" juzvidagi "alif") olib tashlansa, ...foilotun" bo'lib, u "foilotun"ning zihoflari orasida mavjud emas. Aslida "kaff" beshinchi emas yettinchi harf isqoti. Boburning "Muxtasar"ida shunday berilgan: "Kaff, sababi xafifning yettinchi ...kafini hafz qilmog'lig'dur foilotun foilotu bo'lur" [6. 19]. Binobarin, buni "Mezon ul-avzon"ning qo'lyozmasi yoxud nashridagi nuqson sifatida e'tirof etish mumkin. Shunday holatlar "Muxtasar"ning nashrida ham kuzatiladi. Qiyoslab ko'ring:

Atoulloh Husayniyning “Badoyi’u-s-snovi” asarida	Zahiriddin Boburiyning “Muxtasar” asarida
“Xarm – bayt boshi va ba’zan ikkinchi misra boshidagi juzvning <i>vata</i> d-i majmu’idin birinchi mutaharrik harfni tushurmaktur... Agar... mafo’iylun bo’lsa-yu xarm vaqtida solim bo’lsa, axram derlar. Xarm qilg’ach, fo’iylun bo’lur va aning o’rnig’a maf’uylunni qo’yarlar” [3. 17].	“Jazm, <i>vata</i> di majmu’ning mutaharrik isqot qilmoq. Vuqu’i mafo’iylunda bo’lsa qolur) maf’uylun aning yeriga ajzam derlar” [6. 20].
“Xazm ersa arab ash’ori zihoflaridandur va ul bayt boshida ma’no e’tibori bila lozimu aytilish jihattin lozim bo’lmag’an <i>bir nimani orttirmoqtin</i> iboratdur” [3. 18].	“Xarm, baytning avvalig’a <i>ziyoda qilmog’lig’</i> dur. Bu zoyid bo’lur yo ikki harf, ko’pida topibturlar... arab ash’or azohifidur ³⁷ ajamda mustamal (amalda qo’llanmaydi)” [6. 21].

Qiyoslashdan ma’lum bo’ladiki, “Muxtasar”da “xarm” va “jazm” deb noto’g’ri yozilgan (yoxud o’qilgan), “xazm” so’zi “xarm” deb berilgan.³⁸ “Jazm” nomidagi juzv boshqa biron manbada mavjud emas.

Yana bir misol:

“Mafoiylun” asl ruknidan bitta cho’ziq hijo (sababi xafif) va ya’ni “fa” rukninig qolishi hodisasi uchta manbada uch xil izohlangan. Xususan,

“Funun ul-balog’a”da:

“Xazz va hazfkim, “mafoiylun”ni xazz qilsoq, “iylun” qolur hazf qilsoq, “iy” qolur. Aning evazi “fa”ni qo’yduk” (Axazzi malol) [4].

“Muxtasar” (“Aruz risolasi”)da:

“fa” (axrami majbub). [6. 23- va 55-betlar].

“Mezon ul-avzon”da:

“Batar” – “jabb” va “xarm” ijmoidur, mafoiylunda bas fo qolg’ fa’ aning o’rnig’a qo’yarlar [2. 49].

Demak ruboiy vaznlarining to’rtinchi ruknlarida qatnashuv mazkur hodisa:

³⁷ Azohif – zihof so’zining ko’plik shakli.

³⁸ Bu qo’lyozmani o’qishdagi xatolik bo’lishi ham mumkin. Chunki bu so’zlar nihoyat o’xshash bo’lib, nuqtalar bilangina farq qiladi.

Shams Navoiyning fikri bo'yicha batâr zihofi hamda abtar

batârning ma'lumoti bo'yicha faqat furu' ya'ni axrami majbub;
 Shams Navoiy ma'lumotiga ko'ra esa axazzi mahzuf ya'ni bu
 batâr zihof emas, faqat furu'.³⁹

Bu ikki muammolarni hal etishning ikki xil yo'li bor:

1. Batârning istilohiy mazmunini tushungan holda mustaqil tarzda
 batârni batârni ko'rish.

2. Batârni asar uchun ham asos bo'lgan manbalar – Shams Qays
 Navoiy, Baxromiddin Tusiy yoxud boshqa mualliflarning asarlariga
 asoslanib ko'rish.

Asar ruknlarining o'zgarishi natijasida qirqdan ortiq ruknlar – ritmik
 batâr yaratiladi.

RUKNLARNING AFOIL VA PARADIGMALARI

AFOIL	PARADIGMA	MISOL
	–	Men, gul, dam
	~	Dard, zor, fayz
	v –	Gulim, saning,
	v ~	G'ubor, bu dard
	– v	Senda, keldi
	– –	Sensan, kelgan
	– ~	Gulzor, garchand
	v v –	Sanamo, vuragim
	v – v	Ko'zingda, azalda
	v v ~	Ko'rubon, necha xalq
	v – –	Falakdan, jarohat
	v – ~	Tilakdosh, xabardor
	– v –	Kelmading, ko'rmasam
	– v ~	Bardavom, bo'lsa mast
	– – v	Kelgandi, bir damda
	– – –	hamdardim, sen kelsang
	– – ~	Maktabdor, bo'ldim mast

³⁹ Bu haqda ko'proq ma'lumotga ega bo'lish uchun qarang: Tohirov S. “Aruz terminologiyasidagi “batr” va “abtar” atamallari haqida // Terminologiya va terminografiya masalalari (Ilmiy anjuman materiallari). – Sam.: SamDU nashri, 2011. 116-120-betlar; Tohirov S. “Aruz terminologiyasiga oid bir jumboq xususida”. Alisher Navoiy va XXI asr (Xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari). – T.: Navoiy universiteti NMU, 2019. 197-202 – betlar. Ikkinchi maqola matni ilovada berilgan (4-ilovada).

18	FA'ILOTUN	v v - -	Tilagimdir, sitamimga
19	FO'ILOTU	- v - v	Senda ko'ngli, kelmagin
20	FA'ILOTU	v v - v	Ko'ramanmu, bilasanki
21	FO'ILOTUN	- v - -	Ko'rmagandim, shabo
22	FO'ILIYYON	- v - ~	qilmagin zor, bo'li
23	FA'ILATUN	v v v -	Qaramading, ba sabari
24	FA'ILIYYON	v v - ~	Necha gulzor, qam
25	MAFO'IYLUN	v - - -	Go'zal shahrim, karam
26	MAFO'IYLON	v - - ~	O'shal dildor, ko'rib
27	MAFO'ILUN	v - v -	Dilimdasan, go'zal
28	MAFO'ILON	v - v ~	Go'zal diyor, kelib bu
29	MAFO'IYLU	v - - v	Ko'payganda, samanda
30	MAF'UVLOTU	- - - v	Uchratganda uyg'unlikda
31	MUSTAF'ILUN	- - v -	Shabnam bilan, faryod
32	MUSTAF'ILON	- - v ~	Gulshanda bor, har dam
33	MUFTA'ILUN	- v v -	Xalq bilan, kunlarim
34	MUFTA'ILON	- v v ~	Dabdabador, kuydi bu
35	MUSTAF'ILU	- - v v	Ko'rgach seni, holim
36	MAFO'ILU	v - v v	Shahardagi, qalandari
39	MUSTAF'ILOTUN	- - v - -	Gulchambarimni, har dam ko'zimdan

Zahiriddin Bobur zihoflarni ikki guruhga ajratadi: “Bu tag’arishlar (o’zgarishlar) yo mufrad bo’lur, yo murakkab. Mufrad uldurkim, ruknda bir nav’ tag’ayyyurdin ko’prak voqi’ bo’lmag’ay. Murakkab uldurkim, bir nav’din ziyoda bo’lg’ay» [6. 19].

Adabiyotshunos D.Yusupova Boburning zihoflarga oid tasnifini “isloh” qilib, zihoflarni ulardagi o’zgarishlar asosida uchga bo’lib taqsim qilgan:

1. Mufrad zihoflar – faqat bir amal bilan o’zgarishga uchraydigan zihoflar. Bularga *qabz, qasr, hazf, salm, qat’, xabn, kaff, xarm, haxm, tash’is, tasbig’, tazyil, tayy, ash, tarfil, izmor, vaqf, kashf, ssalm, jaf, raf’, jazm (xazm), g’azb* kiradi.

2. Murakkab zihoflar – ikki amal bilan o’zgarishga uchraydigan zihoflar. Bular *sarm, xarb, shatr, hajf (jahf), shakl, kabl, xabl, aql, naql, qatf, xazl, vaqs, xatm, batr, rab’, taxli’, jad’, qasm* zihoflaridir.

3. O’ta murakkab zihoflar. Bunday zihoflar murakkab zihof bilan mufrad zihof bilan birikuvidan hosil bo’ladi. Bularga *zalat, jamm, nakhl, aqs* kiradi. O’rni bilan ushbu zihoflar o’z ichida yana ikkiga bo’lib taqsim qilindi: 1) misralar boshi va o’rtasida qo’llaniladigan zihoflar; 2) misralar oxirida qo’llaniladigan zihoflar [11. 20].

bu harflar qo'shilgan holda, ta'kidlash joizki, "murakkab" zihoflar aslida tashkil topgan hodisaning birdan ortiq ekanlagani haqida, uning "o'la" aniqllovchisini qo'shish bahsli qaror. Bunday zihoflarni amalli va uch amalli murakkab zihoflar deb ajratish

amaliy zihoflarda asl ruknlarning o'zgarishlarini kuzating:
 "Xarm" zihofida rukndagi so'nggi sababi xafifning sokin harfi o'zgarib ketadi. U ruknig yettinchi harfiga to'g'ri keladi:

fo'ilotun → mafo'iylu yoki Fo'ilotun → fo'ilotu
 V — — V — — V — — V — — V

"Xarm" zihofida "mafo'iyun" rukni boshidagi vatadi harfiga birinchi harakatli harfi ("mim"-ma) olib tashlanadi:

fo'iotun → fo'iyun → maf'uvlun⁴⁰
 — — — — —

"Xarb" zihofida yuqorida ko'rib o'tganimiz "kaff" va "xarm" zihoflarni birgalikda qo'llaymiz:

fo'iotun → mafo'iylu → fo'iyu → maf'uvlu
 V — — V — — V — — V — — V

Demak, "Xarb" zihofi murakkab yoki tarkibli sanaladi.

"Qat" — "xatm" va "xarm"ni birgalikda bajarish amali.

U "xatm"ning o'zi murakkab zihof bo'lib, "hazf" va "qasr"ni bajarishni nazarda tutadi (31- yoki 95-betga qarang):

fo'iotun → mafo'iy (hazf) → mafo' (qasr) → fo' (xarm)
 V — — V — — V ~ ~

Demak azali furu'ini hosil qilish uchun uchta amalni bajarish ya'ni "hazf", "qasr" va "xarm" amallarini birgalikda (aniqrog'i ketma-ket) bajarish lozim bo'ladi.

Shuni inobatga olib, zihoflarni "bir amalli", "ikki amalli" va "uch amalli" zihoflarga ajratish tushunarliroq va maqsadga muvofiqdir.

Bil elementlariga doir bugungi qarashlar nuqtai nazaridan bu zihoflarni ham isloh qilishga to'g'ri keladi. Chunonchi, **xabn**, **tayy**, **qabz** va **kaff** zihoflari ruknning turli o'rinlarida **bitta sokin harfni olib tashlashni** nazarda tutadi. **Vaqf** zihofi esa **harakatli harfni** (vatadi harfiga ikkinchi harfi) **sokinga aylantirishni** ifodalaydi. Demak, zihoflarning har biri bitta amal-o'zgarish sanaladi. **Qasr** va **qat'** zihoflari

⁴⁰ Yuqorida eslatilganidek, afoiylar ma'noga ega bo'lmagan, faqat vazn ko'rsatkichi sifatini bajaradigan so'zlardir. Shuning uchun ular vazn jihatdan muqobil bo'lgan va zihoflarni qulayroq bo'lgan boshqa afoiylga almashtiriladi.

esa bir vaqtning o'zida yuqoridagi ikkita o'zgarishni, ya'ni **sokinlik** (sabab va vatadda) **olib tashlab** (1), undan **oldingi harakatli** **sokinga aylantirish**(2)ni nazarda tutadi. Binobarin, ular aniq miqdoriga ko'ra murakkab sanalishi mumkin. Biroq bu o'zgarishlar har biri ayni shu o'rinda alohida zihoflarni hosil qilmaganligi va "qasr" va "qat" mumtoz aruzshunoslikda "mufrad zihoflar" qatoriga sanalgan. Agar bularni bugungi tilimiz nuqtai nazaridan "ikki mufrad zihoflar qatoriga qo'shsak, unda yuqorida tilga olganimiz "zalal" va "amall" endi "uch amalli" emas, "to'rt amalli" zihofga aylanadi.

Yuqoridagi mulohazalarni inobatga olib, ilovada berilgan "zihoflar"ni tahliliy mutolaa qiling va ularning tasnifiga doir umumiy xulosa chiqaring (2-ilova).

Adabiyot va manbalar

1. Абдурахмон Жомий. Рисолайи аруз (Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи Д.Юсупова). – Т.: Tamaddun, 2014.
2. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 1998.
3. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу - с - санойиъ (Форсчун А.Рустамов таржимаси). - Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт санъат нашриёти, 1981.
4. Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти. 2002 й., 1-6 сонлар; 2003 й., 1-6 сонлар.
5. Баҳром Сирус. Арузи тожики. - Душанбе, 1963.
6. Бобур. Мухтасар (Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов). - Т.: Фан, 1971.
7. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998.
8. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz. – Sam.: SamDU nashri, 2010. – B. 66.
9. Tohirov S. "Aruz terminologiyasidagi "batr" va "abtar" atamalariga haqida // Terminologiya va terminografiya masalalari (Ilm anjuman materiallari). –Sam.: SamDU nashri, 2011.
10. Yusupova D. Aruz alifbosi. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
11. Юсупова Д. "Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг киёсий таҳлили". Филология фанлари доктор диссерт. автореферати. –Т., 2019.
12. Шамси Қайси Розӣ. Ал-Мўъҷам. – Душанбе: Адиб, 1991.
13. Арабско-русский словарь (Составител Х.К.Баранов). - М.: 1962.

Тоҷик тили забони тоҷики. 2- жилд. - Москва: Советская Энциклопедия, 1969.

10) Afo'yi n'zi nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar
quyidagi jadvallarni namuna (1-satr)dagi kabi to'ldiring:

Afo'yi n'zi	paradigma		Misol	Javob		
1. UCHRATGANDA	A v -	1	Uchratganda	1	B	5
2. GULCHAMBARIMNI	B ~	2	Gulchambarimni			
3. GO'ZAL DALALAR,	C - - v -	3	Go'zal dalalar,			
4. SHABNAM BILAN,	D - - v - -	4	Shabnam bilan,			
5. DARD, ZOR,	E v - v v -	5	Dard, zor,			
6. GULIM.	F - - - v	6	Gulim.			

11) Quyidagi afo'illarga mos paradigma va misol yozib jadvalni

to'ldiring:

Afo'illar	Paradigma		Misol
1. MAFO'IYLUK			
2. MAFO'IYLUK			
3. MAFO'IYLUK			
4. MAFO'IYLUK			
5. MAFO'IYLUK			
6. MAFO'IYLUK			

Afso'na tili "zihof" va "furu'" tushunchalari qanday ma'nolarni ifodalaydi (atamaning lug'aviy va istilohiy ma'nolari, o'zgarish usullari va hosilasi, ularning ahamiyati o'zgarishlarning umumiy bo'lagi, misol).

12) "Mafo'iylyun" asl ruknining qanday zihof va furu'larini bilasiz? (zihof va furu' haqida umumiy tushuncha, 11, 12, mahzuf, maqsur, axrab, axram, maqbuz, makfuf, ruboiy vaznlari).

13) 3-ildovalarda keltirilgan jadvallar asosida quyidagi baytlarning ruknlar qaysi aslga tegishli ekanligini, zihof va furu'ini aniqlang:⁴¹

⁴¹ Har bir bo'lakning paradigmasini alohida yozing va jadval yordamida afo'iylini aniqlang. 3-ildovadagi jadvalning birinchi ustunidan shu afo'iylni toping. Gorizontall chiziqli satr bo'yicha uning qaysi aslga tegishli ekanligini va qaysi zihof (furu') ekanligini aniqlang. Ular bir nechta bo'lishi mumkin, hozircha hammasini yozing.

Ko'zing ne/ balo qaro/ bo'lubtur,
Kim jong'a/ qaro balo/ bo'lubtur.

- - v v - v - v - -

G'urbatda/ ul oy hajri/ meni pi(y)r/ qilibtur,
Hijron bi/la g'urbat ma/nga ta'si(y)r/ qilibtur.

- - v v - - v v - - v v - -

Ishqing/ o'tig'a/ kuygo/li keldim,
Oydek/ yuzungni/ ko'rgo/li keldim.

- - v - - - - v - - -

Havo xush er/diyu ollim/da bir qadah /mayi nob,
v - v - v v - - v - v - v v ~
Ichar edim/ vale g'amdin/ qadah-qadah/ xunob.

v - v - v v - - v - v - - ~

May birla/ yuzung tim-tim/ ahmarmu/ ekin oyo,
Yo shu'la/ aro bir - bir / ahgarmu / ekin oyo?

- - v v - - - - v v - - -

6. Ushbu matnlarni o'zaro qiyoslab fikrlaringizni yozing:

"Mezon ul-avzon"dan	"Muxtasar"dan	Izoh
"Qat" – foilotunda so'nggi sabab isqotidur va vatad sokinining ham isqoti va maqobilining iskonidur. bas foil qolg'ay va fa'lun aning o'rnig'a qo'yarlar, ammo ba'zi ani salm debdurlar" [2. 49].	"Qat", vatadi majmu'ning sokinining isqoti va ikkinchi mutaharrikining iskonidur, nechukkim mustaf'ilun – mustaf'il, mutafoilun – mutafo'il, foilun – foil bo'lur, maf'uvlun, fa'ilotun, fa'lun bularning yerlarig'a qo'yarlar". "Batr - hazf bila qatning ijmoidur (birgalikda qo'llanilishi), nechukkim fauvlun - fa bo'lur va foilotun foil bo'lur, fa'lunni foilning eriga qo'yarlar, mug'ayyar(o'zgargan)ni abtar derlar... [6. 20].	1. Qat' atamasida ikki manbalarda istilohiy ma'nolariga e'tibor berilgan. 2. Bir xil hodisa ya'ni "fauvlun" "fa'lun"ning qo'ldagi manbalarda qatnashgan nomlanganligini izohlang.

4-MAVZU: ARUZ BAHRLARI

Reja:

Bahr' atamasi, sodda va murakkab bahrlar.
Bahrlar hajjida mumtoz manbalardagi fikrlar.
Mumtoz adabiyotida bahrlar taraqqiyoti.
Bahrlar dasturlari.

1. Bahr so'zi arab tilida dengiz degan ma'noni ifodalaydi. Aruz bahrlari bahr deganda muayyan rukn yoki ruknlarning takroridan hosil bo'lgan vaqonlar turkumi tushuniladi. Bahrning ko'pligi "buhur" so'zi bilan ifodalanadi.

Sakkizta aslning yettitasi alohida bahrlarni hosil qiladi. Xususan:

- fa'uvlun rukni "mutaqorib";
- fu'ulun rukni "mutadorik";
- mafo'iyun rukni "hajaz";
- fu'ilotun rukni "ramal";
- mustaf'ulun rukni "rajaz";
- mufaf'ulun rukni "komil";
- mufaf'ulatun rukni "vofir" bahrini hosil qiladi.

Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida "maf'uvlotu" bahrini ham alohida bahrni, ya'ni "saqil" bahrini hosil qilishi aytilgan. Ammo bu ma'lumot boshqa biron bir manba bilan tasdiqlanmagan.

Mazkur bahrlar "muttafiq ul-arkon" (bir xil ruknli) yoxud sodda bahrlar deyiladi. Bir baytda ishtirok etadigan ruknlar miqdoriga ko'ra bahrlar uch xil shaklda bo'lishi mumkin, ya'ni murabba' (to'rt), musoddas (olti) va musamman (sakkiz) shakllari. Ahmad Taroziy buni bahrlarning "martaba"si deya, adno, avsat va a'lo kabi qismlarga ajratgan. Jumladan:

Sango ul tur/rayi hindu,
Mango solmish / qaro qayg'u.
V - - - V - - -

Mafo'iyun mafo'iyun. Hajaz bahri, murabba'i solim shakli.

Navosiz / ulusning / navobax/shi bo'l,
Navoiy / yamon bo'l / sa sen yax/shi bo'l.
V - - V - - V - - V - -

Fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'ul. Mutaqorib bahri, musammani mahzof shakli.

Nazmu nasrim / kotibi tax/minshunos,
Yozsa yuz ming / bay-t etar er/di qiyos.

- V - - - V - - - V ~

Fo'ilotun fo'ilotun fo'ilun

Ramali musaddasi maqsur.

Dayru haram/da sar-basar / ul yuzdin is/tarlar xabar,
Ko'p ham nizo' / etma agar / ul der samad, / bul der

- - V - - - V - - - V - - - V

Mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun

Rajazi musammani solim.

Aruziylar bundan tashqari turli asllarning birga qo'llanishi
yangi bahrlarni hosil qilishadi. Masalan:

- fo'ilun va mafo'iylun asllarining qo'shilishidan "madid";
 - mustaf'ilun va fo'ilun asllarining qo'shilishidan "basit";
 - mustaf'ilun va maf'uvlotu asllarining qo'shilishidan "munsarili"
- hosil bo'ladi va hokazo. Bunday bahrlar o'z navbatida "muxtali
arkon" yoki murakkab bahrlar deb nomlanadi. Bahrlar muqaddas
o'zgaruvchan bo'lib, aruzning taraqqiy etishi barobarida ular ham o'zgarib
borgan. Xalil ibn Ahmad yaratgan aruz tizimida 15 ta bahr mavjud
keyinchalik uning izdoshi Abulhasan Axfash Balxiy ushbu bahrlar
qatoriga yana bir bahrni qo'shib, bahrlar sonini 16 taga yetkazgan.
Mahmud Zamaxshariyning «Al-qistos», Abu Zakariyo Xafsiyning
Tabriziyning «Al-kafi fil aruz val qavofiy» asarlarida ham shuncha bahrlar
tilga olingan. Manbalarda qayd etilishicha, fors aruzshunoslari
Bahrom Saraxsiy, Buzurgmehr Qosimiylar aruzning yangi bahrlarini
kashf etishgan. Bizgacha yetib kelgan aruzga doir ilk forsiy asar Shamsi
Qays Roziyning «Al-mo'jam fi ma'oyiri ash'oril ajam» asarida ham
aruzida mavjud bo'lgan 16 ta bahrga yana uchta bahr (g'arib, qasbiy, qasbiy
mushokil) qo'shib, bahrlar soni 19 taga yetkazilgan. Biroq olim aruz
aruziga xos bo'lgan bahrlarni tavsiflashni foydasiz bilib, ajam aruzida
mavjud bo'lgan 14 bahrnigina ta'riflaydi: "Va chun bad'in muqaddim
bar ba'ze az tasarrufoti fosidi in jamoat dar taqriri buhur va sabti davo
vuquf aftod va tafsili xabtu g'alati eshon dar in fann ma'lum shud, save
on ast, ki dar in abvob ba taqsimoti botilu tatviloti behosili eshon iltifo
nanamoem va jumla buhuri ash'ori ajamro dar chahor doira nihem"
(Bahrlar va doiralar zikrida oldingilarning ba'zi bir me'yor jihatida)

⁴²Шамси Қайси Розӣ. "Ал-мӯъъям".- Душанбе: Адиб, 1991. Саҳ. 80.

ularning xato va qavflari ma'lum bo'lganligi uchun, bu bobda ularning sonidan uzoq tasniflariga iltifot qilmaslik va barcha ajam bahrlarini to'rt doiraga joylashtirishni savob (foydali) deb

harbiy 4 doiraga 14 ta bahrni joylashtiradi. Jumladan:

Mustalifa doirasi – munsarih, muzore', muqtazab, mujtass;

Ma'talifa doirasi – hazaj, rajaz va ramal;

Muttalifa doirasi – mutaqorib va mutadorik;

Muntazi'n doirasi – sare', g'arib, qarib, xafif, mushokil.

Abdullin Tusiyning «Me'yor ul-ash'or» asarida 18 bahr qat'iy olinmushokil va g'arib bahrlarini tushirib qoldirib, avvalgi bahrlar bilan olinmagan maqlubi tavil bahrini kiritgan.

Bahrlar borasida, ayniqsa, Shayx Ahmad Taroziyning fikrlari qat'iy olinmushokil. Olim bahrlar sonini 40 ta deb ko'rsatadi (bu haqda yana to'xtalamiz). Abdurahmon Jomiy, Atoulloh Husayniy, Sayyid va Sayfiy Buxoriylar bahrlar miqdorini umumiy tarzda hisoblaydilar. Biroq Abdurahmon Jomiy «Risoi aruz» 14 bahrni misollar bilan izohlagan, ya'ni, arab aruziga xos tavil, komil, basit, madid, vofir bahrlariga keng to'xtalmagan. «Aruz risolasi»da esa ushbu bahrlarga qo'shimcha ravishda 14 bahr (ariz va amiq) tadqiq qilingan. Sayfiy Buxoriyning «Sayfiy» risolasida bahrlarning lug'aviy ma'nolari ham kiritilgan.

Bahrlar va ularning tarkibi quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan:

Harf nomi	Rukn va afoillari	Paradigmasi
Munsarih	Fa'uvlun fa'uvlun	v - - / v - -
Mutadorik	Fo'ilun fo'ilun	- v - / - v -
Mutadorik	Mafo'iylun mafo'iylun	v - - - / v - - -
Mutadorik	Fo'ilotun fo'ilotun	- v - - / - v - -
Mutadorik	Mustaf'ilun mustaf'ilun	- - v - / - - v -
Mutadorik	Mutafo'ilun mutafo'ilun	v v v - / v v v -
Mutadorik	Mafo'ilatun mafo'ilatun	v - v v - / v - v v -
Mutadorik	Fa'uvlun mafo'iylun	v - - / v - - -
Mutadorik	Fo'ilotun fo'ilun	- v - - / - v -
Mutadorik	Mafo'iylun fa'uvlun	v - - - / v - -
Mutadorik	Mustaf'ilun fo'ilun	- - v - / - v -
Mutadorik	Fo'ilun fo'ilotun	- v - / - v - -
Mutadorik	Mustaf'ilun maf'uvlotu	- - v - / - - - v

14	Muzore`	Mafo`iylun fo`ilotun	v - - - /
15	Muqtazab	Maf`uvlotu mustaf`ilun	- - - v /
16	Mujtass	Mustaf`ilun fo`ilotun	- - v -
17	Sari`	Mustaf`ilun mustaf`ilun maf`uvlotu	- v - - / - v
18	Jadid	Fo`ilotun fo`ilotun mustaf`ilun	- v - - / - v
19	Qarib	Mafo`iylun mafo`iylun fo`ilotun	v - - - / v -
20	Xafif	Fo`ilotun mustaf`ilun fo`ilotun	- v - - / - - v
21	Mushokil	Fo`ilotun mafo`iylun mafo`iylun	- v - - / v -

Jadvalda keltirilgan bahrlar orasida sari`, jadid, qarib, mushokil bahrlari boshqalaridan farqli o'laroq faqat musaddas oltilik (bir misrada uchta, baytda oltita rukn) shaklda qo'llanilgan. Aniqrog'i, faqat musaddas shaklda ular aynan shu bahr hisobda. Garchand, Bobur ularning murabba' shakllariga ham misol keltirgan bo'lsa-da, murabba' shaklda ular boshqa bahrga o'tib ketadi. Keyingi mashg'ulotlarda misollar tahlili orqali ko'rib o'tamiz.

II. Shayx Ahmad Taroziy bahrlarni ikki katta guruhga ajratib tasnif qiladi:

1. Muttafiq ul-arkon – bir xil asliy rukndan tashkil topgan bahr. Masalan, fauvlun rukni baytda sakkiz marta takrorlanib kelsa, bu bahr muttafiqlul-arkonga kiruvchi mutaforib bahridir.

Taroziy mazkur guruhga mutaforib, mutadorik, hazaj, ramal, qofir, komil, **saqil** kabi bahrlarni kiritgan. Ular orasida so'nggi bahr sifatida keltirilgan saqil bahri temuriylar davrigacha va undan keyin risolalarda uchramaydi, shu ma'noda, ushbu bahrni Shayx Ahmad Taroziyning kashfiyoti deb aytish mumkin.

2. Muxtalif ul-arkon – ya'ni ikki xil asldan hosil bo'lgan bahr. Shayx Ahmad Taroziyda bunday bahrlar soni 32 ta. Ularning birini ko'rib bo'lishida bir shartni qo'yadi: «Va shart uldurkim, ul ikki juzvni tarkib etib, bahr qilurlar, bir-birining **uxti** kerak. Agar begona bo'lsa, u toifaning qoshinda ravo ermas» [4]. Shu o'rinda risolada kichik tuzatish chalkashlik seziladi. Bu holat D.Yusupovanning yuqorida tilga olingan tadqiqotida ham kuzatiladi. E'tibor bering: «Olimning (Ahmad Taroziy – T.S.) fikricha, sakkiz rukndan yettitasi o'zaro qarindoshlik jihatida birlashadi. Xususan, fauvlun va foilun (har ikkisi bir sababi xafif bo'lib vatadi majmu'dan tarkib topgan), foilotun, mafoiylun va mustaf`ilun (ikkisi sababi xafif va bir vatadi majmu'dan tarkib topgan) hamda mafoilatun va mutafoilun (vatadi majmu' va fosilai sug'ro kabi juzvlardan tarkib topgan) o'zaro uxti (opa-singil) ruknlardir. Faqatgina

bu fikrni birinchi rukn hisoblanmish *maf'uvlotu* yolg'iz bo'lib, *maf'uvlotu* yo'q, chunki faqat ugina ikki sababi xafif bilan vatadi *maf'uvlotu* [7, 19]. Agar bu fikrni yuqorida Taroziyning o'zidan *maf'uvlotu* fikri bilan birlashtirsak, unda ko'plab bahrlar "bu toifaning *maf'uvlotu* yo'q" bo'lib chiqadi. Jumladan, *tavil* (fa'uvlun *maf'uvlotu*), *modid* (fo'ilotun foilun), *munsarih* (mustaf'ilun *maf'uvlotu*) va *hokazo*.

maf'uvlotu ("opa-singil", "qarindosh") deganda Ahmad Taroziy *maf'uvlotu* nazar bir xil juzvlardan tashkil topgan asllarni nazarda tutib, *himobarin*, *fa'uvlun*, *fo'ilun*, *mafo'iylun*, *fo'ilotun* va *mustaf'ilun* ruknlari sababi xafif va vatadi majmu'dan tashkil topganligi *maf'uvlotu* bo'la oladi hamda o'zaro bahr hosil qila oladi. *maf'uvlotu*, fo'ilotun va mustaf'ilun ruknlari:

fo'ilotun = *fo'ilo* + *tun* (vatadi maf'ruq + sababi xafif + sababi xafif);

mustaf'ilun = *maf'i* + *lun* (sababi xafif + vatadi maf'ruq + sababi xafif)

maf'uvlotu = *maf'uv* + *lotu* (sababi xafif + sababi xafif + vatadi maf'ruq) bilan *maf'uvlotu* hosil qilishi mumkin. Buni Bobur ham qayd etgan edi. *maf'uvlotu* ham o'zaro bahr hosil qila oladi.

Ahmad Taroziyning fikricha, ikki solim ruknni birgalikda qo'llash *maf'uvlotu* bahr hosil qilinsa, undan keyingi bahr ruknlarning aks *maf'uvlotu* bo'lishi lozim. Jumladan, birinchi bahr *fa'uvlun foilun fa'uvlun* dan ruknlaridan hosil bo'lib *muqorin* deb nomlanadi. Ikkinchi bahr *fo'ilotun fa'uvlun foilun fa'uvlun* bo'lib *muvofiq* deb ataladi. Shu *maf'uvlotu* Ahmad Taroziy o'n olti xil bahrni yana teskari tartibda qo'llab *maf'uvlotu* o'z ikki xil bahr hosil qilgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, Ahmad Taroziy bahrlarni sanashda bevosita badiiy ijoddan kelib chiqib emas, *maf'uvlotu* potensial imkoniyatlaridan kelib chiqib fikr yuritgan. Amalda *maf'uvlotu* bahrlar esa uning fikricha o'n oltita (Yuqoridagi jadvalda *maf'uvlotu* bahrlar, amiq, jadid, qarib va mushokil bahrlaridan tashqari).

Boburning «Aruz risolasi»da ham Taroziy singari bahrlar ikki *maf'uvlotu* ajratiladi, bahrlardagi vaznlarning ishlatilish darajasi va ohang imkoniyatlariga ham e'tibor qaratilib, ular musta'mal (amalda *maf'uvlotu* ilanadigan) va nomusta'mal (amalda qo'llanmaydigan), *matbu'* (tab'ga yaqin) va *nomatbu'* (tab'ga xilof) kabi guruhlariga ajratilib, tavsif *maf'uvlotu* beriladi.

Temuriylar davridagi qolgan risolalarda muttafiq ul-arkon bahrlari *maf'uvlotu* o'rinlarda, ya'ni doiralar tarkibi asosida berilgan. Mualliflarning bahrlar ta'rif va tavsifiga yondashuvlari ham bir-biridan farqlanadi.

Atoulloh Husayniyda aruzga doir fikrlar asar muqaddimasi
olgani uchun bahrlar tavsifi ancha qisqa. Abdurahmon Jonnori
izohlashda dastlab solim ruknli vaznlarga, so'ngra zihniy
vaznlarga to'xtaladi. Alisher Navoiy har bir bahrning avval ham
so'ngra musaddas va murabba' ruknli vaznlarini keltiradi, y
mutatavval (uzaytirilgan) vaznlarga ham to'xtaladi.

III. O'zbek mumtoz she'riyatidagi bahrlar taraqqiyoti
tashlaydigan bo'lsak XIII asrga qadar faqat mutaqarib
qo'llanganligini ko'ramiz ("Qutadg'u bilig", "Hibat ul-bayt"
Turkiy tildagi ilk she'riyat namunalarini o'zida mujassam
Rabg'uziyning "Qisas ul-anbiyo" asarida bir necha bahr qo'llan
Jumladan, musallas (uchlik) shaklidagi Nosiruddin To'qbu'l-kasbi
rajazi murabba'i solim bahrida, bahor madhiga bag'ishlangan ilk
ramali musammani mahzuf vaznida, ushbu parcha mutaqarib
musammani mahzuf vaznida bitilgan:

Sabo esnayuru yig'och yeng solar,
Bulut yig'layuru chechaklar kular,
Bu mundog' chechaklikda ko'nglum bu kun,
Saning birla bo'lub ovunmoq tilar.⁴³

Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asaridagi 332 ta
parcha aruzning 7 bahriga tegishli bo'lgan 24 vaznda bitilgan
hazaj, ramal, muzore', mujtass, mutaqorib, xafif. Shundan, 26-l
hazaj, 87 tasi ramal bahrida.

Tapulmas husn mulkinda sanga teng bir qamar manzar,
Na manzar manzari shohid, na shohid shohidi dilbar.
Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun.

Hazaji musammani solim

Qamar yuzingdin / bo'lur munavvar,
Shakar so'zingdin / bo'lur mukarrar.
Gunash yuzingni / ko'rub xaloyiq,
Bo'lubdururlar / sanga musaxxar.
Fa'uvlu fa'lun fa'uvlu fa'lun

Mutaqoribi murabba'i maqbuzi aslam

⁴³ Rabg'uziy Nosiruddin. Qisasi Rabg'uziy.1-kitob. — Toshkent: Yozuvchi, 1990. 121
bet.

Ushbu g'azal rithu ko'ngullar mufarrihi,

Ushbu qasidalar bilan devonu daftari,

V - V - V/V - - V/ - V -

Maf'ailun maf'ailun mafoiylu foilun

Hafiz musammani axrabi makfufi mahzuf

Ushbu qasidalar nazmi/ husnang si/foti birla,

Ushbu qasidalar xush dils/ton ko'rinar.

V - V - - / - - V/ - V - -

Maf'ailun maf'ailun maf'ailu foilun

Hafiz musammani axrabu solim

Ushbu devonda aruzning 5 xil bahriga (hazaj, ramal, rajaz, mujtass, muzore') tegishli 11 xil vazndagi g'azal va qasidalar mavjud.

Ushbu devon bu no'ishvudur ey jodu ko'zluk sho'xshang,

Ushbu devon to'vusda yo'q albatta bu raftoru rang.

Mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun

Rajaz musammani solim

Agar qashimda o'shal guluzor bo'lsa edi,

Ushbu yo'q erdi, g'amim gar hazor bo'lsa edi.

V - V - /V V - - / V - V - /V V -

Maf'ailun maf'ailun mafoiylun failun

Mujtass musammani maxbuni mahzuf

Ushbu devon faqat g'azallardan iborat bo'lsa-da, ularda aruzning 5 xil bahriga (hazaj, ramal, rajaz, mujtass, muzore', xafif) 18 xil vazn mavjud.

Kim ko'rdi yuzing hasratida men kibi bemor,

Ushbu g'amzada, bag'ri to'la qon, ko'ngli giriftor.

Maf'ailu maf'ailu maf'ailu maf'ailu maf'ailu.

Hafiz musammani axrabi makfufi maqsur.

Ey begim, ushbu yuz degul,/ shams bila qamarmudur?

Ey begim, ushbu so'z degul,/ shahd bila shakarmudur?

Muf'ailun maf'ailun, maf'ailun maf'ailun.

Rajazi musammani matviyi maxbun

Hafiz Xorazmiyning devonida to'qquz bahriga (hazaj, ramal, rajaz, mujtass, muzore', munsarih, sari', xafif, mutaqorib) tegishli bo'lgan 11 xil vazndagi she'riyat namunalari mavjud. Alisher Navoiy esa "Xazoyin al-ma'niy" kulliyotida 13 xil bahrda (hazaj, ramal, rajaz, mujtass,

muzore', munsarih, sari', xafif, mutaqorib, mutadirik, tavi, koni, vaznlardan foydalangan.

IV. Aruz metodikasida bahrlarni yaxshi tushunish va eslab olinish uchun **doiralardan** foydalanishadi. Bunda bir-biriga yaqin bahrlar bir doiraga joylashtirilib, ularning afo'iyli hamda tariqasida bir misra kiritiladi. Misrani qaysi so'zdan boshlab olinadi, ko'ra turli bahrlar hosil bo'ladi. Masalan:

1. Doirai muttafiqa - mutaqorib (fa'uvlun), mutadorik (fo'ilun)
Yuzi rashki xurshidi anvar bo'lubtur

v - - v - - v - - v - -

Yuqoridagi misra ayni shu holatda o'qilganda mutaqorib musammani solim (fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun) vazni hosil chiqadi. Biroq misra:

Rashki xurshidi anvar bo'lubtur yuzi

- v - - v - - v - - v - -

- tarzida o'qilganda, mutadoriki musammani solim (fo'ilun fo'ilun fo'ilun fo'ilun) vazni kelib chiqadi.

Quyidagi misralarni navbat bilan belgi (!) qo'yilgan joylarda o'qib, vazniga e'tibor bering.

2. Doirai mujtaliba - hazaj (mafo'iylun), rajaz (mustaf'ilun), ramal (foilotun).

Jafo! ko'p! qilma, ey mahvash, jafo sendin erur noxush.

v - - - v - - - v - - - v - - -

3. Doirai muxtalifa: tavi (fa'uvlun mafo'iylun), madid (fo'ilun fo'ilun), ariz (mafo'iylun fa'uvlun), basit (mustaf'ilun fo'ilun), (fo'ilun fo'ilotun)

Mango! qil! guzar! sen! kel, mango qil nazar sen kel

v - - v - - - v - - v - - -

Yuqoridagi doiralarda bahrlarning solim shakllari ifodalangan. Qolgan bahrlarning solim (to'liq) shakllarini doirada ifodalash imkoniyati bo'lmaganligi uchun aruziylar ularning o'zgargan shakllari, zihoflarini joylashtirishgan. Xususan:

5. Doirai muntazi'a: sari' (mustaf'ilun mustaf'ilun maf'uvlun jadid (fo'ilotun fo'ilotun mustaf'ilun), qarib (mafo'iylun mafo'iylun fo'ilotun), xafif (fo'ilotun mustaf'ilun fo'ilotun), mushokil (fo'ilotun mafo'iylun mafo'iylun).

Sen! de! hikoyat! sanamo bizga! bot

- v v - - v v - - v - - v

- sari'i matviy (mufta'ilun mufta'ilun fo'ilotu);

jabli maʼbun (fa'ilotun fa'ilotun mafo'ilun);
maʼbun maʼfuf (mafo'iylu mafo'iylu fo'ilotu);
jabli maʼbun (fa'ilotun mafo'ilun fa'ilotun);
maʼbun maʼfuf (fo'ilotu mafo'iylu mafo'iylu).

Uning shiʼmalarining o'zini "Mezon ul-avzon" va "Muxtasar" nomlari bilan bo'lish mumkin.

Shundaylari Xalil ibn Ahmad beshta doira kashf etgani haqida maʼlum beriladi. Uning aruzga bag'ishlangan asari bizgacha yetib bormagan uchun biz bu doiralar bilan uning izdoshlari asarlari orqali tanishamiz. Xalil ibn Ahmad yaratgan birinchi doira «Doirai muxtalifa» deb nomlanib, **tavil, madid va basit** bahrlarini o'z ichiga olgan. Muallifning Tusiylar bu doiraga tavil, madid va basit bahrlariga alohida-aloqida yana ikki bahr: **maqlubi tavil** (tavilning teskarisi, **maqlubi madid** (madidning aksi, **amiq**) bahrlarini ham keltirgan.

Xalil ibn Ahmad keltirgan ikkinchi doira «Doirai mu'talifa» deb nomlanib, **yafta va komil** bahrlarini o'z ichiga olgan.

Xalil ibn Ahmadga nisbat beriladigan uchinchi doira «Doirai mushtabih» (talib etuvchi, o'ziga tortuvchi) deb atalib, **hazaj, ramal** va **qasr** bahrlaridan tuzilgan. To'rtinchi doira «Doirai mushtabih» deb nomlanib, olti bahrni o'z ichiga olgan. Bular: **sari', munsarih, muzori', muqtazab, mujtass** bahrlaridir. Shams Qays Roziyning asarida bunday nom bilan doira uchramaydi. Muallif Xalil ibn Ahmad doirasidagi **munsarih, muzori', muqtazab va mujtass** bahrlarini alohida doiraga kiritib, uni «Doirai muxtalifa» deb ataydi. Ushbu ruknlar solim emas, balki zihofga kirgan ruknlardir. Shams Qays Roziyning fikricha, **sari'** va **xafif** bahrlari musamman ruknli holatda uchramaydi va xush ohangga ega emas, shu sababli u ushbu bahrlarni musamman holatda **g'arib, qarib va mushokil** bahrlari bilan birga «Doirai muntazi'a» deb nomlaydi.

Xalil ibn Ahmad yaratgan beshinchi doira «Doirai munfarida» (yolg'iz, yagona) deb atalib, faqat bir, ya'ni **mutaqorib** bahridan iborat bo'lgan.

Xalil ibn Ahmaddan so'ng uning izdoshi Abulhasan Axfash Balxiy ushbu doiraga yana bir bahr, ya'ni **mutadorikni** qo'shib, uni «Doirai muxtalifa» (birlashgan, hamroh bo'lgan) deb ataydi. Bu doiradagi misra musamman, ya'ni sakkiz ruknli vazndan iborat. Shams Qays Roziy asarida ham ushbu doira nomi va uning tarkibi xuddi shunday.

Shayx Ahmad Taroziy doiralarni ilmiy nuqtai nazaridan bahar emas deb hisoblaydi: «Mutaqaddimlar o'n olti bahr kim, bahr qilib turlar, taqi so'ngra ziyoda qilg'ay. Bahrlardin ba'zining ba'zining sho'basin bir doirada qo'yubtur. Biz doirani tark qilib sababtinkim, alardin hech foyda yo'qtur. Va yana ulkim, ba'zi ba'zi asl bahr rost kelur, ba'zi sho'baning hech lutfi yo'qtur».

«Mezon ul-avzon»da 7 ta doira izohlangan bo'lib, ulardan Navoiygacha yaratilgan fors-tojik risolalari, jumladan, «Al-mo'ariz» «Risolai aruz»da mavjud edi. Alisher Navoiy aruz doiralari qat'iy aniq qilgan "Doirai mujtamia"ni qo'shgan haqida kamtar shunday yozadi:

"Bu mazkur bo'lgan to'qquz asl bahrning (sare', jadid, munsareh, xafif, muzore', muqtazab, mujtass, mushokil) solim doirai azimada jam' qilib, har birining o'rnig'a alohida misol keltirib to'qqiztasini yana bir misra'din ham istixroj qilib, ul "Doirai mujtass" deyildi va bu doira rasmi zamon zurafosidin ba'zining xayoliy bo'lgan erdi, ammo faqir anga tartib berdim va ul bu nav' surat biladur" [57]. Biroq Boburning fikricha, bu doirani Xo'ja Nosir "Me'yori ash'or"da "Doirai mushtabihai solim" nomi bilan keltirgan.

Boburning "Muxtasar" asarida jami to'qqizta doira keltirilgan. Bular:

1. Doirai muttafiqa – mutaforib, mutadorik.
2. Doirai mujtaliba - hazaj, rajaz, ramal.
3. Doirai mujtalibai muzohafa - hazaj, rajaz, ramal (zihoflari)
4. Doirai mujtalibai muxtari'a - hazaj, rajaz, ramal (zihoflari)
5. Doirai mu'talifa – vofir, komil.
6. Doirai muxtalifa - tavi, madid, ariz, basit, amiq.
7. Doirai mushtabiha - munsarih, muzori', muqtazab, mujtass.
8. Doirai muntazi'a - qarib, xafif, mushokil, sari', jadid.
9. Doirai mushtabihai solim - qarib, munsarih, xafif, muzore', muqtazab, mujtass, mushokil, sari', jadid.

Shulardan "Doirai mujtalibai muxtari'a" Boburning o'z tomonidan yaratilgan.

Adabiyot va manbalar

1. Абдурахмон Жомий. Рисолайи аруз (Таржимон, шарх ва изоҳлар муаллифи Д.Юсупова). – Т.: Tamaddun, 2014.
2. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 1998.

Хасанов, Хасановий, Бадойиъу - с - санойиъ (Форсчадан
Фурсчадан таржимаси). - Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва
санъат институти, 1981.

Ғафуров, Ғафурий, Ғуфун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти,
2003 й., 1-6 сонлар.

Ғафуров, Мумтозар (Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов). - Т.: Фан,

2006. Шарқ мумтоз поэтикаси. Манба ва талкинлар. –
Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

Ғафуров, Д. "Темурийлар давридаги арузга доир
муаммоларнинг кинесий таҳлили". Филология фанлари доктори
диссерт. автореферати. –Т., 2019.

Ғафуров, Ғафур Рози. Ал-Муъҷам.- Душанбе: Адиб, 1991.

Ғафуров, Мумтозар А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006.

U'zbi o'zi nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

1. Bahr tushunchasini izohlang (lug'aviy va istilohdagi ma'nolari, bahrlarning takrorlanishi, sodda va murakkab bahrlar, an'anaviy bahrlar).
2. Ahmad Taroziyning "qarindosh" ruknlar haqidagi fikrlarini izohlang ("uxti", bir xil juzvlar, bahrlarning hosil bo'lishi, rangli fikrlar).
3. Bahrlarni tasnif qilishga doir qanday qarashlar bor (muttafiq atarkon, muxtalif ul-arkon; a'lo, avsat, adno; musta'mal, nomusta'mal; matbu', nomatbu'; arab, ajam).
4. Aruz doiralari deganda nimani tushunasiz, uning ahamiyati (to'labash bahrlar, aruz metodikasi, misrani turlicha o'qish, yangi doiralar kashf etish).
5. "Muxtasar"da keltirilgan to'qqizta doira haqida glossariy tuzing (lug'aviy ma'nosi, asoschisi, tarkibi).
6. Fa'uvlun, Mafo'iylun, Fo'ilotun, Mustaf'ilun va Maf'uvlotu asl ruknlari qaysi bahrlarni hosil qilishda ishtirok etishiga oid alohida jadval tuzing.
7. A.Hojiahmedovning "Navoiy aruzi nafosati" kitobidan I-bob. "Navoiygacha bo'lgan o'zbek aruzi" mavzusini o'qib konspektlashtiring.

**8. Quyidagi baytlarning paradigma va afo'iyllarini topib q
bahrga tegishli ekanligini aniqlang:**

Ashraquat min aksi shamsil ka'si anvorul hudo,
Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqdi sado.

Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun "nas" keltirur "nun" eltibon "sod" ustina.

Qaro zulfing firoqinda parishon ro'zgorim bor,
Yuzingning ishtiyoqinda ne sabru ne qarorim bor.

Istadim sayr aylamoqni men g'azal bo'stonida,
Kulmangiz ne bor senga deb Mir Alisher yonida.

Mengiz yo' ravzayi rizvonmudur bu,
Og'iz yo g'unchayi xandonmudur bu.

Gul uzra xatti mushkin birla to qilding raqam paydo,
Manga jon safhasida bo'ldi yuz xatti alam paydo.

Zaxmim achitqan dam-badam ul la'li shakkarxand erur,
Vah-vah tuz ermish ulki men qildim gumonkim qand erur

5-MAVZU:

TAQTE' - ARUZ AMALIYOTINING ASOSI SIFATIDA

REJA:

1. Taqte' haqida umumiy tushuncha.
2. Taqte' haqida mumtoz manbalardagi ma'lumotlar.
3. Taqte' bosqichlari:
 - baytdagi hijolarning miqdori va sifatini aniqlash;
 - baytni ritmik bo'laklar -- ruknlarga ajratish;
 - hosil bo'lgan ruknlarning zihof va furu'larini aniqlash.
4. Baytdagi ruknlarning maxsus nomlari.
5. Aruzda "mutalavvun", "zubahrain", "zulbuhur" tushunchalari.

1. "Taqte'" so'zi arabcha "qata'a" fe'lidan yasalgan bo'lib, parchalamoq degan ma'noni ifodalaydi. "Bo'lak, parcha" ma'nosini bildiruvchi "qit'a" atamasi ham shu o'zakdan hosil bo'lgan.

Aruz istilohlaridan biri sifatida taqte' baytni ritmik bo'laklar -- ruknlarga ajratish qonuniyatlarini ifodalovchi yoxud o'rgatuvchi fasldir. Taqte' asl va zamonaviy aruzshunoslarning fikriga ko'ra taqte' aruz amaliyotining asosini tashkil etadi. Zero usiz barcha nazariy bilimlar hech qanday kuchga ega bo'lmay qoladi. Bu haqda Ahmad Taroziy yozadi: "Uning muhimi taqte' bilmaktur va taqte' uldurkim, har bir juzv-juzv va taqsim etib, har juzvni o'z muqobalasindagi i rukn birla harakat va sakanotin muvofiq qilmoqtur va munda i iborat talqadur, kitobatg'a ermas" [4].

Ahmad Taroziyning fikriga ko'ra taqte' baytni juzvlarga taqsimlab, undan hosil bo'luvchi ruknlarni aniqlash, buning uchun esa harakatli va o'qilgan harflar (boshqacha qilib aytganda cho'ziq va qisqa hijolar)ni asos (kitobat) asosida emas, talaffuzga (lafz) tayangan holda to'g'ri talaffuzlashdir.

Qiyoslash uchun Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Boburning ham taqte' haqidagi fikrlarini keltiramiz:

"She'r taqte'i iborat aningdurkim, bayt alfozini bir-biridin o'qig'aylar, ul nav'kim, baytning har miqdori teng tushgay ul baytning afo'iyolidin birigakim, ul bayt ul bahrda voqe'dur... malfuz o'libor qilg'ay, yo'qki maktub va har harfki lafzda kelgay, agarchi kitobatda bo'lmag'ay, taqte'da hisobg'a kirgay". [2. 59].

"Taqte' aruziylarning istilohida baytning tahlilidir ul nav'kim, baytdag bir miqdor vaznda barobar bo'lg'ay, ul bahrning afo'iyli afo'iyli bilakim bu bayt ul bahrdadur. Hurufikim malfuzdur, agarchi

maktub emas, taqti'da mo'tabardur va hurufikim malfuz
agarchi maktubdur, mo'tabar emas" [5. 31].

E'tibor bergan bo'lsangiz, ikkala muallifning fikri aynan bu
Yuqoridagi Taroziyning ta'rifidan farqli o'laroq, bunda bahr
afo'iylariga yoxud zihof va furu'lariga e'tibor qaratiladi. Ya'ni ba
baytni har qanday ritmik bo'laklarga emas, muayyan bir bah
afo'iylariga mos tushadigan holda ruknlarga ajratish nazarda tut
Demak, bayt yoki she'riy asar vaznini aniqlash uchun quyidagi t
bajarish lozim bo'ladi:

1. Misralardagi hijolar miqdori va har bir hijoning qisqa, cho
yoki o'ta cho'ziq ekanligini aniqlash.
2. Hijolarni birlashtirish natijasida muayyan bir bahr ta
kiruvchi ruknlarni yuzaga keltirish.
3. Ruknlar asosida bahr va vaznning nomini aniqlash.

Bu amallarning har biri murakkab jarayon bo'lib, o'zigagina
bo'lgan muammoli vaziyatlarga ega.

Aruzga oid manbalarda taqte'ning qonun qoidolari arab yozu
uning o'ziga xos grafik xususiyatlari asosida tushuntiriladi. Bu
yozuvda ifodalanib talaffuz etilmaydigan harflar va aksincha yozu
ifodalanmasa-da, talaffuz etiladigan tovushlarga e'tibor qaratib
Barcha aruziylarning yakdil fikriga ko'ra taqte'da yozuv yoki kin
("maktub") emas talaffuzga ("malfuz") e'tibor beriladi.

Bundan oldingi mavzularda o'rganilgan nazariy qoidalar: yoz
ya'ni harakatli va sokin harflar bilan bog'liq bo'lgan juzv va asllar, z
va furu'lar bekor bo'ladi degan xulosaga bormaslik lozim, alba
Yuqoridagi nazariy qoidalar arab tili va yozuvi xususiyatlari asos
ishlab chiqilgan. Ular fors-tojik va turkiy tillarga o'tganda ayn
o'zgarishlarga uchraydi. Demak, turkiy tildagi jumla vaznini yuqorid
nazariy mezonlar asosida aniqlash uchun dastlab ularni so'z an
grafikasi qoidolari asosida yozish lozim bo'ladi.

Masalan: "Gulim sen" jumlasini eski o'zbek yozuvida ba'zan y
ba'zan olti harf bilan ifodalanadi: g, u, l, m, s, n گولم سين

Biroq uning juzvlar tarkibini aniqlash uchun arab tili grafika
qoidalariga (garchand bular forsiy va turkiy so'zlar bo'lib, arab til
umuman mavjud bo'lmasa ham) yozilishi lozim. Ya'ni bunda "u", "i"
"e" qisqa unilari harakat hisoblanib yozuvda ifodalanmasligi kerak:

g, l, m, s, n گلم سن

Shu tariqa "gu-lim sen" jumlasini uchta bo'g'indan iborat bo'lib
birinchi bo'g'in bitta harfdan, ikkinchi va uchinchi bo'g'inlar esa ikku

ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu esa birinchi bo'g'inning ekanligini bildiradi. Demak qisqa, o'ta cho'ziq bo'g'inlar arab yozuvidagi harflar miqdoriga bog'lanadi. Ya'ni:

o'ta harf ishtirok etgan bo'g'inlar qisqa:

o'ta harf ishtirok etgan bo'g'inlar cho'ziq:

o'ta harf ishtirok etgan bo'g'inlar esa o'ta cho'ziq bo'g'in

qisqa, takror bo'lsa-da aytish lozimki, bunda so'z va jumlaning qonunlariga ko'ra yozilish shakli nazarda tutiladi.

Baytdagi hijolarning miqdori va sifatini aniqlash.

Baytdagi mavzuda ko'rib o'tganimizdek, aruzda yozilgan baytdagi hijolari tarkibini aniqlashda o'zgarmas va o'zgaruvchan harflar mavjud. Vaznni belgilashda o'quvchini qiyin ahvolda qoldirgan narsa o'zgaruvchan qonuniyatlardir. Jumladan:

o'ta cho'ziq bo'g'inlar o'rni bilan qisqa yoki cho'ziq hijo sifatida talaffuz etilishi mumkin;

yopiq bo'g'in tarkibidagi unli tovush cho'ziq talaffuz etilib⁴⁴, o'ta cho'ziq bo'g'inga, ya'ni bir cho'ziq va bir qisqa hijoga aylanishi mumkin;

Yopiq bo'g'in oxiridagi undosh tovush' vazn talabiga ko'ra keyingi bo'g'inga ko'chib⁴⁵, qisqa hijoga aylanishi mumkin.

Bu holatlarga oid ayrim misollarni ko'rib o'tamiz:

Nedur ahvoling ey zoru g'aribim,

Visolim davlatidin benasibim.

"Farhod va Shirin" dostonidan olingan bu bayt aruzning hazaji shaklida mahzuf vaznida yozilganligini, binobarin, **mafo'iylun fa'uvlun** ruknlariga mos kelishini bilasiz.

Ne/dur/ ah/vo // li/ng ey zo/ru // g'a/ri/bim,

V - - - V - - - V - -

Vi/so/lim/ dav//la/ti/din/ be//na/si/bim.

V - - - V - - - V - -

Ikkinchi misradagi "davlatidin" so'zining uchunchi bo'g'ini shu shaklda cho'ziq hijo bo'lib kelgan. Birinchi misradagi "ahvoling" ning oxirgi bo'g'ini qisqa hijo o'rni bilan kelganligi uchun "ng" harfi keyingi bo'g'inga ("ey") ko'chirilgan ("ngey").

⁴⁴ Bu hodisa "imola" deb nomlangan.

⁴⁵ Bu hodisa "vasl" (ulash) deb nomlanadi.

Dedi: "Nedur sanga olamda pesha",

Dedi: "Ishq ichra majnunluq hamesha".

Oldingi baytda "nedur" so'zi qisqa va cho'ziq hijo (V -, va majmu') o'rnida kelgan bo'lsa, bu baytda ikkita cho'ziq hijo (- -, va sababi xafif) o'rnida kelgan. "Ishq ichra" birikmasi ikki xil qilinishi mumkin:

Ish/q/ ich/ra - - V - V

Ish/q ich/ra - - - V

Bu vaznda to'rtinchi hijo cho'ziq bo'lishi lozimligi ("mafo'iyat" sababli ikkinchi variant to'g'ri sanaladi:

Dedi: "Ishq ich/ra majnunluq/ hamesha".

V - - - V - - - V - -

Ushbu baytdagi "kasb" so'zi taqte'lariga e'tibor bering:

Dedi: "Bu ish/di-n o'lmas kas/b ro'zi,

V - - - V - - - V - -

Dedi: "Kas-b o'l/sa basdur ish/q so'zi.

V - - - V - - - V - -

Savol tug'iladi. She'ring vazni noma'lum bo'lsa, qisqa va cho'ziq hijolar qanday aniqlanadi?

Bunday holatda tagma-tag tahlil qilish usuli qo'l keladi. Masalan Alisher Navoiyning "kelmadi" radifli mashhur g'azali:

		Hijolar													
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
Dastlab odatdagi tamoyillar asosida cho'ziq va qisqa hijolarni belgilaymiz.															
So'ngra ikkala misradagi mos hijolarni solishtirib, ularni uyg'unlashtirishga harakat qilamiz.															
Misra	Ke	cha	kel	gum	dur	de	bon	ul	sar	vi	gul	ru	kel	ma	
Parad	V	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	V	-	V	
Misra	Ko'z	la	rim	g'a	ke	cha	tong	ot	qun	cha	uv	qu	kel	ma	
Parad	-	V	-	V	V	V	-	-	-	V	-	V	-	V	
1. Cho'ziq hijo ostidagi hijo ham cho'ziq bo'lishi lozim (1, 4, 5 -hijolarga qarang).															
2. Oxirgi bo'g'in doim cho'ziq voki o'ta cho'ziq hojo sanaladi (15-hijo).															
Misra	Ke	cha	kel	gum	dur	de	bo	nul	sar	vi	gul	ru	kel	ma	
Parad	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	V	-	V	
Misra	Ko'z	la	rim	g'a	ke	cha	to	ngot	qun	cha	uv	qu	kel	ma	
Parad	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	V	-	V	
Ishonch hosil qilish uchun yana bir baytni ko'ramiz.															
Misra	To	li	bi	so	diq	to	pil	mas	voq	sa	kim	qo'y	di	q'a	
Parad	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	
Misra	Yo'l	g'a	kim	av	val	qa	dam	ma'	shu	qa	o't	ru	kel	ma	
Parad	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	
12-hijo cho'ziq bo'lar ekan (1-misrada -qo'y).															
Afoil	Fo	i	lo	tun	fo	i	lo	tun	fo	I	lo	tun	fo	i	
Vazn	Ramali musammani mahzuf														

4. Baytning oltinchi bo'laklar – ruknlarga ajratish.

Cho'ziq va qisqa hijolar aniqlangandan keyin, taqte'ning eng kichik bo'shligi boshlanadi. Uning murakkabligi shundaki, muayyan bo'shliq qisqa va cho'ziq hijolar nazariy jihatdan bir necha xil taqte' bo'lishi mumkin.

Masalan:

Navosiz ulusning navobaxshi bo'li.

V – – V – – V – – V –

Bu misrani hijolar tartibiga ko'ra yigirmadan ziyod variantda ajratish mumkin. Masalan:

1. Mafo'iylu mustaf'ilun fo'ilun.

V – – V/ – – V – / – V –

2. Mafo'iylu maf'uvlu mustaf'ilun

V – – V/ – – V/ – – V –

3. Mafo'iylu maf'uvlu maf'uvlu fa'.

V – – V/ – – V/ – – V/ –

4. Fa'uvlun mafo'iylu mustaf'ilun.

V – – / V – – V/ – – V –

5. Fa'ul fo'ilun fo'ilun fo'ilun

V – / – V – / – V – / – V –

6. Fa'uvlun fa'uvlun mafo'iylu fa'.

V – – / V – – / V – – V/ –

7. Fa'ul fo'ilotun fa'ul fo'ilun.

V – / – V – – / V – / – V –

8. Fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'ul va hokazo.

V – – / V – – / V – – / V –

Kanab o'tilgan afo'iylarning barchasi bir xil paradigmaga ega. Shundan qaysi biri aynan shu misraga tegishli yoxud yuqoridagi misra bo'lgan afo'iylarning qaysi birida yozilganligini aniqlashda taqte'ning a'lo roli o'ynaydi.

Zahiriddin Bobur "Muxtasar"da bu masalaga alohida to'xtalib, bir necha misollar keltiradi. Jumladan, ushbu baytlar ayni bir g'azaldan olingan bo'lib, ikki xil taqte' qilinishi mumkin:

G'ofil o'l/ma, ey soqiy/, gul chog'in/ g'animat tut,

Vaqt ay/sh erur boqiy/, ol chog'ir/ ketur, bot tut.

Fo'ilun mafo'iylun fo'ilun mafo'iylun.

Bu nasiha/tim angla,/ ne bilur ki/shi yongla,

Ne bo'lur e/kin tongla,/ sen bugun g'a/nimat tut.

Fo'ilotu maf'uvlun foilotu maf'uvlun.

Birinchi taqte'da vaznning nomi **hazaji musammani** **solim** bo'lsa, ikkinchi taqte'da vaznning nomi yana ikki xil chiqadi:

1. Ramali musammani makfufu musha'as.
2. Muqtazabi musammani matviyi maqtu'.⁴⁶ Demak, ayta g'azalning vazni uch xil nomlanishi mumkin [5. 110].

Bobur bunday holatlarda ikki xil tamoyilga tayanishni ta'kid etadi: "Har bahrdinkim, **kamroq zihof bila ul vazn hosil bo'lgan** bahrdin tutulg'ay. To (Yo) har **bahrning solimidan ul vaznda bo'lgan** bahrdin tutulg'ay" [5. 110].

Bu tamoyillar asosida yuqoridagi g'azalni tahlil qilsak, dastlabki variant – **hazaji musammani ashtaru solim** to'g'ri ekanligi ma'lum bo'ladi. Zero unda faqat bitta zihof va furu' (shatr-ashtar) mavjud. Shuningdek, baytda solim rukn (mafo'iylun) bor.

IV. Aruzda baytdagi har bir ruknning o'z maxsus nomi bo'lgan. Ruknlarda yuz beradigan hodisalar: o'zgarishlar, takror kabilarni qaytadan nomlash imkonini beradi.

Masalan:

Zihi husnung/ zuhuridin / tushub har kim/ga bir savdo,

Bu savdolar / bila kavnay/n bozori/da yuz g'avg'o,

- baytining ikkala misrasida "savdo" so'zi takrorlangan. Biroq bu so'z misralarning aynan qaysi qismida takrorlanganligini aniq ayta olmaymiz, chunki uchun ruknlar nomidan foydalanamiz.

1. Birinchi misraning birinchi rukni "**sadr**" deb nomlanadi.
2. Birinchi misraning oxirgi rukni "**aruz**" deb nomlanadi.
3. Ikkinchi misraning birinchi rukni "**ibtido**" deb nomlanadi.
4. Ikkinchi misraning oxirgi rukni "**zarb**" yoki "**ajuz**" deb nomlanadi.

5. O'rtadagi ruknlar "**hashv**" (agar misrada ikkita bo'lsa "**hashvayn**") deb nomlanadi.

Bayt musamman ya'ni sakkizlik shaklida bo'lsa (misrada to'rt misra bo'lsa, baytda sakkizta rukn ishtirok etsa), ruknlar nomlanishi quyidagidek bo'ladi:

Sadr	Hashv	Hashv	Aruz
Hashvayn			
Ibtido	Hashv	Hashv	Zarb, Ajuz

⁴⁶ Eslang: Muqtazab bahri **Maf'uvlotu mustaf'ilun** ruknlaridan hosil bo'lgan **Maf'uvlotuning** matviy furu'i **fo'ilotu**, mustaf'ilunning maqtu' furu'i esa, **maf'uvlun** bo'ladi (2-3-ilovadagi jadvallarga qarang). Demak, **fo'ilotu maf'uvlun** ruknlaridan hosil bo'lgan vazn muqtazabi matviyi maqtu'.

Hashvlar (qat'ilik):

Sadr	Hashv	Aruz
Ibtido	Hashv	Zarb, Ajuz

Hashvlar (to'rtlik):

Sadr	Aruz
Ibtido	Zarb, Ajuz

Demak sadr, ibtido, aruz va zarb asosiy ruknlar, hashvlar esa ikkinchi darajali ruknlardir.

Quyidagi baytni quyidagicha ruknlarga ajratamiz:

Qo'shiqning boshi	zuhuridin	tushub har kim-	-ga bir savdo
Sadr	Hashv	Hashv	Aruz
Ibtido	bila kavnay-	-n bozori-	-da yuz g'avg'o
Ibtido	Hashv	Hashv	Zarb yoki ajuz

Demak baytda "aruz"dagi so'z "ibtido"da takrorlanmoqda.

Buknlarining maxsus nomlari vaznni aniq nomlashga yordam beradi. Masalan:

Qo'shi yosin/mu deyin ko'/zi qarosin/mu deyin,
Ko'ngluma har/ birining dar/du balosin/mu deyin.

- V - -/ V V - -/ V V - -/ V V -

Fo'ilotun fa'ilotun fa'ilotun fa'ilun

Fo'ilotun fa'ilotun fa'ilotun fa'ilun

Baytdagi sakkizta rukndan ikkitasi solim, to'rttasi maxbun, ikkitasi maxbuni mahzuf. Bu ruknlar qaysi ekanligini aniq ko'rsatish uchun har bir ruknning maxsus nomlaridan foydalaniladi. Ya'ni:

Harbiy musammani sadru ibtido solim, hashvayn maxbun, aruz va zarb maxbuni mahzuf.

V. Rejaning dastlabki bandida muhokama etilgan masala, ya'ni baytlarning turlicha talaffuz etilishi va taqte' qilinishi bir tomondan baytni belgilashda muammolarni yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, har bir baytni turli vaznlarda o'qish, binobarin, shu yo'nalishda baytni talaffuz qilish va san'at namoyish etish imkonini ham beradi. Rashiddin Rumiyaning «Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r» asarida ma'lumot berilgan bo'lsa, Ahmad Manshuriy Samarqandiy bir muxtasar yaratgan bo'lsa ham, uni Xurshidiy sharhlagan hamda «Kanz ul-g'aroyib»

(«Ajoyibotlar xazinası») deb nomlagan. Mazkur asardagi barcha bayt mutalavvin san'ati asosida yozilgan bo'lib, uch vaznda o'qish mumkin bo'lgan. Bobur bu haqda ma'lumot berib Husayniydan shunday iqtibos keltiradi: «Va dar on jo bayte ovarda, ki base donad vazni on metavonad xond. Ammo Rashid baytro nayovarda. Agar meyvovar avvale mebuvar, to mardumro tavahhumi gazaf nashavard» (O'sha yon «Kanz ul-g'aroyib» asarida – S.T.) bir bayt keltirganki uni istagil vaznda o'qish mumkin. Biroq Rashid (Rashiddin Vatvot – S.T.) baytning o'zini keltirmadi. Agar keltirsa, xalq (aruzga daxldor kishilar) vahimaga tushar edi.

Aruzga oid risolalarda vaznning nazariy asoslari bayon qilinib berilishi bilan birga mazkur ilmda san'at darajasiga ko'tarilgan istilohlar haqida ham so'z boradi. Shunday istilohlardan biri **mutalavvin** (talavvin, zubahrayn, ~~zulbuhur~~) bo'lib, u haqda «Funun ul-balag» («Badoyi' us-sanoyi'») hamda Boburning «Muxtasar» asarlarida ma'lumotlar keltirilgan. «**Mutalavvin**» arabcha so'z bo'lib, «transit-barang», «turlanuvchi» ma'nolarini ifodalaydi. «**Zulbuhur**» esa arab tilida «bir necha bahr egasi» degan ma'noni bildiradi. Istiloh sifatida esa bu atamalar she'rni bir necha vaznda o'qish san'atini nazarda tutadi. Bunga bayt tarkibidagi hijolarni cho'ziq yoki qisqa talaffuz etish yoki hijolarni ajratib yoki qo'shib o'qish orqali erishiladi. Shuningdek, fortojik mumtoz shoirlari Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Sayido Nasafiy, Abdurahmon Jomiy kabilarning ba'zi g'azallari ikki bahr doirasida yozilgan bo'lib, bu usul «**zubahrayn**» («ikki bahr egasi») deb atalgan.

Mutalavvin san'ati haqida ma'lumot beruvchi asarlardan biri «Funun ul-balag'a» bo'lib, muallif bu san'atga risolaning ilmi badii bilan bog'liq qismida to'xtalib o'tgan. Unda aytilishicha, «bu aningda bo'lurkim, she're ayturlarkim, ikki vazn birla o'qusa bo'lur». Muallif quyidagi baytni misol tariqasida keltiradi:

Yuzungni ko'rgali hargiz ko'ngulda qolmadi hasrat,
So'zungni eshgali bori tanimda qolmadi mehnat.

Taroziyning aytishicha, baytni **hazaji musammani solim** yoki **mujtassi musammani maxbun** vaznlariga solib o'qish mumkin.

Qiyoslab ko'ring:

Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun – hazaji
musammani solim;

V - - - / V - - - / V - - - / V - - -

Mafo'ilun fa'ilotun mafo'ilun fa'ilotun – mujtassi

musammani maxbun.

V – V – / V V – – / V – V – / V V – –

Demak har ikkala misradagi **–ni, –li, –da, –di** hijolarini cho'ziq va talaffuz qilish orqali ikki xil vazn yaratilgan.

Habur «Muxtasar»da mutalavvun san'atiga daxldor bo'lgan misradagi voqeani eslab: “Aning istib'odidin mutaajjib bo'lib bu baytni

Qoshig'a borg'ali ko'ngul o'ziga kelmadi netay.

Yuzini ko'rgali ko'zum ko'ziga ilmadi ul oy.

Har kimning istilohdin vuqufi bo'lsa bilgaykim necha vaznda qoshig' [5, 44], deb yozadi hamda shu baytni hazaj, ramal, rajaz, musammani va mujtassi bahrlariga oid yigirmadan ortiq vaznga misol shu baytda keltiradi.

Ushbu bersak, Boburning bayti Ahmad Taroziy baytiga uslub jihatidan o'xshash. Biroq Ahmad Taroziyning baytida qisqa talaffuz qilinadigan mumkin bo'lmagan baytlar (undosh tovushini ko'chirish mumkin bo'lmagan yopiq bo'g'inlar) miqdori o'n oltita (misrada sakkizta). Boburning baytida esa bunday hijolar miqdori sakkizta (misrada to'rtta). Shunga proporsional tarzda Boburning baytida qisqa yoki cho'ziq o'qish mumkin bo'lgan hijolar soni ikki barobar ko'p. Baytning “sadr”i bo'lgan “Qoshig'a bor–“ ritmik bo'lagining dastlabki uchta hijosini qisqa yoki cho'ziq talaffuz qilish mumkin. Shunga ko'ra u “mafo'iylun”, “mafo'ilun”, “fa'ilotun”, “mustaf'ilun” kabi ruknlarga moslashtirib o'qilishi mumkin. Jumladan:

1. Hazaji musommani solim

Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun.

2. Hazaji musammani maqbuz.

Mafo'ilun mafo'ilun mafo'ilun mafo'ilun

3. Ramali musammani maxbun.

Fa'ilotun fa'ilotun fa'ilotun fa'ilotun

4. Ramali musammani solim.

Fo'ilotun fo'ilotun fo'ilotun fo'ilotun

5. Rajazi musammani solim.

Mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun

6. Rajazi musammani matviy.

Mufta'ilun mufta'ilun mufta'ilun mufta'ilun

Aruziy talaffuzning bu kabi o'ziga xosliklari urg'uning ahvolar haqida mulohaza yuritishga asos bo'lgan. Jumladan, eron olimi Bahrom Xonlariy, tojik aruzshunosi Bahrom Sirius, o'zbek olimasi D.Yuliyeva tadqiqotlarida buni kuzatishimiz mumkin.

Chunonchi, B.Sirius yozadi: "...dar rukni "faUlun" zadai asos bo'lovi hijoi "U" qaror giriftast va kalimoti she'riy niz, ki az jihati rukni "faUlun" muvofiqat doda shudaand, boyad ba hamin sifat kuzatib boshand. Tag'yir dodani joi zada dar yake az ruknhoi aruziy, ta'vayronii ohangi manzuri nazari shoir megardad" ("faUlun" rukni asosiy urg'u "U" hijosi ustiga tushadi, she'riy jumla ham ritm jihatidan "faUlun"ga moslashadi. Aruz ruknlarining bironasida urg'uning o'zgartirish shoir nazarda tutgan ohangning buzilishiga olib keladi).

Avvalambor, ta'kidlash joizki, "fa'uvlun" ruknini "faUlun" talaffuz yozish va tushunish ("v" tovushini "u"ning davomi sifatida) to'g'ri emas. Zero arab tilida "fa'uvlun" so'zi tarkibidagi ikkinchi va uchinchi unli tovushlar (harakatlar) qiymat jihatidan mutlaqo farq qilmaydi. Agar bu tarzda yondashilsa "mafo'iylun" ruknini "mafo'llun" ("mafo'llun" tarzda yozib, urg'u uchinchi hijoga tushadi deb o'ylash mumkin. Bu xato bo'ladi. She'riy matnlarda ochiq bo'g'in cho'ziq hijo o'ziga kelgan bo'lsa, vazn talabiga ko'ra uni cho'ziq talaffuz qilish, ya'ni "a" (a yoki o), "vov" (u yoki v) hamda "yoy" (i, e yoxud y) harflari qo'shilgandek talaffuz etish kerak bo'ladi. Bu esa urg'u aynan uchinchi hijoga tushgan kabi taassurot qoldiradi. Biroq bu hodisa ruknlarida istalgan cho'ziq bo'g'inda yuz berishi mumkin. "Fa'uvlun" ruknining asosida yozilgan (mutaqorib bahri) quyidagi misralarga e'tibor qarating. Unda ajratilgan bo'g'inlar ruknning ikkinchi hijolari:

Xudoyo musalam xudoliq sango,
Birav shahki **da**'bi gadoliq sango.
Xudovandi bemislu monand sen,
Xudovandlarga xudovand sen.

Matnda urg'u aynan shu hijolarga tushgandek taassurot yug'ongan. Biroq bu yolg'onchi taassurot. Buning sababi mazkur hijolar qisqa bo'g'indan keyin joylashgan. Agar bu tarzda yondashsak, "shahki" so'zida umuman urg'u bo'lmaydi, "xudovandlarga" so'zida ikkita urg'u (aslida bu so'zda eng cho'ziq talaffuz qilinadigan unli so'nggi "a" tovushi) mavjud bo'ladi. Binobarin, "cho'ziq va qisqa hijo"

⁴⁷ Bahrom Sirius. Aro'zi tojiki. — Dushanbe: Nashriyoti davlatii Tojikiston, 1963. 276-bet.

“urg’uli va urg’usiz hijo” bilan almashtirish aruzda xatoga olib keliishi mumkin.

Ushshapchi D.Yusupova mutalavvun hodisasiga tayanib aruzning potensialiy vaznlar, ya’ni urg’uli vaznlar qatoriga qo’shish zaruriyatini ham o’rtaga tashlagan. “Yuqorida keltirilgan fikrlar shuni ko’rsatadi, aruzning urg’u bilan aloqador hodisa ekanini ko’rsatadi. Aruzning urg’u hodisalarining aruz ilmi bilan bog’liqligi nazarda tutilsa, aruzning urg’u bilan urg’u asosidagi ta’limot ekani oydinlashadi. Chunki urg’u asosida yaratilgan bayt tarkibidagi hijolar urg’u asosida bo’lsa, bir nechta vazn haqida fikr yuritish mumkin bo’ladi. [8]. Aruz haqida bahs talab masala. Zero “urg’u” mohiyatan til birligidagi urg’u asosidagi birligining boshqalariga ko’ra kuchliroq talaffuz etilishini ko’rsatadi. Aruzda esa rukndagi cho’ziq hijolar miqdori birdan ortiq bo’lishi mumkin. Qolaversa, vaznning rang-barangligini yuzaga keltirgan omil urg’uli bo’g’in (cho’ziq hijo) emas, aksincha, qisqa bo’g’in miqdoridir.

Adabiyot va manbalar

1. Абдурахмон Жомий. Рисолайи аруз (Таржимон, шарҳ ва таълиқлар муаллифи Д.Юсупова). – Т.: Tamaddun, 2014.
2. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 1998.
3. Атоуллох Хусайний. Бадойиъу - с - санойиъ (Форсчадан А.Рустамов таржимаси). - Т.: F.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
4. Аҳмид Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002 й., 1-6 сонлар; 2003 й., 1-6 сонлар.
5. Бобур. Мухтасар (Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов). - Т.: Фан, 1971.
6. Болтабоев Ҳ. Шарҳ мумтоз поэтикаси. Манба ва талкинлар. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
7. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар. - Тошкент: Ўзбекистон, 1993.
8. Юсупова Д. “Темурийлар давридаги арузга доир рисоаларнинг қиёсий таҳлили”. Филология фанлари доктори диссерт. автореферати. –Т., 2019.
9. Шамси Қайси Розӣ. Ал-Мӯъҷам. - Душанбе: Адиб, 1991.
10. Ҳожирахмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006.

O'zini o'zi nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

1. Aruz ilmida "taqte'" atamasi qanday ma'nolarni ifodalaydi? "taqte' bilmak" ahamiyati haqida tushuncha bering (qanday bo'lmoq, parchalamoq, tahlil, ruknlar, talaffuz va yozuv, taqte' haqida Navoiy va bobur fikrlari, bir bayt taqte'si).
2. Ahmad Taroziy, Alisher Navoiy va Boburning taqte' haqidagi fikrlarida qanday mushtarak va farqli jihatlar borligini izohlang (ruknlariga bo'lish tamoyillari).
3. Baytdagi ruknlarning aruzdagi maxsus nomlarini misol asosida yozing (misralardagi birinchi, o'rtadagi va oxirgi ruknlarning maxsus nomlari, ularni nomlashning ahamiyati).
4. Ruknlarning har biriga nom berishning qanday ahamiyati bor? (vaznni nomlash, radd-qaytarish san'ati, baytdagi xatolikni aniqlash).
5. "Mutalavvun", "zubahrayn", "zulbuhur" tushunchalarini izohlang (hijolarni qisqa va cho'ziq talaffuz etish, bir necha vazn bahrlar yaratish, Bobur fikr va ma'lumotlari).
6. "Muxtasar"da keltirilgan ushbu parchani izohlang: «Kana g'aroyib» asarida bir bayt keltirganki uni istagan vaznda o'qish mumkin. Biroq Rashid (Rashiddin Vatvot – S.T.) baytning o'zini keltirmadi. Agar keltirsa, xalq (aruzga daxldor kishilar) vahima tushar edi". Sizningcha, nima uchun "vahimaga tushadi"?
7. "Muxtasar" kitobidan olingan ushbu baytda qanday vaznlar borligini aniqlashga harakat qiling (hashv, ortiqcha hijo, teskari mazmun):

Ayirg'il meni jumla hamrohdin,

Yuzimni evurma mo sivo-l-lohdin. [5. 110]

8. Quyidagi baytlarni taqte' qiling:

Ishqing o'tig'a kuygoli keldim,

Oydek yuzungni ko'rgoli keldim.

Savdoyi ishqing tushdi boshimg'a,

Sendin davosin so'rgoli keldim...

Ishq mazhabiga taqvi-yu toat chidayolmas,

Tasbih-u sano, zuhd-u ibodat chidayolmas.

Kim ko'rsa o'shal dilbari ra'noni bayakbor,

Betoqat o'lub, aysh-u farog'at chidayolmas...

Boborahim Mashrab

Lab uyur takallumg'a, zulfni parishon qil,
Qand qimmatin sindur, narxi anbar arzon qil.
Hun shohisen, jono, bu hazin gadolarg'a,
Ko'z uchi bila boqib, xayr ayla ehson qil...

Amiriy

Kuyima deb aylamadi hech kishi parvonag'a bahs,
Dqil ersang na qilursan meni devonag'a bahs.
Shisha sarshori mayi nob erur so'rma sabab,
La'lidin nash'a topar aylama paymonag'a bahs...

Yor manga g'ayri jaf o aylamas,
Va'da qilib, anga vafo aylamas.
Shum raqibiki adovat qilur,
Kofir erur, yodi xudo aylamas...

Nodira

Kulbam sari jononim kelmasmu ekin oyo,
Hajrida yomon holim, bilmasmu ekin oyo?
So' rmoqqa borur yorim oshiqdari ahvolin,
Deb ul meni ham oshiq, kelmasmu ekin oyo?..

Munis

Bizki bukun jahon aro kishvari faqr shohimiz,
Boshimiz uzra ohimiz shu'lasidur kulohimiz.
Qasri rafi'imiz buzuq kulbayi ko'hnamiz bo'lub,
Go'shayi ajz-u maskanat tufrog'i taxt-u johimiz...

Ogahiy

6-MAVZU:
TURKIY SHERIYATNING ASOSIY BAHRLARI: HAZAJ
(MAFO'IYLUN), RAMAL (FOILOTUN) VA RAJAZ
(MUSTAF'ILUN).

REJA:

1. Mafo'iylun aslining zihof va furu'lari.
2. Foilotun aslining zihof va furu'lari.
3. Mustaf'ilun aslining zihof va furu'lari.
4. Hazaj, ramal va rajaz bahrlarida yozilgan she'rlar tahlili.

Alisher Navoiy ta'kidlaganidek, aruz she'riy tizimida mavj bo'lgan sakkizta asldan turkiy she'riyatda qo'llanadiganlari boshqarib. Bular: **fa'uvlun, mafo'iylun, fo'ilotun, mustaf'ilun va maf'uvlotu**.

Bulardan birinchisi ya'ni **fa'uvlun** asli **mutaqorib** bahrini hosil qilib, asosan masnaviy va masnaviy-dostonlarda qo'llanadi (bu bahr haqida keyingi darslarda alohida to'xtalamiz). **Maf'uvlotu** asli alohida bahrni hosil qilmaydi, balki **munsareh, muqtazab, sari** kabi murakkab bahrlarni hosil qilishda ishtirok etadi. Bu bahrlar ham turkiy she'riyatda nisbatan kam qo'llanadi. Demak yuqorida tilgan oltin asllar orasida bizning mumtoz she'riyatimizda eng ko'p qo'llaniladiganlari uchta: **mafo'iylun, fo'ilotun, mustaf'ilun**.

Oldingi mavzularda guvoh bo'lganimizdek, bu uchala mavzularning tarkibiga ko'ra bir-biriga yaqin (Ahmad Taroziy ta'biri bilan aytganda "uxti" – opa-singil) bo'lib, ikki sababi xafif va bir vatadi majmu'dan tashkil topgan. Biroq ularning tartibiga ko'ra bir-biridan farqlanadi:

- **mafo'iylun** – vatadi majmu', sababi xafif, sababi xafif;
- **fo'ilotun** – sababi xafif, vatadi majmu', sababi xafif;
- **mustaf'ilun** – sababi xafif, sababi xafif, vatadi majmu'.

Shu tufayli ushbu ruknlardan hosil bo'luvchi bahrlar – hazaj, ramal va rajaz aruz ilmining ilk davrlaridanoq, bitta doiraga – "Doira-i mujtaliba" (jalb etuvchi doira)ga kiritilgan.

I. Hazaj bahri mafo'iylun ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Mazkur ruknning solim shaklidan tashqari 11 ta zihof hamda 11 ta furu'i mavjud.

№	Zihof	Furu'	Rukn, paradigma	№	zihof	Furu'	Rukn, paradigma
1	Zalal	Azall	fo' ~	7	Xarb	Axrab	Maf'uvlu -
2	Ajabb	Majbub	Fa'ul v -	8	Xarm	Axram	Maf'uvlun -
3	Xatm	Ahtam	Fa'uvl v ~	9	Qabz	Maqbuz	Mafo'ilun v -
4	Hazf	Mahzuf	Fa'uvlun v - -	10	Kaff	Makfuf	Mafo'iylu v -

Maqsur	Mafo'iyul v - ~	11	Tasbig'	Musabbag'	Mafo'iyul v - ~ ~
Ashtar	Fo'ilun - v -	12	Axrami majbub		fa' -

3.4.2 ilovadagi jadval asosida har bir furu'ning hosil bo'lishini

Baytdagi ruknlar soniga ko'ra vazn murabba' (to'rtta rukn),

to'ltita rukn) va musamman (sakkizta rukn) bo'lishi mumkin.

Quyida hozir bahrida yozilgan baytlarni taqte' qilib vaznini aniqlashga

ko'rsatib qilamiz:

1. Takalluf har / necha suvrat/ta bo'lsa, an/di-n ortuqsen,

v - - - v - - - v - - - v - - -

Seni jon der/la-r, ammo be/takalluf jon/di-n ortuqsen.

v - - - v - - - v - - - v - - -

Mafo'iyul mafo'iyul mafo'iyul mafo'iyul

Hazaji musammani solimul arkon (barcha ruknlari solim).

2. Qaro zulfing/ firoqinda /parishon ro'/z-gorim bor,

v - - - v - - - v - - - v - - ~

Yuzungning ish/tiyoqinda /ne sabru ne/ qarorim bor.

v - - - v - - - v - - - v - - ~

Mafo'iyul mafo'iyul mafo'iyul mafo'iyul

Hazaji musammani aruz va zarb musabbag'.

3. Bu bayt vaznining to'liq nomi "Hazaji musammani sadru

hashvayn solim, aruz va zarb musabbag'" bo'lishi lozim. Biroq

baytdagi ruknlardan sadr, ibtido, hashvlar to'liq ya'ni solim bo'lib,

aruz va zarb o'zgargan bo'lsa, solim ruknlarni aytmalik ham

mumkin.

3. Qading sarvi/ xiromon/, xading mohi/ dilafro'z,

v - - - v - - - v - - - v - ~

Visoling jon/g'a orom, /g'ami hajring/ jahonso'z.

v - - - v - - - v - - - v - ~

Mafo'iyul mafo'iyul mafo'iyul mafo'iyul

Hazaji musammani bir rukn solim bir rukn maqsur.

4. Ko'zingdek bor/mu nargis/, yuzungdek bor/mu gulshan,

v - - - v - - - v - - - v - -

Engingdek bor/mu nasrin/, qadingdek bor/mu savsan.

v - - - v - - - v - - - v - -

Mafo'iyul fa'uvlun mafo'iyul fa'uvlun

Hazaji musammani bir rukn solim bir rukn mahzuf.

Keyingi baytlarning paradigmasini aniqlab taqte' qiling

5. Mening g'amim bilmaysen, sening bila netgumdur,
Jafoni kam qilmaysen, boshim olib ketgumdur.
Mafo'ilun maf'uvlun mafo'ilun maf'uvlun
Hazaji musammani bir rukn maqbus, bir rukn axram

6. Kel ey nigorim manga nazar qil,
Tarahhum aylab beri guzar qil.
Mafo'ilun fa' mafo'ilun fa'.
Hazaji musammani bir rukn maqbus, bir rukn axram
majbub.

7. Kam bo'lg'ay bir sendek olamda pariyo'ye,
Bedarde, bemehre, berahme jafajo'ye.
Maf'uvlun maf'uvlun maf'uvlu mafo'iylun.
Hazaji musammani axrami axrabi aruz va zarb solim

8. Ortar manga hayrat gar aning husnig'a ko'z solsam,
O'rtar men hayrat gar o'tar chog'da boqib qolsam.
Maf'uvlu mafo'iylu mafo'iylu mafo'iylun.
Hazaji musammani axrabi makfufi, aruz va zarb solim

9. Sensan sevarim xoh inan xoh inanmo,
Qondur jigarim xoh inan xoh inanmo.
Maf'uvlu mafo'iylu mafo'iylu fa'uvlun.
Hazaji musammani axrabi makfufi, mahzuf.

Ramal bahri fo'ilotun asl ruknining takrorlanishidan hosil bo'lgan
Mazkur aslning solim shaklidan tashqari 10 ta zihofi va 15 ta furu mavjud

№	zihof	Furu'	Rukn, paradigma	№	Zihof	Furu'	Rukn, paradigma
1	Jahf	Majhuf	fa' -	9	Shakl	Mashkul	Fa'ilotu
2	Rab'	Marbu'	Fa'ul v -	10	Tasbig'	Musabbag'	Fo'iliyyon
3	Batar	Abtar	Fa'lan - -	11	Majhufi musabbag'	Fo' -	
4	Hazf	Mahzuf	Fo'ilun - v -	12	Maxbuni musabbag'	Fa'iliyyon	
5	Qasr	Maqsur	Fo'ilon - v ~	13	Abtari musabbag'	Fa'lon	
6	Tash'is	Musha'as	Maf'uvlun - - -	14	Maxbuni mahzuf	Fa'ilun	
7	Xabn	Maxbun	Fa'ilotun v v - -	15	Maxbuni maqsur	Fa'ilon	
8	Kaff	Makfuf	Fo'ilotu - v - v				

Izoh: 2-ilovadagi jadval asosida har bir furu'ning hosil bo'lishi kuzating.

Baytdagi ruknlar soniga ko'ra vazn murabba' (to'rtta rukn) musaddas (oltita rukn) va musamman (sakkizta rukn) bo'lishi mumkin. Quyida hazaj bahrida yozilgan baytlarni taqte' qilib vaznini aniqlashga harakat qilamiz:

1. Ey jalolu /rahmatingdin /gar zalilu /gar muazzaz,
- v - - - v - - - v - - - v - -

Safhayi kav/nayn o'lub o'ning tirozi/din mutarraz.

- v - - - v - - - v - - - v - -

Fo'ilotun fo'ilotun fo'ilotun fo'ilotun

Ramali musammani solimul arkon.

Qaysi bir o/zori-n aytay/ jonima ag'/yorning,

- v - - - v - - - v - - - v - -

Qaysi bir og'/ritqanin ko'ng/limni dey dil/dorning.

- v - - - v - - - v - - - v - -

Fo'ilotun fo'ilotun fo'ilotun fo'ilun

Ramali musammani aruz va zarb mahzuf.

Vahki ul oy hasrati dardu dog'i furqati,

Ham erur jonimg'a o't, ham hayotim ofati.

Fo'ilotun fo'ilun fo'ilotun fo'ilun

Ramali musammani bir rukn solim, bir rukn mahzuf.

Lolaning g'unchasidek bag'rim o'lubtur to'la qon,

Vahki, el g'ofilu kuydardi meni dog'i nihon.

Fo'ilotun fa'ilotun fa'ilotun fa'ilon

Ramali musammani maxbuni, maxbuni maqsur.

Yetti jon og'zimakim, chiqmas uyidin ul hur,

"Chiqmag'an jong'a umid" ushbu masaldur mashhur.

Fo'ilotun fa'ilotun fa'ilotun fa'lon

Ramali musammani maxbuni, aruz va zarb abtari

maxbuni.

G'am cherigi behaddur, chorasi budur Bobur,

Bodani ko'mak keltur, jomini himoyat tut.

Fo'ilotu maf'uvlun fo'ilotu maf'uvlun

Ramali musammani bir rukn makfuf, bir rukn musha'as.

Rafuz bahri mustaf'ilun asl ruknining takrorlanishidan hosil

bo'ladi. Uning solim shaklidan tashqari 9 ta zihofi hamda 14 ta furu'i

noyjud.

	Furu'	Rukn, paradigm	№	Zihof	Furu'	Rukn, paradigm
1. Zihof	Maxbun	Mafo'ilun v - v -	9	Tarfil	Muraffal	Mustaf'ilotun
2. Zihof	Matviv	Muftailun - v v -				- - v - -
3. Zihof	Maqtu'	Maf'uvlun - - -	10	Matviyi muzoll		Mufta'ilon - v v ~
4. Zihof	Makbul	Fa'uvlun v - -	11	Maxbuni muzoll		Mafo'ilon v - v ~
5. Zihof	Mahzuz	Fa'lon - - -	12	Maxbuni mahzuz		Fa'ul v -
6. Zihof	Marfu'	Fo'ilun - v -	13	Maxbuni muraffal		Mafo'ilotun v - v - -
7. Zihof	Maxbul	Fa'ilotun v v v -	14	Matviyi muraffal		Muftailotun - v v - -
8. Zihof	Muzol	Mustaf'ilon - - v ~				

Izoh: 2-ilovadagi jadval asosida har bir furu'ning hosil bo'lishini kuzating.

Baytdagi ruknlar soniga ko'ra vazn murabba' (to'rtta rukn) musaddas (oltita rukn) va musamman (sakkizta rukn) bo'lishi mumkin. Quyida rajaz bahrida yozilgan baytlarni taqte' qilib vaznini aniqlash harakat qilamiz:

1. Soqiy erur/ ishrat chog'i /afsurda bo'l/ma may bila,
 - - v - - - v - - - v - - - v -
 O'ttek chag'ir/ keltur dag'iy/ suhbat tutash/tur nay bila.
 - - v - - - v - - - v - - - v -
 Mustaf ilun mustaf ilun mustaf ilun mustaf ilun
Rajazi musammani solim.
2. Kel ey pariy /ruxsorkim /haddin itib/tur ishtiyoq,
 - - v - - - v - - - v - - - v ~
 Gar vaslingga/ yetkurmasang/ o'lturgusi/dur bu firoq.
 - - v - - - v - - - v - - - v ~
 Mustaf ilun mustaf ilun mustaf ilun mustaf ilun
Rajazi musammani muzoll.
3. Onsiz bu jonni ne qilay, jonsiz jahonni ne qilay,
 Jonsiz jahonni ne qilay, onsiz bu jonni ne qilay.
 Mustaf ilun mafo'ilun mustaf ilun mafo'ilun
Rajazi musammani solimu maxbun.
4. Keltursa yuz baloni o'shal bevafo manga,
 Kelsun agar yuzumni evursam balo manga.
 Mustaf ilun mafo'ilu mustaf ilun fa'ul
Rajazi musammani solimi mashkuli maxbuni axazz.
5. Holimni sanga aytib hajr o'tig'a o'rtandim,
 Ey yor yamon qildim har neki dedim tondim.
 Mustaf ilu maf'uvlun mustaf ilu maf'uvlun
Rajazi musammani makfufi maqtu'.
6. Yetishsa bo'lmas vaslig'a firoqdin afgormen,
 Agar tiriklik budur bu umrdin bezormen.
 Mafo'ilun mustaf ilun mafo'ilun mustaf ilun
Rajazi musammani maxbuni solim.

7. Bu dardima chora netay chu yor dardimni bilur,
 Ishimga ne fikr etay chu yor fikrimni qilur.
 Mafo'ilun mufta'ilun mafo'ilun mufta'ilun
Rajazi musammani bir rukn maxbun, bir rukn matviy.

8. Javru jafoni qo'y, dag'i bizga vafo qil, ey nigor,
 Lutfu karam qilib bu dardimg'a davo qil, ey nigor.
 Mufta'ilun mafo'ilun mufta'ilun mafo'ilun
Rajazi musammani matviyi maxbuni muzoll.

Adabiyot va manbalar

1. Алиппер Навоий. МАТ. 20 томлик, 1-том. – Т.: Фан, 1987.
2. Алиппер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 1998.
3. Ахмад Тарозий. Фунун ул-балога // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002 й., 1-6 сонлар; 2003 й., 1-6 сонлар.
4. Бобур. Мухтасар (Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов). – Т.: Фан, 1971.
5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Т.: Tamaddun, 2018. 366-387-betlar.
6. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz. – Sam.: SamDU nashri, 2010. – B. 66.
7. Yusupova D. Aruz alifbosi. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
8. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006.
9. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998.

O'zini o'zi nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

1. “Mafo'iylun”, “Fo'ilotun” va “Musta'filun” asllarining harflar va juzvlar tarkibini tushuntirib bering (yeti harf. harakatli va sokin, uchta juzv, juzvlat tarkibi, ikki xil tarkib).
2. Ahmad Taroziyning “qarindosh” ruknlar haqidagi fikrlarini izohlang (“uxti”, bir xil juzvlar, bahrlarning hosil bo'lishi, yanglish fikrlar).
3. 2-3-ilovalardagi jadvallar asosida “fa'ul”, “foilun” va “maf'uvlun” o'zgargan ruknlarining hosil bo'lishini uchala asl misolida tushuntirib bering (mafo'iylunning majbub, ashtar, va axram furu'lari; fo'ilotunning marbu', mahzuf va musha'as furu'lari; musta'filunning maxbuni axazz, marfu' va maqtu' furu'lari).

4. A.Hojiahmedovning “Navoiy aruzi nafasoti” kitobining qismidagi ko’rsatkichlar asosida “Xazoyin ul-ma’oniyy”da ramal va rajaz bahrlarining qaysi shakllari qo’llanilgan ro’yxat shaklida tuzing.

5. Ushbu jadvallarni to’ldiring (“Javob” ustunining birinchi bo’lganidek o’zaro mos keladigan afo’iyl, paradigm va misol raqam va harflarini bir qator qilib yozing):

	Afo’iylar	Paradigma		Misol	Javob
1	FA’	A v –	1	Xumor	I II
2	FO’	B – ~	2	May	
3	FAUL	D – –	3	Samandar	
4	FAUVL	E v – –	4	Xabardor	
5	FAUVLUN	F – v –	5	Go’zal	
6	FAUVLON	G v ~	6	Rind	
7	FOILUN	H v – ~	7	Qanchalar	
8	MAF’UVLU	I – – –	8	Xayolimdan	
9	MAF’UVLUN	J v – v –	9	G’urbatda	
10	MAFO’ILUN	K v – – –	10	Qalbimdan	
11	MAFO’IYLU	L – – v	11	Saxovating	
12	MAFO’IYLUN	M v – – ~	12	Bo’lib hamdard	
13	MAFO’IYLON	N v – – v	13	Saxovatda	

	Afo’iylar	Paradigma		Misol	Javob
1	FA’LON	A v –	1	Hamdard	I II
2	FA’LAN	B – ~	2	Shabnam	
3	FAUL	D – –	3	Sarbaland	
4	FAUVL	E v ~	4	Xumor	
5	FAILUN	F – v –	5	Go’zal	
6	FAILON	G – v ~	6	Darbador	
7	FOILUN	H v v –	7	Ko’rmaganlar	
8	FOILON	I v v ~	8	Tilagim	
9	FA’ILOTUN	J – v – –	9	Xaridor	
10	FO’ILOTUN	K – v – ~	10	Bashariyyat	
11	FO’ILOTU	L v v – –	11	Tilagimni	
12	FA’ILOTU	M v v – v	12	Bilmaganda	
13	FO’ILIYYON	N – v – v	13	Bo’ldi hamdard	

**Ushbu baytlarning paradigma va afoyillarini topib vaznning
qanday aniqlang:**

Ushbu husnning zuhuridin tushub har kimga bir savdo.
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g'avg'o. [G'.S. 2]⁴⁸

Ey salhayi ruxsoring azal xattidin insho,
Debochayi husnunga abad nuqtasi tug'ro. [G'.S. 3]

Hoho, podshoho, kirdigoro,
Hanga ochug' nihonu oshkoro. [G'.S. 5]

Ey nubuvvat xaylig'a xotam bani Odam aro,
Dur alar xotam, sen ul otkim bo'lur xotam aro. [G'.S. 6]

Davr el sog'arini qildi mayi nob to'lo,
Luz mening eski safolimniki, xunob to'lo. [G'.S. 32]

Bo'lsa ikimizning yuzi aksi suda paydo,
Ul suv ne taraf borsa, ochilg'ay guli ra'no. [G'.S. 35]

May birla yuzung tim-tim ahmarmu ekin oyo,
Yo shu'la aro bir-bir ahgarmu ekin oyo? [G'.S. 36]

Mahvasho, sarvqado, lolaruxo, siymtano,
Chorakim, qolmadi sabrim g'ami hajringda yano. [G'.S. 39]

Subhi davlat yuzung, ey tavsani gardun sanga ashhab,
Boshing ustidagi dur o'ylaki, tong boshida kavkab.
[G'.S. 46]

⁴⁸ "Paroyib us-sig'ar" devoni, 2-g'azal.

7-MAVZU:
MASNAVIY VAZNLARI VA VARIATSIYALARI
REJA:

1. Turkiy adabiyotda masnaviylar va ularning vazn tarkibi.
2. Xamsanavislikning asosiy vaznlari.
3. Vazn variatsiyalari haqida umumiy tushuncha.
4. Navoiy "Xamsa"sida vazn variatsiyalari.

"Masnaviy" so'zi arabcha "ikki" sanoq sonini bildiruvchi "isna" so'zidan yasalgan bo'lib ikkilik ma'nosini ifodalaydi. Sharq mumtoz she'riyatida har juft misra o'zaro butunlikni hosil qiluvchi, ya'ni qofiyalanuvchi she'riy shakl masnaviy deb nomlanadi. O'rta asrlarda yirik hajmli dostonlarga nisbatan ham, ikkilik shaklida yozilgan kichikroq hajmdagi she'rlarga nisbatan ham masnaviy atamasini qo'llash odatiy hol edi. Hozirgi adabiyotshunoslikda esa bu atama ikki ma'noda ya'ni janr va she'riy shakl ma'nosida qo'llanadi.

1. Mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, ikkilik shaklida yozilgan dostonlarga nisbatan masnaviy atamasi **she'riy shakl** ma'nosida qo'llanadi. Masalan: "Lison ut-tayr"ning janri doston, shakli esa masnaviydir.

2. Lirik asarlar majmuasi, xususan, devonlar tarkibiga kiritilgan va ikkilik shaklida yozilgan lirik she'rlarga nisbatan masnaviy **janr** nomi sifatida qo'llanadi.

Masnaviylarning muhim jihatlaridan biri vazn bo'lib, bu borada o'rta asrlarda ham, keyingi davr, xususan, hozirgi adabiyotshunoslikda ham ko'plab fikr-mulohazalar aytilgan. Aruzshunoslikka oid yaratilgan deyarli barcha asarlarda masnaviylarga xos bo'lgan vaznlar va bu boradagi an'analar alohida qayd etiladi, tahlilga tortiladi. Jumladan, "Funun ul-balag'a", "Mezon ul-avzon", "Muxtasar" kabi turkiy tildagi manbalardan bu masalaga oid ma'lumotlar olish mumkin. Jumladan, Bobur "Muxtasar"da yazadi:

"Bilmak kerakkim, aksar masnaviyning iyrodi qisasi hikoyat... bayonida voqe' bo'lurkim, qasida va g'azal amsolig'ga gunjoyish ul yo'qtur, bu jihatdindurkim necha maxsus vaznda-o'q masnaviy aytibturlar. Ul jumladin besh vazni mashhurdurkim "Xamsa"lar ul avzondadur. Yana bir vazn agarchi "Xamsa"da yo'qtur fil jumla shuhrati bor. "Mantiq-ut tayr" va "Masnaviy" bu ikki kitobning qoyili azizlarning aksar masnaviylari bu vaznda voqe' bo'lubturlar. Yana bir vazndurkim, agarchi shuhrati kamdur

1996-yilgi latif vazndur. Mavlono Abdurahmon Jomiy "Sabha"si ul
"aromadur" [5. 118].

Masnaviynavislikda qo'llanuvchi vaznlar jami to'qqizta bo'lib, ular
Amir Xusrav Dehlaviyning "No'h spehr" dostonida o'z ifodasini topgan.
Har bir spehr (falak) alohida vaznda yozilgan. Mazkur to'qqiz vazndan
biri Abdurahmon Jomiyning "Haft avrang" dostonlar turkumida
qo'llangan:

1. Sari'i musaddasi matviyi maksuf.

Mufta'ilun mufta'ilun fo'ilun

- v v - - v v - - v -

Sadr, ibtido matviy, hashv matviy, aruz va zarb matviyi maksuf.

Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoni tufayli bu vazn
masnavislikdagi dastlabki doston vazni sifatida qat'iy maqomga ega
bo'ldi. "Matla' ul-anvor" (Amir Xusrav), "Tuhfat ul-Ahror" (Jomiy) va
"Hayrat ul-abror" (Navoiy) dostonlari ham shu vaznda. Turkiy
adabiyotda yaratilgan mashhur dostonlardan Mavlono Haydar
Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" hamda Durbekning "Yusuf va
Zulayho"si shu vaznda yaratilgandir.

Mazkur vazn falsafiy-didaktik mavzularni ifodalash uchun qulay
deh hisoblanadi.

2. Hazaji musaddasi mahzuf (maqsur).

Mafo'iylun mafo'iylun fa'uvlun (mafo'iyl)

v - - - v - - - v - -

Sadr, ibtido solim, hashv solim, aruz va zarb mahzuf (maqsur).

Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni tufayli shuhrat qozongan
bu vazn "Xamsa"lardagi ikkinchi dostonlarga xos bo'lib, unda ishqiy-
sarguzasht sujetlar bayon etiladi. Amir Xusrav Dehlaviyning "Shirin va
Xusrav", Jomiyning "Yusuf va Zulayho", Navoiyning "Farhod va
Shirin" dostonlari ham shu vaznda yozilgan. Mazkur vazn turkiy
adabiyotda keng iste'molda bo'lgan. Jumladan, Xorazmiy
"Muhabbatnoma"si va uning naziralari, Sayfi Saroyining "Suhayl va
Guldursun", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z" dostonlari buning
yorqin misollaridir.

3. Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maqsur).

Mafo'uvlu mafo'ilun fa'uvlun (mafo'iyl).

- - v v - v - v - -

Sadr, ibtido axrab, hashv maqbuz, aruz va zarb mahzuf.

Xamsalarning uchinchi dostonlari shu vaznda bo'lib, ko'proq ishq
iztiroblari, dard va mahzun ohanglarni ifodalashga mo'ljallangan.

Nizomiy, Amir Xusrav, Jomiy va Alisher Navoiyning Layli va Majnun haqidagi dostonlari, Hoju Kirmoniyning "Gavharnoma"si shu tarzda yozilgan.

4. Xaffi musaddasi maxbuni abtar.

Fo'ilotun mafo'ilun fa'lan

- v - - v - v - - -

Sadr, ibtido solim, hashv maxbun, aruz va zarb abtar.

Ta'kidlash lozimki, ushbu vaznda yozilgan masnaviylarda so'zlar turli shaklda aralash qo'llanadi. Shunga ko'ra vazn nomi farqlanadi. Jumladan:

fa'lan - abtar;

fa'lon - abtari musabbag';

- -

- ~

fa'ilun - maxbuni mahzuf;

fa'ilon - maxbuni maqsuri

v v -

v v ~

Bu vaznda yozilgan ilk masnaviylardan biri mashhur so'fiy shayx Sanoyining "Hadiqat ul-haqoyiq" dostonidir:

In kitobe /ki guftaam /dar pand,

- v - - v - v - - ~

Chun ruxi hu/r dilbaru /dilband.

- v - - v - v - - ~

Fo'ilotun mafo'ilun fa'lon

Falsafiy-tasavvufiy pandnoma ruhidagi bu doston Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoniga ilhom bag'ishlagan deb aytiladi. Biroq bu vaznda Nizomiy o'zining to'rtinchi dostoni "Haft paykar"ni yaratgan. Shundan boshlab, Bahrom haqidagi ishqiy-sarguzasht dostonlari shu vaznda yoziladigan bo'ldi. Xususan, "Hasht bihisht" (Amir Xusrav), "Sab'ayi sayyor" (Navoiy), "Haft avrang" (Ashraf) vahokan. Abdurahmon Jomiy esa Sanoiy izidan borib, bu vaznda yana bir falsafiy-didaktik dostoni "Silsilat uz-zahab"ni yaratdi.

5. Mutaqoribi musammani mahzuf (maqsur).

Fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'ul (fa'uvl)

v - - v - - v - - v -

Sadr, ibtido, hashvayn solim, aruz va zarb mahzuf (maqsur).

Bu vazn Firdavsiyning "Shohnoma" asari tufayli mashhur bo'lib keyinchalik, Nizomiyning "Iskandarnoma" dostonidan boshlab "Xamsa"lardagi beshinchi doston vazni maqomiga ega bo'ldi. Amir Xusravning "Oinai Iskandariy", Jomiyning "Xiradnomai Iskandariy", Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlari ham shu vaznda yaratilgan.

Mazkur vazn jangnoma dostonlarga xos deb qaraladi. Biroq mazkur jangnomadagi qator asarlar ham shu vaznda yaratilgan. Xususan, turkiy dostonidagi ilk dostonlar - "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib) va "Sabhat ul-baqoyiq" (Ahmad Yugnakiy), Sa'diyning mashhur asari "Gulistan" shular jumlasidan.

1. Hamali musaddasi mahzuf (maqsur).

Fo'ilotun fo'ilotun fo'ilon (fo'ilon)

v - - - v - - - v - (- v ~)

Andr, ibtido, hashv solim, aruz va zarb mahzuf (maqsur).

Musallarning tarkibiga kirmaydigan bu vazn ko'proq tasavvufiy dostonlarda qo'llanadi. Uning shuhrat qozonishi Fariduddin Attorning "Munshi ut-tayr" hamda Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" dostonlari bilan bog'liq. Alisher Navoiy ham o'zining shu ruhda yaratgan "Lison-ut-tayr" dostonini mazkur vaznda yaratdi. Jomiy esa bu dostoni "Salomon va Absol" dostonida qo'lladi.

1. Hamali musaddasi maxbuni abtar.

Fo'ilotun fa'ilotun fa'lan (fa'lon, fa'ilun, fa'ilon).

v - - - v v - - - -

Andr, ibtido solim, hashv maxbun, aruz va zarb abtar (abtari musaddasi, maxbuni mahzuf, maxbuni makfuf).

Yuqorida to'rtinchi vaznda bo'lgani kabi bu vaznda ham so'nggi qat'iyatlar (aruz va zarb) turli zihof va furu'larda qo'llanishi mumkin. Lekin qayd etishicha bu vazn "g'oyat latif" bo'lsa-da, masnaviyatlarda ko'p qo'llanmaydi. Xusrav Dehlaviyning "No'h spehr" dostonidagi bir fasl (spehr) hamda Jomiyning "Sabhat ul-abror" dostoni shu vaznda yozilgan.

III. O'zbek mumtoz adabiyotidagi dastlabki doston Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"i bo'lib unda to'rt xil vazn qo'llangan:

1. Mutaqoribi musammani sadru ibtido, hashvayn solim, aruz

va zarb mahzuf:

O'kush o'g'di birla tuman ming sano,

v - - v - - v - - v -

O'g'an bir bayatqa, angar yo'q fano.

v - - v - - v - - v -

fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'ul

2. Mutaqoribi musammani sadru ibtido, hashvayn solim, aruz

va zarb maqsur:

Ko'shish tut yigitlik kechar senda terk,

v - - v - - v - - v ~

Qachar bu tiriklik necha tutsa berk.

v - - v - - v - - v ~

fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'uvl

3. Mutaqoribi musammani sadru ibtido, hashvayn, solim va zarb solim:

Turayi barayi ajunug' kezayi.

v - - v - - v - - v - -

Vafolig' kim erkin ajunda tilayi.

v - - v - - v - - v - -

fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun

4. Mutaqoribi musammani sadru ibtido, hashvayn, solim va zarb musabbag':

Bu kun ko'rsa erdi bu o'ngdi to'ru xalq,

v - - v - - v - - v - ~

Ular qo'zmish ersa sevunchlug bo'layi

v - - v - - v - - v - -

Izoh: birinchi misra berilgan vaznda (fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun) yozilgan.

"Qutadg'u bilig"dan keyinroq yaratilgan Adib Alisher Navoiyning "Hibat ul-haqoyiq" dostonida ikki xil vazn va yuqoridagi 1- va 2- vazn qo'llangan:

1. Ilahiy o'kush hamd ayurman sango,

Saning rahmatingdin umarman o'ngo

v - - v - - v - - v -

2. Ayo molg'a suq er yaqin bil bu mol,

Bu kun qadg'u saqinch yarin yuk vubol

v - - v - - v - - v ~

Xorazmiy "Muhabbatnoma"si va uning barcha naziralari ham musaddasi maqsur (5) va hazaji musaddasi mahzuf (6) vaznida yozilgan:

5. Kel ey soqiy keturgil bodayi nob,

Kula o'ynoyu ichsunlar bu as'hob.

v - - v - - v - - v ~

Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iyl

6. Saburdin yaxshi yo'qtur pasha qilsam,

Bu yo'lda sabr yo'q andesha qilsam.

v - - v - - v - - v -

Mafo'iylun mafo'iylun fa'uvlun.

Ustadekning "Yusuf va Zulayho" dostoni sari'i musaddasi matviyi mavquf (7) hamda sari'i musaddasi matviyi mavquf (8) vaznlarida

- 7 Nasr edi, bu qissa dag'iy porsi,
Tadi anga jon ko'zi nazzorasi.

x v v - - v v - - v -

Mufta'ilun mufta'ilun fo'ilun

- 8 Hor edi ko'ngulda burundin bu azm,
Turki tili birlamu qilsam bu nazm.

x v v - - v v - - v ~

Mufta'ilun mufta'ilun fo'ilun

Turkiy adabiyotga xamsanavislik an'anasining kirib kelguniga qo'shilgan to'rtinchi hokimiyat davrida mazkur sakkiz vazn yoxud to'rt vaznning sakkiz varianti mavjud edi:

1. Mutaqoribi musammani mahzuf (maqsur).
2. Mutaqoribi musammani solim (musabbag').
3. Hazaji musaddasi mahzuf (maqsur).
4. Sari'i musaddasi matviyi mavquf (matviyi maksuf).

Vazn variatsiyasi tushunchasi haqida. Variatsiya variantlanish, ya'ni bir-biriga o'xshash hodisalarning yonma-yon kelishi yoxud bir hodisaning kichik, juz'iy o'zgarishga uchrashi kabi ma'nolarni bildiradi. Variatsiya adabiyotshunoslik ilmi doirasidagi ko'plab adabiy hodisalarda (jumladan, folklorda) mavjud ekanligi sir emas. She'riy tilda, shu jumladan, aruz vaznlar tizimida variatsiya deganda har qanday usul doirasida u yoki bu vaznning kichik o'zgarishlarga uchishi tushuniladi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, aruz usulining nazariy qonuniyatlari arab olimlari (xususan, Xalil ibn Ahmad) tomonidan arab tili morfologiyasi (sarf) asosida ishlab chiqilgan bo'lsa, unda so'zlarning tovush tarkibidan ko'ra harflar miqdori va sifati (harfati yoki sokin) ahamiyatli sanaladi. Misol uchun o'zbek tilida "zar" va "zor" so'zlari vazn nuqtai nazaridan teng (CVC) bo'lsa, aruz usuliga ko'ra esa "zar" – 2 harfli, "zor" esa 3 harfli so'z sanaladi.

Yoxud:

Ul parivash hajridinkim, yig'ladim devonavor,

Kimsa bormukim, anga ko'rganda kulgu kelmadi, - baytidagi harflarning oxirgi bo'g'inlari: "**vor**" ota cho'ziq (3 harfli), "**di**" esa cho'ziq (2 harfli) hijodir. Talaffuzda bunday farq deyarli sezilmasa-da, usulning nomida tafovut yuzaga keladi. Birinchi misra *ramali musammani maqsur* vaznida bo'lsa, ikkinchi misra *ramali musammani*

mahzuf vaznidadir. Bunday kichik tafovutlar vazndagi xatolik sifatida emas, vazn variantlari yoki variatsiyalari sifatida qaraladi. Bu haqda Bobur “Muxtasar”da shunday yozadi: “Bilmak kerakkim, mahzuf bilan maqsumni, solim bila musabbag’ni va maxbun bila maxbuni musabbag’ni va solim bila muzoll va maxbun bila maxbuni muzollni va majbub bila axtami azallni va axrami majbub bila axtami azallni va abtar bila axtami musabbag’ni va maxbuni mahzuf bila maxbuni maqsumni axtami musabbag’ni va matviyi mavquf bila matviyi maksufni va mahzuf bila manhurni aruz va zarbda jam’ qilsa bo’lur. Bu shart bilakim, ba’zi muqaffo bo’lmag’ay... Ba’zi vaznlarda sadr va ibtidoda axtami axrabni jam’ qilsa bo’lur. Ramal bahrining avzonida ba’zi mahaddoda sadr – maxbun kelibdur, ibtido – solim kelibtur, yo aks, jami’ yigirma to’rt vazni ruboiyni bir-biri birla jam’ qilsa bo’lur” [5. 111]. Demak, variatsiya bir asar doirasida bir-biriga yaqin bo’lgan turli vaznlarni qo’llanilishidir.

Vazn variatsiyalarining yuzaga kelish omillari. Vazn variatsiyalari quyidagi asosiy omillar natijasida vujudga keladi:

1. Misralardagi so’nggi cho’ziq hijoning o’ta cho’ziq hijo bilan almashishi.

Masalan: foilun – foilon, fauvlun – mafoiyl, fa’lan – fa’lon, failun – failon, faul – fauvl.

2. Rukndagi ikki qisqa hijoni (sababi saqiyl) bitta cho’ziq hijo (sababi xafif) bilan almashishi.

Dastlabki mashg’ulotlardan bilib oldingizki, aruz ilmida bitta cho’ziq hijo (bir harakatli va bir sokin harf) sababi xafif deb nomlanadi (masalan: kam, dam, men). Ikki qisqa hijo esa (ikkita harakatli harf) sababi saqiyl deb nomlanadi (masalan: seni, dala, biri). Demak ularning ikkalasi ham aslida bir xil juzv, ya’ni sababdir. Binobarin, she’r matnlarda ular bir-birini almashishi mumkin. Muhtass bahrída yozilgan ushbu g’azal matla’iga, aniqrog’i, uning aruz va zarb ruknlariga e’tibor bering:

Zihe mazo/hir aro meh/ri orazing/**din** nur,

v – v – / v v – – / v – v – / – –

Quyoshdin o’y/laki zarro/t xayli ich/**ra** zuhur.

v – v – / v v – – / v – v – / v v –

Birinchi misradagi bitta cho’ziq hijo (“din”) o’rnida ikkinchi misrada ikkita qisqa hijo (“-ra zu-”) kelgan. Bu, albatta, vaznning nomini o’zgartiradi. Birinchi misra muhtass musammani maxbuni atayib

1) vaznida yozilgan bo'lsa, ikkinchi misra mujtassi musammani
mustaf'ilun va maxbuni mahzuf (zarb) vaznida yozilgan. Biroq talaffuzda
qisqa deyari sezilmaydi. Shu tariqa she'riy matnlarda:

matf'ailun – maf'uvlun bilan;

mat'ailun – failun bilan;

matf'ailun mafoilun – maf'uvlun foilun bilan almashinishi mumkin
bo'ladi.

Bunday o'zgarishlar asosan so'nggi ruknlarda (aruz va zarb),
va har birinchi (sadr va ibtido) va o'rtadagi (hashv) ruknlarda yuz
ga to'g'ri o'zgarishlarning har biri o'z nomiga (zihof va furu') ega,
va har bir vaznning nomi ham turlicha bo'ladi.

Ayrim holatlarda cho'ziq hijo bilan qisqa hijo almashinishi
mumkin. Jumladan, **foilotun** o'rinda **failotun**, **mustafailun** ornida
matf'ailun, **mafoiylun** o'rinda **mafoilun** ruknining qo'llanilishi
mumkin uchraydi. Buni ham variantlar qatoriga qo'shishimiz mumkin.

Matnaviy-dostonlarda vazn variatsiyalari. “Xamsa” dostonlari
qo'llanilgan vazn variatsiyalari quyidagilar:

1. **Kari' bahrining musaddas shakli doirasida.**

Kari' bahrining solim shakli quyidagicha:

Mustaf'ilun mustaf'ilun maf'uvlotu

- v - - - v - - - - v

Dostonlarda birinchi, ikkinchi ruknlar (sadr, ibtido va hashvlar)
(matviy) usulida qisqaradi (muftailun - v v -), oxirgi ruknlar esa
(zarb) tayy va kasf (matviyi maksuf - foilun) hamda tayy va vaqf
(matviyi mavquf - foilon) usullarida qisqaradi.

Odami er/sang demagil/ odami,

Oniki yo'q/ xalqi g'amiy/din g'ami.

- v v - - v v - - v -

Mufta'ilun mufta'ilun fo'ilun

Keldi raiy/yat galavu/, sen shubon,

Ul shajari/ musmiru, sen/ bog'bon.

- v v - - v v - - v ~

Mufta'ilun mufta'ilun fo'ilun

Bundan tashqari, birinchi (sadr, ibtido) yoki ikkinchi (hashv)
va har ikkala ruknlarda ikki qisqa hijoning bitta cho'ziq hijoga
aylanishi (sababi saqiyl o'rninga sababi xafifning qo'llanilishi) natijasida
muftailun (- v v -) rukni maf'uvlun (- - -) rukniga aylanishi mumkin.
Bunday o'zgarish qat' (maqtu') deb nomlanadi. Masalan:

Bismillo/hir rahmo/nir rahiym,

- - -/ - - -/ - v ~

maqtu' maqtu' matviyi mavquf

Rishtag'a chek/di necha dur/ri yatim.

- v v - / - v v -/ - v ~

matviy matviy matviyi mavquf

Subhonal/loh, bu ne naf/si laiym,

- - -/ - v v -/ - v ~

maqtu' matviy matviyi mavquf

Nafsni qo'y/g'il, ne azo/bi aliyim.

- v v - / - v v -/ - v ~

matviy matviy matviyi mavquf

Oллоh-ol/loh-ne Hiri/ bu Hiri,

- - -/ - v v -/ - v -

maqtu' matviy matviyi makshuf

Bir-biridin/ turfa aning/ har biri.

- v v - / - v v - / - v -

matviy matviy matviyi makshuf

Buki bayo/n aylading er/mas yiroq,

- v v - / - v v - / - v ~

matviy matviy matviyi mavquf

Kim de olur/sen mundin/ yaxshiroq.

- v v - / - - - / - v ~

matviy maqtu' matviyi mavquf

Demak, mazkur vazn doirasida jami sakkiz xil variatsiya imkoniyatlari mavjud bo'lib, Navoiy ulardan mohirova foydalangan.

2. "Farhod va Shirin". Hazaj bahrining musaddas shakllari doirasida.

Bahrning solim shakli quyidagicha:

Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun

v - - - v - - - v - - -

Dostonlarda so'nggi ruknlarning hazf (mahzuf) va qasr (maqsum) qilinishi asosida ikki xil variatsiya yuzaga keladi:

Dedi: Qaydin/ sen, ey majnu/ni gumrah?

Dedi: Majnun/ vatandin qay/da ogah.

v - - - / v - - - / v - -

Mafo'iyun mafo'iyun fa'uvun
solim solim mahzuf

Dedi: Qay chog'/din o'lding ish/q aro mast?

Dedi: Ruh er/mas erdi tan/g'a payvast.

v - - - / v - - - / v - ~

Mafo'iyun mafo'iyun mafo'iyul

solim solim maqsur

1. "Layli va Majnun". Hazaj bahrining musaddas shakllari

usulida,

Dostonda birinchi rukn (sadr va ibtido) xarb (axrab-maf'uvlu),
ikkinchi rukn (hashv) qabz (maq buz-mafo'ilun) so'nggi ruknlar esa
mas va zarb) hazf (mahzuf-fa'uvlun) va qasr (maqsur-mafo'iyul)
usulida o'zgarishga uchraydi:

Ey yaxshi/ oting bila/ sarog'oz,

Anjomi/g'akim yetar/ har og'oz.

- - v / v - v - / v - ~

Maf'uvlu mafo'ilun mafo'iyul

axrab maqbuz maqsur

Yozmoqda/ bu ishq jo/vidona,

Maqsudu/m emas edi/ fasona.

- - v / v - v - / v - -

Maf'uvlu mafo'ilun fa'uvlun

axrab maqbuz mahzuf

Biroq, yuqorida qayd etilganidek, vazndagi yonma-yon kelgan ikki
qo'g'a hijo (birinchi rukn so'ngidagi va ikkinchi rukn boshidagi) bitta
cho'ziq hijoga almashinishi mumkin (maf'uvlun foilun fa'uvlun).

Bunda maf'uvlun - mafo'iyulning xarm (axram) usulida
qisqarishi natijasi bo'lsa, foilun - shatr (ashtar) usulida qisqarishi
natijasidir. Masalan:

"Layli", "Lay/li" debon /chekib un,

- - - / - v - / v - ~

El deb "Maj/nundur ush/bu Majnun".

- - - / - v - / v - ~

Maf'uvlun foilun mafo'iyul

axram ashtar maqsur

Dediki: "Nedin misol ekin bu?
Subhonol/loh, ne ho/l ekin bu?"

- - - / - v - / v - -

Maf'uvlun foilun fa'uvlun
axram ashtar mahzuf

Demak dostonda jami to'rt xil variatsiyani uchratish mumkin.

4. "Sab'ayi sayyor". Xafif bahrining musaddas shakli doirasida.

Xafif bahrining solim shakli quyidagicha:

Fo'ilotun mustafilun fo'ilotun

- v - - - - v - - v - -

Dostonlarda doimo baytdagi ikkinchi ruknlar (hashv) maxbun shaklda (mafoilun v - v -) qo'llanadi.

Asosiy variatsiyalar so'nggi ruknlar (aruz va zarb) turli shakllarda qo'llanishi natijasida yuzaga keladi. Shunga ko'ra vazn nomlari farqlanadi. Jumladan:

fa'lan - maqtu'; fa'lon - maqtu'i musabbag';

- - -

fa'ilun - maxbuni mahzuf; fa'ilon - maxbuni maqsur.

v v -

v v ~

Bundan tashqari mazkur dostonda dastlabki rukn (fo'ilotun - v -)ning xabn qilinishi, ya'ni maxbun shakli (failotun v v -) uchraydi. Bu esa variantlarni yana ikki barobar ko'paytiradi. Demak jami sakkiz xil vaznni uchratish mumkin.

5. "Saddi Iskandariy". Mutaqorib bahrining musammak shakli doirasida.

Dostonlarda baytlarning so'nggi ruknlari (aruz va zarb) mahzuf (mahzuf) va qasr (maqsur) qilinishi natijasida vazn variatsiyalari yuzaga keladi.

Kel ey to/le'i sa`du baxti/ baland,

Ki sizdin/ bo'lur o/damiy ar/jumand.

v - - / v - - / v - - / v ~

fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'uvl

solim solim solim maqsur

Kichik er/kanimdin/ bo'lub qo/shima,

Ulug' mud/dao sol/dingiz bo/shima.

v - - / v - - / v - - / v -

fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'ul

solim solim solim mahzuf

Demak, "Hayrat ul-abror" va "Sab'ayi sayyor" dostonlarida 8,
"Layli va Majnun"da 4, "Farhod va Shirin" va "Saddi Iskandariy"
dostonlarida 2 xil, "Xamsa"da esa jami 24 xil variatsiyani uchratish

Haydar Xorazmiy va Alisher Navoiy dostonlaridan olingan
bayt baytlar vaznini mustaqil aniqlashga harakat qiling:

Menki pishirdim bu laziz oshni,

Shayx Nizomiydin olib choshni.

Har neki sotsang bu kun, ey hushyor,

Ham senga-o'q sotqay ani ro'zgor.

Haydar Xorazmiy "Maxzan ul-asror".

O'shul kunlarki vaqtim erdi darham,

Buzulg'on bu ko'ngulda yuz tuman g'am.

Ayoq tutquchi bandu hamdamim oh,

Ayoqlig' qon yutub shomu sahargoh.

Haydar Xorazmiy "Gul va Navro'z".

Majnun ko'rgach bo'lub mushavvash,

Ko'nglig'a bu zulm keldi noxush...

Yetgach Navfal salom qildi,

Majnun anga ehtirom qildi...

Ul nav'ki hotif etti irshod,

Men ham qildim fasona bunyod.

Alisher Navoiy "Layli va Majnun".

Ey siposing demakda el tili lol,

Elga til sendin o'ldi, tilga maqol.

Sendin insong'a toru pudi jasad,

Jasad ichra ko'ngul, ko'ngulda xirad.

Sen qilib farq uyida pinhoni,

Korgohi dimog'i insoniy.

Yetti afsona barchasi dilband,

Ikkisi bir-biriga yo'q monand.

Alisher Navoiy "Sab'ayi sayyor".

Nadomat ko'zin ashknok aylabon,
Hamul suv bila g'usli pok aylabon...
Safar qil va lekin vatan ichra bo'l,
Tila xilvatu anjuman ichra bo'l.

Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy"

Turk nazminda chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.
To'rt devon birla nazmi panj ganj,
Dast berdi chekmayin anduhu ranj.

Alisher Navoiy "Lison ut-tayr"

Adabiyot va manbalar

1. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 7-11-томлар ("Хамса")
Тошкент: Фан, 1992-94.
2. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 1998.
3. Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти
2002 й., 1-6 сонлар; 2003 й., 1-6 сонлар.
4. Бобур. Мухтасар (Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов). – Т.: Фан,
1971.
5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – T.
Tamaddun, 2018. 388-403-betlar.
6. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz. – Sam.: SamDU nashri, 2010
7. Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмик
бадий уйғунлиги. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2011
8. Yusupova D. Aruz alifbosi. – T., 2015.
9. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006.
10. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998.

O'zini o'zi nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

1. "Xamsa" tarkibidagi dostonlarning vazni haqida nimalarni
bilasiz? (an'ana, Nizomiy, hazaj, mutaqorib, sare', xafif balnalar,
vaznning to'liq nomi, afoil va paradigma).
2. Vazn variatsiyalari deganda nimani tushunasiz? (variantlar, bir
biriga yaqin vaznlar, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijo, mahzuf va maqof,
ikki qisqa va bir cho'ziq hijo, cho'ziq va qisqa hijo, "Xamsa"
variatsiyalar).

Hojjahmedovning “Navoiy aruzi nafosati” kitobi ilovasidagi
matkichlar asosida ikki va undan ortiq vazn qoʻllangan gʻazallarni
aniqlang va tekshirib koʻring.

Shiroyiddinov, D.Yusupova, O.Davlatovning “Navoiyshunoslik”
jurnal kitobidan “Navoiy “Xamsa”sining vazn xususiyatlari”
maʼnosini oʻqib konspektlashtiring [5. 388-403-betlar].

Har Navoiy dostonlaridan olingan ushbu baytlar, paradigmalar va
afoʻyillardan oʻzaro mos keladiganini aniqlang hamda vazn nomi va
afoʻyiga tegishli ekanligini toping:

Baytlar	Paradigmalar
Manga xamsa takmili bir yon edi, U maqsud tahsili bir yon edi.	v - - - / v - - - / v - -
U muaydonigʻa har dam surub ot, Ushu andin nechuk qilgʻay mubohot.	v - - / v - - / v - - / v -
U naʼshgʻa soldilar ikovni, Jonsiz kelinu oʻlik kuyovni.	- v - - / - v - - / - v -
U kishi oʻlimgidin shod erur, U rkanu gʻosilu jallo d erur.	- v v - / - v v - / - v -
Uda birdin hosil oʻldi bir adad, Yoʻq xiradgʻa munda dam urmoqqa had.	- - v / v - v - / v - -
U gʻalatkim alar dagʻiy dedilar, Maqaram qissaxon qizi edilar.	- v - - / v - v - / v v -

Afoʻyillar	Dostonlar
foʻilotun mafoʻilun faʻilun,	“Hayrat ul-abror”
foʻuvlun faʻuvlun faʻuvlun faʻul,	“Farhod va Shirin”
Maʼuvlu mafoʻilun faʻuvlun,	“Layli va Majnun”
Mafoʻiylun mafoʻiylun faʻuvlun,	“Sabʻayi sayyor”
Mullaʻilun muftaʻilun foʻilun,	“Saddi Iskandariy”
foʻilotun foʻilotun foʻilun.	“Lison ut-tayr”.

namunadagi kabi (1-satr) toʻldiring

Paradig- ma	Afoil	Doston	Vazn nomi
2	2	5	Mutaqoribi musammani mahzuf

8-MAVZU:

ARUZ VA MUMTOZ SHE'RIY JANRLAR

REJA:

1. Mumtoz she'riy janrlar tarkibida vaznning ahamiyati.
2. Mustazod janrining vazn xususiyatlari.
3. Tuyuq va ruboiy janrlarining vazn xususiyatlari.
4. "Mezon ul-avzon"da turkiy "surud" nav'lari.

I. Mumtoz she'riy janrlar odatda to'rt xil xususiyatiga ko'ra biridan farqlanadi:

1. She'ning hajmi, misra, bayt yoki bandlar soni.
2. Bayt va bandlarning qofiyalanish tartibi.
3. She'ning vazni.
4. She'ning mavzu va mazmuni.

Demak, she'riy janrlarni farqlashda boshqa belgilar qatorida vaznning ham ahamiyati bor. She'ning hajmi, qofiyasi va mavzusi ko'ra vaznini tahlil qilish murakkabroq, qiyinroq sanaladi. Binobarin, bu masala alohida e'tibor talab etadi.

Quyidagi misralarni qofiyalanish, mavzu va vaznga ko'ra tahlil qilishga harakat qilamiz:

Qarilar xotiri nozuktur, ey tiftl,
Shikastidin qilib vahm, o'lma gustoh.
Unuttungmuki, atfol o'ynag'anda,
Sinar oz mayl ko'rgandin qurug' shox.
No'sh aylar emish qadahni jonona to'la,
Soqiy, manga tut jomi harifona to'la,
Quy, gar xud erur sipehr paymona to'la,
Har nechaki, xoli etsam, et yona to'la.
Ul pariy ishqida bu devonani,
Eyki istarsen, kelib gulxanda ko'r.
Bir qadah ul gulni xandon ayladi,
Ey ko'ngul, nazzora qil, gul xanda ko'r.

1. Dastlabki to'rt misra hazaji musaddasi maqsur (3-misra mahzuli) vaznida yozilgan:

Qarilar xo'tiri nozuk/tu-r, ey tiftl,
v - - - v - - - v - ~
mafo'iylun mafo'iylun mafo'iyl

Ikkinchi va to'rtinchi misralarda qofiya qo'llangan (gustoh, shox).

Mazmuniga ko'ra ijtimoiy-didaktik mazmunga ega. Mazmuni:

*Ey bola, keksalarning ko'ngli nozik bo'ladi, sindirib qo'yish, ozor
qilishdan ehtiyot bo'l. O'yin paytida qurigan shox ozgina kuch bilan
yodindan chiharma.*

3. 5-8-misralarning vazni oldingilaridan farq qiladi:

Na'sh ayla/r emish qadah/ni jonona/ to'la,

* - V V - V - V - - V V -

Mafo'uvlu mafo'ilun mafo'iyu fa'ul

Hazaji musammani axrabi maqbuzi makfuf.

Jonona, harifona, paymona, yona so'zlari o'zaro qofiyalangan.

Mazmuniga ko'ra ishqiy-rindona (may haqida) she'r. Mazmuni:

*Jonona qadahni to'ldirib ichar ekan, ey soqiy, menga ham harifona
(ichilik bilan ichiladigan) qadahni to'ldirib uzat. Falakday paymona
bo'lsa-da, yana quy. Har qancha bo'shatsam, yana to'ldirgin.*

3. 9-12 - misralar ramali musaddasi mahzuf (maqsur) vaznida
yozilgan:

Ul pari ish/qida bu de/vonani,

* V - - - V - - - V -

To'ilotun fo'ilotun fo'ilun

Ikkinchi va to'rtinchi misralarda qofiya, aniqrog'i qofiya o'rnida
sonli so'zlar qo'llangan (gulxanda-olovda, gul xanda-kulib turgun gul).

She'r ishqiy mavzuda. Mazmuni:

*Ul pari ishqida yonayotgan bu devonani topishni istasang
gulxanga qara. Bitta qadah u gulni (yorni) kuldirdi. Ey ko'nglim, nazar
kulib, kulib turgan gulni ko'r.*

Demak, matnda uchta alohida she'r mavjud bo'lib, ular hajmiga
bo'ra teng bo'lsa-da, mavzusi, qofiyasi va eng muhimi vazniga ko'ra farq
qiladi. Yuqoridagi tavsiflardan kelib chiqib ularni qit'a, ruboiy va tuyuq
janrlariga mansubligini aytish mumkin. Agar dastlabki she'rning janrini
aniqlashda qofiyalanish tartibi asosiy mezon bo'lsa, keyingi misralar
jami asosan vaznga ko'ra aniqlanadi.

Turkiy va fors-tojik mumtoz she'riyatida ayrim janrlar o'zlarining
vaznlariga ega. Bular tuyuq, ruboiy va mustazoddir. Qolgan she'riy
janrlarda vazn erkin tarzda qo'llanadi. Biroq shuni ham qayd etish
lozimki, aruzga oid manbalar, xususan, Navoiyning "Mezon ul-
ayyon"ida **ramali musammani mahzuf (maqsur)** vaznida yozilgan
g'azallarga nisbatan "**turkiy**", **hazaji musammani solim** vaznida
yozilgan g'azallarga nisbatan "**aruzvorii**" atamaları qo'llangan.

Mustazod. Alisher Navoiy mustazod janri haqida quyidagi ma'lumot beradi: "Va yana bu xalq orasida bir surud ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf va unga bayt bitib bog'lab, aning misraidin so'ngra hamul bahar ikki rukni bila ado qilib, surud nag'amotig'a rost kelturib er mish va ani "mustazod" derlar er mish" [2. 93].

Demak mustazodning bir misrasi g'azalning bir yarim misrasiga teng bo'lib, yagona vazngda yozilishi bilan xarakterlanadi. Uning to'rt misralari **hazaji musammani sadru ibtido axrab, hashvayn makfuf, aruz va zarb mahzuf** yoki **maqsur** vaznida yozilsa, orttirilgan mustazod esa **hazaji murabbai sadru ibtido axrab, aruz va zarb mahzuf** yoki **maqsur** vaznida yoziladi. Boshqacha qilib aytganda, misradagi **sadru ibtido, aruz va zarb** orttiriladi:

Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli,
Maf'uvlu mafo'iylu mafo'iylu fa'uvlu

Mazhar sanga ashyu
Maf'uvlu fa'uvlu

Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli,
Maf'uvlu mafo'iylu mafo'iylu fa'uvlu

Olam sanga mavlu
Maf'uvlu fa'uvlu

Ushbu misralarni jadvalda quyidagi tarzda ko'rsatish mumkin:

1-misra	Ey husnu	ga zarroti	jahon ichra	tajalli
Paradigma	- - V	V - - V	V - - V	V - -
Afoil	maf'uvlu	mafo'iylu	mafo'iylu	fa'uvlu
Orttirilgan	Mazhar sa			nga ashyu
Paradigma	- - V			V - -
Afoil	maf'uvlu			fa'uvlu
Vazn nomi	sadr-axrab	hashvayn-makfuf		aruz-mahzuf
2- misra	Sen lutf	bila kavnu	makon ichra	muvalli
Paradigma	- - V	V - - V	V - - V	V - -
Afoil	maf'uvlu	mafo'iylu	mafo'iylu	fa'uvlu
Orttirilgan	Olam sa			nga mavlu
Paradigma	- - V			V - -
Afoil	maf'uvlu			fa'uvlu
Vazn nomi	ibtido- axrab	hashvayn-makfuf		zarb-mahzuf

Demak, vaznning to'liq nomi **hazaji musammani sadru ibtido**
hazaji badiyayn makfuf, aruz va zarb mahzuf.

Furtojik va turkiy she'riyatning g'azaldan keyingi o'rinda
tushib chiqqan sermahsul va sevimli janrlaridan biri ruboiydir. Abu
al-Farohi Ro'dakiy, Ibn Sino, Nosir Xusrav, Umar Xayyom kabi
shoir shoiralarning o'lmas merosi tufayli shakllanib, kamolga
erib mazkur janr XIV asr oxiri va XV asr boshlariga kelib turkiy
adabiyatiga ham kirib keldi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, turkiy tildagi
ruboiy turk ruboiy Sayfi Saroyi asarlarining Leyden universitetida
(Hadiyya) saqlanadigan yagona qo'lyozmasida uchraydi. Mazkur
ruboiyning janri ko'rsatilmagan bo'lsa-da, to'rt misradan iborat
ruboiy qofiyalanishi (a, a, b, a), falsafiy-didaktik mazmuni va eng
qisqasi vazniga ko'ra ruboiy janri talablariga javob beradi:

Kim keldi / esa jahon/da, shak yo'qki / ketar,

- - V / V - V - / V - - - V / V -

Maf'uvlu mafo'ilun mafo'iyilu fa'ul

Oqil ke/libon bu yer/da ko'p xayr / etar.

- - V / V - V - / V - - V / V -

Maf'uvlu mafo'ilun mafo'iyilu fa'ul

Sen eygu/lu-k et dag'i / tengizg'a sol/g'il,

- - V / V - V - / V - - - / -

Maf'uvlu mafo'ilun mafo'iyilun fa'

Yozida / senga yaqin / bi-l ul xayr / yetar.⁴⁹

- - V / V - V - / V - - V / V -

Maf'uvlu mafo'ilun mafo'iyilu fa'ul

Ko'rinib turibdiki, to'rtlikning 1-, 2- va 4-misralari bir xil - **hazaji**
musammani axrabi maqbuzi makfufi majbub vaznida, uchinchi
misra esa **hazaji musammani axrabi (1) maqbuzi (2) solimi (3)**
axrabi majbub (4) vaznida yozilgan.

O'zbek adabiyotshunosligi, she'rshunosligi ilmining dastlabki
asarlari bo'lmish Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida to'rtlik
shaklida yozilgan she'rlar vaznidan va mazmunidan qat'i nazar
"ruboiy" atamasi bilan yuritilgan: "Ruboiy to'rt misra' bo'lur.
Avvalg'i va ikkinchi va to'rtinchi misraida qofiya keltururlar. Va
uchinchi misrai ixtiyoridir". Shu bilan birga, Taroziy tuyuqni
ruboiyning bir turi sifatida ko'rsatadi:

⁴⁹ Sayfi Saroyi. She'rlar. Guliston. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot
nashriyoti, 1968. 34-bet.

**"Va ruboiyning bir nav'i taqi bo'lur. Oni mujannas
Aningdek bo'lurkim, ruboiyning qofiyasida tajnis rioyat qilur."**

Bu holatlar XV asrning boshlarida hali ruboiy janri nazariy jihatdan amaliy jihatdan turkiy she'riyatga to'liq singib ketmaganligidan dalolat beradi. Shu tufayli bo'lsa kerak, Mavlono Gadoyi va Mavlono Lutfiy qalamiga mansub bo'lgan she'rlar, qofiyasi va tajnis qo'llanishi, ba'zan esa vazniga ko'ra farqlanib, umumiy nom bilan **"to'rtlik"** sifatida tilga olinadi, gohida esa alohida tasnif etiladi.

Alisher Navoiy tuyuq haqida "sa'y qilurlarkim, tajnis aytib ul ul vazn ramali musaddasi maqsurdur", deb yozadi.

Bobur "Muxtasar"da o'ziga qadar o'zbek she'riyatida yozilgan tuyuqlarni tasnif qilib to'rt tur yoki "nav"ga ajratadi:

1. "Biri ulkim har uch qofiyada tajnis rioyat qilurlar".
2. "Yana biri ulkim qit'adek burung'i baytning avvalqi masnada qofiya rioyat qilmay baytlarning qofiyasida tajnis keltururlar (ya'ni ikkinchi va to'rtinchi misrada tajnis qo'llanadi)".
3. "Yana biri ulkim tajnis rioyat qilmay, uch qofiya bila aytur".
4. "Yana biri ulkim tajnis rioyat qilmay ikki qofiya bila aytur" [5. 163].

Bundan tashqari, Bobur tuyuqning "hech yerda ko'rulmay" degan yangi "nav"larini ham kashf etgan:

- "biri ulkim, har to'rt qofiyada tajnis rioyat qilinibtur";
- "yana biri ulkim, uch yerda tajnis radif o'mida bo'lur, tajnisdan yuqori dag'i qofiya rioyat qilinibtur";
- "yana biri ulkim, tajnisdin burn ouch yerda hojib (qofiyadan oldin takrorlanadigan so'z – T.S.) rioyat qilinibtur [5. 164].

Demak, Navoiy ham Bobur ham tuyuq janrining asosiy belgisi sifatida aruzning ramali musaddasi maqsur (mahzuf) yoki foilotun, foilotun, foilon (foilon) vaznida yozilishini ko'rsatadi. Tajnis qo'llanishi qo'llanmasligi yoki ularning soni tuyuqning alohida xillarini tashkil etadi.

Vaslidin so'z /derga yo'q yo'ro manga,
Hajr aro rah/m ayla kel, yo'ro manga.⁵⁰

⁵⁰ "Hajr" va "rahm" so'zlaridagi qator undoshlarning ikkinchisi keyingi bo'g'ingga ko'chadi.

O'qung etti /ko'b yomon yo/ro manga,
Atarhami lut/fung bila yo/ro manga.

- V - - / - V - - / - V -

Fo'ilotun fo'ilotun fo'ilun.

Devonda Lutfiyning "Sensan sevarim" nomi bilan nashr ettirilgan
"to'rtlik" janri bilan nomlangan quyidagi she'rga e'tibor

To boshim tushti bir og'zi **tor** ila,
Ko'nglumi asror g'ami bir **tor** ila,
Ko'z tutarmenkim, ko'zumning suyidin,
Ko'ngli, vah tuxmi muhabbat **torila** [9. 336].

To boshim tush/ti bir og'zi/ tor ila⁵¹,
- V - - / - V - - / - V -

Follotun foilotun foilun

Zoti pokingni ko'rib aytur falak,
«Husn daryosida yo'qtur **bo'yla dur**».
Chun tishing vasfini durga so'zlasam,
Boshini teb/ratdi durkim:/ «**Bo'yladur**» [9. 351].
Follotun foilotun foilun

Bu ikkala to'rtlik ham aruzning ramali musaddasi mahzuf vaznida
bo'lgan. Binobarin, ular aslida uch tajnisli va ikki tajnisli tuyuq
salamalaridir.

Qizig'i shundaki, Lutfiy devonida ikki dona ruboiy mavjud
bo'lib, ularning ham bittasi "ruboiylar" orasida emas, "to'rtliklar"
orasida keltirilgan:

Ey avji / malohat us / tida oy yuz / luk,
Gulzori / latofat o / ra nargis ko'z / luk,
Qoshingda / agarchi eg / rilik bor, / vale,
Ul sarv / kibi qading/g'a bordur tuz / luk [9. 337].

⁵¹ Boshim, qoshim, toshim kabi sof turkiy so'zlarning birinchi bo'g'inida "o" tovushi
qo'shishgan bo'lsa-da, ko'pincha qisqa bo'g'in o'rniida keladi.

To'rtlikning birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misrasi (musammani axrabi, maqbuzi, axrami majbub (**maf'uvlu mafo'ilun fa'**); uchinchi misrasi hazaji musammani axrabi, maqbuzi, makfufi, majbub (**maf'uvlu mafo'ilun mafo'iyu fa'ul**) yozilgan. Ikkala ruboiy ham hazaj bahrining axrab shajarasiga tegishli.

She'riy janrlarni belgilashdagi bunday tafovutlar XV asr she'riyatining boshqa namoyandalari devonlarida ham kuzatiladi.

Ruboiy janri aruz tizimining hazaj bahriga tegishli bo'lgan vaznda yoziladi. Bu vaznlar qaysi rukn bilan boshlanishiga shartli ravishda axram (maf'uvlun, - - -) va axrab (maf'uvlu - - -) shajaralariga bo'linadi. Har bir shajarada ("shajara" so'zining lug'aviy ma'nosi "daraxt") 12 tadan vazn mavjud. Unda mafo'iyun asl ruknining solim shakli bilan birga quyidagi zihof va furu'lari ishtirok etadi (ilovaga qarang):

maf'uvlu – axrab;	maf'uvlun – axram;
mafo'ilun – maqbuz;	mafo'iyu – makfuf;
fo'ilun – ashtar;	fa' – axrami majbub;
fo' – azall;	fa'ul – majbub;
fa'uvl – axtam;	

Fors-tojik va turkiy she'riyatning g'azaldan keyingi o'rindi turuvchi eng sarmahsul va sevimli janrlaridan biri ruboiydir. Uning yozma adabiyotga kirib kelishi haqida turlicha qarashlar mavjud [Qarang: 8. 28-34-betlar]. Qays Roziy ruboiy janrining genetsion Ro'dakiy ijodi bilan bog'laydi: "Va yake az mutaqaddimoni shuaro ajam ba pindoram Ro'dakiy az nav'i axramu axrabi bahr (Hazaj) vazni taxrij kardaast, ki onro vazni ruboiy xonand".⁵² (Qadimgi ajam shoirlaridan biri, fikrimcha, Ro'dakiy hazaj bahrining axram va axrab tarmoqlaridan bir vaznni yaratganki, uni ruboiy vazni deb ataydilar).

Qays Roziy ruboiy vaznlarini Xalil ibn Ahmaddan keyin paydo bo'lgan vaznlarning ichidan xushnavosi, ko'ngilga yaqinrog'i deb hisoblaydi: "Darhaqiqat, Xalildan keyin yaratilgan yangi o'lchov va vaznlar orasida hech biri bu kabi (ruboiy vaznlari kabi) ko'ngilga yaqin

⁵² Шамси Қайси Розий. Ал-муъълам. Муаллифи сарсухану тавзеҳот ва ҳозиркунандаи ҷоп Урбатулло Тоиров. - Душанбе: Адиб, 1991. 95-sah.

... qal'ga xush yoquvchi emas. Va shunga ko'ra, musiqa san'ati
... lari bu vaznda latofatli ohanglar yaratganlar".⁵³

Fors-tojik she'riyatidagi ilk mukammal ruboiylar IX asrga taalluqli
... 10) Abu Abdullo Ro'dakiy va Abu Ali Ibn Sino qalamiga mansub:

Omad bari man. Ki? Yor. Kay? Vaqti sahar.

Tarsanda. Zi ki? Zi xasm. Xasmash ki? Padar.

Dodamash du bo'sa? Bar kujo? Bar labi tar.

Lab bud? Na! Chi bud? Aqiq! Chun bud? Chu shakar.

Ro'dakiy

May dushmani mastu do'st bo hushyor ast.

Andak – taryoku, besh – zahri mor ast.

Dar bisyorash mazarrati andak nest.

Dar andaki o' manfaati bisyor ast.⁵⁴

Ibn Sino

Ayrim manbalarda aytilishicha, ilk ruboiylar "Qur'oni Karim"dagi
... 11) shu oyat vaznida yaratilgan: "La havla va la quvvata illa billah".

Bad kardamu, e'tizor badtar zi gunah,

Zeroki dar in hast se da'viyi tabah.

Da'viyi vujudu, da'viyi quvvayu havl,

"La havla / va la quvva/ta illa bil/lah".

— — V / V — — V / V — — — / —

Ma'uvlu mafo'iylu mafo'iyun fa'.

**Hazaji musammani axrabi (1) makfufi (2) solimi (3), axrami
... 12) qajjub (4).**

Aruz tizimi haqida nazariy qo'llanma yaratgan olimlar (jumladan,
... 13) Lomiy va Navoiy) 24 ta vaznni ifodalash uchun oltita ruboiy yozishgan.
... 14) Bunda ruboiyning har bir misrasi alohida vaznda yoziladi, shu bilan
... 15) 24 ta misrada 24 xil vazn ifodalanadi. Alisher Navoiy ham «Mezon ul-
... 16) ayvon»da shu usulda oltita ruboiy keltirgan [2. 67-69].

Bobur ruboiy vaznlari haqida ma'lumot berar ekan, Abdurahmon
... 17) Lomiy va Alisher Navoiyning 24 xil vazn ifodalangan oltitadan
... 18) ruboiysini misol keltiradi. Shu o'rinda u Navoiyning ruboiylarida to'rtta
... 19) vazn ikki martadan takrorlanganligini, binobarin, 24 ta emas, 20 ta vazn
... 20) ifodalanib, to'rttasi ifodalanmay qolganligini qayd etadi. Biroq Bobur
... 21) to'nggi fikrni aynan emas, tahlillar yordamida, misralar vaznini

⁵³ Shu kitob, 97-sahifa (Matn o'zbek tiliga tarjima qilindi).

⁵⁴ Shu ruboiylarning tarjimasi uchun qarang [8. 25-26].

solishtirish vositasida bildirgan. Bu holat, ya'ni vaznning takrorlanishi, kotibning xatosi tufayli yuzaga kelgan bo'lishi mumkin, ammo «Mezon ul-avzon»ning hozirgi «mukammal» nashrlaridagi xatoliklar kechirganda ham Boburning kuzatishlari asossiz emasligiga shubha hosil qilamiz. Bobur ta'kidlagan «to'rt g'alat» nimadan iborat edi?

1. «*Axram avzonining rubo'iylarida axrami axrabi ashtari anaf vaznidur mukarrar bo'lubtur, nechukkim bu ikki misra' o'shal vaznidur*

Ko'z istarkim ko'rsa jamolingni to'q,

Kim hajring ko'p urdi bu ko'ksimg'a o'q»⁵⁵.

Boburning fikriga ko'ra bu ikkala misra ham bir xil vaznli bo'lishi zarur, hazaji axrami axrabi azallda, ya'ni **maf'uvlun maf'uvlu mafo'ylun fo'** ruknlari asosida yozilgan. Chindan ham misralarni taqloq qilgan jarayonida bu fikrning to'g'riligiga ishonch hosil qilamiz:

Ko'z / istar / kim ko'rsa / jamolingni / to'q,

- - - / - - - V / V - - - / ~

Kim hajring / ko'p urdi / bu ko'ksimg'a / o'q.

- - - / - - - V / V - - - / ~

Maf'uvlun maf'uvlu mafo'ylun fo'

«Mezon ul-avzon»da ushbu misralardan birinchisidagi «jamolingni» so'zi «jamoling» tarzida berilgan⁵⁶. Bu nashrdagi xatolik bo'lsa kerak. Zero, bu tarzda vazn butunlay buziladi. Ikkinchi misraning afoili maf'uvlun foilun mafo'ylun fo', ya'ni hazaji axrami ashtari anaf deb ko'rsatilgan. Bu ikki vazn ikkinchi ruknda farq qiladi. «Ko'p urdi» rukni «fo'ilun»ga emas, «maf'uvlu»ga to'g'ri keladi, ya'ni «urdi» so'zi «qisqa va cho'ziq» hijo emas, «cho'ziq va qisqa» hijodan iborat: - - V.

Demak ikki misraning vazni aynan bir xil bo'lib qolganligi uchun «*Bu vaznkim maf'uvlun foilun mafo'ylun fo' axrami ashtari anaf vaznidur aytilmaydur*»⁵⁷.

Biroq bu o'rinda chindan ham kotibning xatosi aralashgan bo'lishi kerak. Zero turkiy she'riyatda umuman qo'llanmagan vaznlarda she'riy bita olgan Navoiy nisbatan an'anaviy tusga kira boshlagan ruboiy vaznlarida xato qilishiga ishonish qiyin. Qolaversa, yuqoridagi misra

⁵⁵ Бобир. Мухтасар. – Т.: Фан, 1971. 60-бет

⁵⁶ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 16-том. – Тошкент: Фан, 1996. 67-бет.

⁵⁷ Бобир. Мухтасар. – Т.: Фан, 1971. 60-бет.

bu misra birkmasi teskari tartibda «urdi ko'p» tarzda qo'llanganda qilingan vazn kelib chiqar edi.

3. «Yana avzonining rubo'iylarida bir axrabi majbub vazni bo'lubtur. Nechukkim bu ikki misra' o'shal vazndadur:

Tan o'lsa g'aming ichra jonimg'a fido,

Iy sho'x, bizing⁵⁸ sori bir ayla nazar,

Maf'uvlu mafo'iylun maf'uvlu fa'ul bo'lg'ay»⁵⁹.

U misralar taqtesi ham Bobur fikrini tasdiqlaydi:

Tan o'lsa / g'aming ichra / jonimg'a / fido,

-- V / V - - - / - - V / V -

Iy sho'x, / bizing sori / bir ayla / nazar,

-- V / V - - - / - - V / V -

4. «Yana bir axrabi maqbuzi majbub vazni mukarrar bo'lubtur,

Chukkim bu ikki misra' o'shal vazndadur:

Javrungni ko'ngulga, ey parivash, qil bas

Qil holima rahmkim, erurman be kas.

Maf'uvlu mafo'ilun mafo'iylun fa'».⁶⁰

Mazkur baytdagi ikkinchi misra Navoiyning «Mezon ul avzon» nomida maf'uvlu, mafo'iylu, mafo'iylun, fa' vazniga misol qilib keltirilgan⁶¹. Agar e'tibor berib qaralsa, bu ikki vazn ikkinchi ruknda qatnashadi (mafo'ilun va mafo'iylu).

Misradagi «-ma rahmkim» bo'lagi shu rukn o'rnida kelgan bo'lib, «mafo'ilun» (Bobur varianti)ga to'g'ri keladi. «Rahmkim» so'zi nomida «rahmeki» so'zi kelganda, vazn to'g'ri bo'lar ediki, bu qatnashdan ham kotibning xatosi bo'lishi mumkin.

4. «Yana bir axrabi makfufi majbub vazni mukarrar bo'lubtur, Chukkim bu ikki misra' o'shal vaznda voqe' bo'lubtur:

Hajringda fig'onimg'a ulus nola qilur,

Yo qatl ila qo'yma bu hayotimg'a asar.

Maf'uvlu mafo'iylu mafo'iylu fa'ul bo'lg'ay»⁶².

Shu tariqa Boburning fikricha, 24 ta misradan to'rttasining vazni e'tibor qo'llangan.

⁵⁸ Bu сўз «Mezon ul-avzon»da бизнинг tarzda ёзилган.

⁵⁹ Bobur. Muxtasar (Nashrga tayёрlovchi va сўз боши муаллифи С.Хасанов). – Т.:

Фан, 1971. 10-бет

⁶⁰ Bobur. Ўша манба. –бет

⁶¹ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 16-том. – Тошкент: Фан, 1996. 67-бет.

⁶² Bobur. Ўша манба. –бет

Mumtoz she'riyatimizda mustazod, ruboiy va tuyuq janrlar tashqari, noma (Bu janrni Alisher Navoiy "muhabbatnoma" deb ataydi) sayohatnoma kabi janrlar ham bevosita vazn bilan aloqador bo'lgan an'anaga ko'ra muayyan vaznda yoziladi. Chunonchi, Xorazmiy, Xo'jandiy, Yusuf Amiriy, Sayid Ahmad ibn Mironshoh, Sayid Qasbiy nomalari hazaji musaddasi mahzuf (maqsur) vaznida yozilgan bo'lsa Muqimiy, Zavqiy, Tavallo va boshqa shoirlarning sayohatnomalari rajazi murabba'i solim vaznida yozilgan.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida turkey xalqlar orasida mashhur bo'lgan "surud" (qo'shiq) nav'lari haqida gapirib, ularning ham bevosita vazn bilan aloqador ekanligini qayd etadi. Jumladan, chinga aruzvoriiy, muhabbatnoma, turkey va hokazo.

"Mezon ul-avzon"da **hazaji musammani solim** vaznida yozilgan g'azallarga bitilgan qo'shiqlar **aruzvoriiy** atamasi bilan nomlanadi. **ramali musammani mahzuf (maqsur)** vaznida yozilgan g'azallar **turkiy** atamasi bilan tilga olinadi:

"Yana surudedurkim, ani "turkiy" debdurlar... ul g'oyatda tashqori dilpisand va ruhafzo va nihoyatdin mutajoyiz aysh ahli va sudmand va majolisoro suruddur... ramali musammani maqsur vaznda voqe'dur".

"**Chinga**" janri haqida Navoiy shunday ma'lumot beradi:

"Yana "chinga" durkim, turk ulusi zufof va qiz ko'churur to'ylarida ani ayturlar, ul surudedur bag'oyat mutaassir va ikki nav'dur. Bir nav'i hech vazn bila rost kelmas va bir nav'ida bir bayt aytilurkim **munsarifi matviyi mavquf** bahridur va yor-yor lafzini radif o'mig'a mazkur qilurlar..."

Demak, aruz vaznlari haqida mukammal ma'lumotlarga ega bo'lish, aruzda yozilgan she'riy matnlarni tahlil qila olish she'riy janrlarni farqlash, ularning poetik jilolarini to'g'ri tahlil qilish imkonini ham beradi.

Adabiyot va manbalar

1. Абдурахмон Жомий. Рисолайи аруз (Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи Д.Юсупова). – Т.: Tamaddun, 2014.
2. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 1998.
3. Атоуллоҳ Хусайний. Бадойиъу - с - санойиъ (Форсчадан А.Рустамов таржимаси). - Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

1. Азиз Тарозий. Фунун ул-балога // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992 й., 1-6 сонлар; 2003 й., 1-6 сонлар.
2. Бобур. Мухтасар (Нашрга тайёрловчи С.Хасанов). - Т.: Фан, 1971.
3. Ёлтайбоев Х. Шарқ мумтоз поэтикаси. Манба ва талкинлар. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
4. Жунова Д. "Темурийлар давридаги арузга доир рисоаларнинг рубоий таҳлили". Филология фанлари доктори диссерт. автореферати. -Т., 2019.
5. Хаккулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. - Т.: Фан, 1981.
6. Лутфий. Сенсан севарим. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.

O'zini o'zi nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

1. **Aruzning she'riy janrlarni belgilashdagi ahamiyati haqida nimaga deya olasiz?** (she'riy janrlarning xos belgilari, tuyuq, ruboiy, mustazod janrlari, ramal va hazaj bahrlari, urjuza va sayohatnoma).
2. **Ruboiy janrining vazn xususiyatlari haqida ma'lumot bering** (hazaj, 10 xil rukn, zihoflar, 24, axrab va axram, Navoiy, Bobur, misol, taqte').
3. **Tuyuq janri va uning vazn xususiyatlari haqida qanday fikr va ma'lumotlarni bilasiz?** (lug'aviy ma'nosi, "Funun ul-balog'a", "ruboiyi mujannas", ramal, Navoiy, "say" qilurlarkim tajnis aytilg'ay", Bobur, tuyuq turlari, 4, 3, ishqiy mavzu, tajnis).
4. **Mustazod janri va uning vazn xususiyatlari haqida qanday fikr va ma'lumotlarni bilasiz?** (lug'aviy ma'nosi, "Funun ul-balog'a", hazaj, musamman, Navoiy, sadr va aruz, axrab, makfuf, mahzuf-maqsur, Navoiy mustazodlari).
5. **"Muxtasar"da ruboiy vaznlarining axrab va axram shajaralari uchun berilgan chizmani daftaringizga aynan chizing.**
6. **"Mezon ul-avzon"da chinga, aruzvoriy, turkiy, muhabbatnoma kabi "surud" nav'lari haqida berilgan ma'lumotlarni tahlil qiling.**
7. **Mustazod janridagi ushbu misralarni jadvalda tahlil qiling:**

Din ofati bir mug'bachayi mohliqodur, mayxoravu bebok,
Kim ishqidin oning vatanim dayri fanodur, sarmastu yaqom chok.

1-misra			
Paradigma			
Afoil			
Orttirilgan			
2- misra			
Paradigma			
Afoil			
Orttirilgan			
Vazn nomi	<i>sadr-ibtido</i>	<i>hashvayn</i>	<i>amir</i>

Zihoflarning mumtoz manbalarda qayd etilishi

Zihoflar	"Funun ul-balog'a"da	"Mezon ul-avzon"da	"Muxtasar"da	"Badoyi'u-sanoyi"da
Alfa	+	+	+	+
Ba	+	+	+	+
Bo	+	+	+	+
Boq	+	+	+	+
Boq	+	+	+	+
Boq	+	+	+	+
Boq	+	+	+	+
Boq	+	+	+	+
Boq, Q'azh	+	+	++	++
Boq	+	+	+	+
Boq is	+	+	+	+
Boqig'	+	+	+	+
Boq	+	+	+	+
Boqil	+	+	+	+
Boq, Tazyil	+	+	+	+
Boq	+	+	+	+
Boqil, Kasf	+	+	+	+
Boqim	+	+	+	+
Boq	+	+	+	+
Boq	+	+	+	+
Boq, Hajf	+	+	+	+
Boqil	+	+	+	+
Boq	+	+	+	+
Boq	+	+	+	+
Boqil', Kabi	+	+	+	+
Boq		+	+	+
Boq'		+	+	+
Boqim		+	+	+
Boq'		+	+	+
Boq'		+	+	+
Boqal		+	+	+
Boq		+	+	+
Boqim	+	+	+	
Boq	+		+	+
Boqor	+		+	+
Boqim	+		+	+
Boq	+		+	+
Boq	+		+	+
Boq	+		+	+
Boq, Jazl	+		+	+
Boqim	+		+	
Boq	+		+	
Boqim	+		+	
Boq				+
Boqim				+
Jami	35	32	44	42

ZIHOF VA FURU'LAR

№	Zihof		Furu'	
	Nomi	Amal mazmuni	Nomi	Ma'nosi
1	Vaqf	Vatadi mafruqning 2-harakatli harfi (ettinchi harf)ni sokinga aylantirish.	Mavquf	To'xtatilgan
2	Xabn	Sababi xafif sokinini olib tashlash (rukning 2-harfi)	Maxbun	Etakni qisqartirish uchun tikilgan
3	Tayy	Sababi xafif sokinini olib tashlash (rukning 4-harfi)	Matviy	Yig'ilgan
4	Qabz	Sababi xafif sokinini olib tashlash (rukning 5-harfi)	Maqbuz	Sug'urib olingan
5	Kaff	Sababi xafif sokinini olib tashlash (rukning 7-harfi)	Makfuf	Qaytarilgan, tutib qolingan
6	Kasf	"Maf'uvlotu" dagi so'nggi harakatli harfni olib tashlash	Maksuf	Tovoni kesilgan (tuya)
7	Tash'is	Vatadi majmu'ning bitta harakatli harfini olib tashlash	Musha'as	Sochilgan, to'zutilgan
8	Xarm	Vatadi majmu'ning birinchi harakatli harfini olib tashlash	Axram	Burni kesilgan
9	Salm	"fa'uvlun"da "xarm"ning yuz berishi	Aslam	Emirilgan, nuqqa
10	Hazf	Oxirgi sababi xafifni olib tashlash	Mahzuf	Olib tashlangan
11	Hazaz	Oxirgi vatadi majmu'ni olib tashlash	Ahazz	Qisqartirilgan
12	Ssalm	Vatadi mafruqni olib tashlash	Asslam	Qulog'i kesib tashlangan
13	Raf'	Ikkita sababi xafif bo'lganda avvalgisini olib tashlash	Marfu'	Ko'tarilgan
14	Jabb	Rukn so'ngida ikkita sababi xafifni olib tashlash	Majbub	Bichilgan
15	Qasr	Sababi xafif sokinini olib tashlash, harakatini sokin qilish	Maqsur	Qusurli, qisqa qilingan
16	Qat'	Vatadi majmu' sokinini olib tashlash, ikkinchi harakatini sokin qilish	Maqtu'	Kesilgan
17	Xabl	"Xabn" va "tayy"ni birgalikda bajarish	Maxbul	Oyoq qo'li kesilgan
18	Batr	"Hazf" va "qat'"ni birgalikda bajarish	Abtar	Ildizidan qo'porilgan, dum kesilgan
19	Jad'	"Maf'uvlotu" ruknidagi ikki sababni olib tashlash, so'nggi harf (t)ni sokin qilish	Majdu'	Quloq burni va boshqa a'zolari kesilgan
20	Xatm	"Hazf" va "qasr"ni birgalikda bajarish	Axtam	Tishi tagidan sindirilgan
21	Shakl	"Xabn" va "kaff"ni birgalikda bajarish	Mashkul	Tushovlangan

Zihof		Furu`	
	Amal mazmuni	Nomi	Ma'nosi
1) Makbul	"Xabn" va "qat"ni birgalikda bajarish	Makbul, muxalla'	Biror a'zosi chiqarilgan
2) Mahjuf	"fo'ilotun"ni "xabn" qilmoq hamda sababi saqiyl va sababi xafifni olib tashlash	Mahjuf	Nuqson qilingan
3) Azall	"Xarm" va "xatm"ni birgalikda bajarish	Azall	Sonning go'shtsiz qilib kesilishi
4) Manhur	"Jad" va "kasf"ni birgalikda bajarish	Manhur	Kokragiga tig' urilgan
5) Marbu'	"Xabn" va "batr"ni birgalikda bajarish	Marbu'	Chorak qilingan
6) Ashtar	"Qabz" va "xarm"ni birgalikda bajarish	Ashtar	Nuqson qilish
7) Axrab	"Kaff" va "xarm"ni birgalikda bajarish	Axrab	Vayron qilingan
8) Asram	"Salm" va "qabz"ni birgalikda bajarish	Asram	Oldingi tishi sindirilgan
9) Musabbag'	Oxirgi sababi xafifga bitta sokin haf qo'shish	Musabbag'	To'ldirilgan
10) Muzoll	Vatadi majmu'ga bitta sokin harf qo'shish	Muzoll	Etagi uzaytirilgan
11) Muraffal	Vatadi majmu'ga bitta sababi xafif qo'shish	Muraffal	Etakni sudratmoq

Vaznni aniqlash jadvali

№	Asllar Furu'lar	Fa'uvlun mutaqorib	Mafo'iyun Haza	Foilotun Ramal	Mustaf'ilun Rajaz	
	1	2	3	4	5	
1	fa'	Abtar	Axrami majbub	Mahjuf		Mahjub
2	fo'		Azall	Majhufi musabbag'		Mahjub
3	Fa'ul v -	Mahzuf	Majbub	Marbu'	Maxbuni ahazz	
4	Fa'ul v ~	Maqsur	Axtam			
5	Fa'lu - v	Asram				
6	Fa'lan - -	Aslam		Abtar,	Ahazz.	Aslam
7	Fa'lon - ~			Abtari musabbag'		
8	Fa'ilun v v -			Maxbuni mahzuf		Maxbul mahjub
9	Fa'uvlu v - v	Maqbuz				
10	Fa'ilon v v ~			Maxbuni maqsur		Maxbul mavqul
11	Fa'uvlun v - -	Solim	Mahzuf		Muxalla'	Maxbul maksuf
12	Mafo'iy v - ~	Musabbag'	Maqsur			Maxbul mavqul
13	Fo'ilun - v -		Ashtar	Mahzuf	Marfu'	Matviy Maksuf
14	Fo'ilon - v ~			Maqsur	Marfu'i muzoll	Matviy mavqul
15	Maf'uvlu - - v		Axrab			Marfu'
16	Maf'uvlun - - -		Axram	Musha'as	Maqtu'	Maksuf
17	Maf'uvlon - - ~					Mavqul
18	Fa'ilotun v v - -			Maxbun		
19	Fo'ilotu - v - v			Makfuf		Matviy
20	Fa'ilotu v v - v			Mashkul		Maxbul
21	Fo'ilotun - v - -			Solim	Marfu'i muraffal	

Asillar	Fa'uvlun mutaqorib	Mafo'iyun Hazaj	Foilotun Ramal	Mustaf'ilun Rajaz	Maf'uvlotu
1	2	3	4	5	6
1.1 Bu'yon			Musabbag'		
1.2 Batun				Maxbul	
1.3 Bu'yon			Maxbuni musabbag'		
1.4 Mafo'iyun		Solim			
1.5 Mafo'iyun		Musabbag'			
1.6 Mafo'ilon		Maqbuz		Maxbun	
1.7 Mafo'ilon				Maxbuni muzoll	
1.8 Mafo'iyu		Makfuf			Maxbun
1.9 Maf'uvlotu					Solim
1.10 Mustaf'ilun				Solim	
1.11 Mustaf'ilon				Muzoll	
1.12 Mustaf'ilun				Matviy	
1.13 Mustaf'ilon				Matviyi muzoll	
1.14 Mustaf'ilu				Makfuf	
1.15 Mafo'ilu				Mashkul	
1.16 Mustaf'ilotun				Muraffal	

ARUZ TERMINOLOGIYASIGA OID BIR JUMBOQ HAQIDA

Malumki, o'zbek mumtoz adabiyotining eng murakkab jihatlari biri vazn yani aruz sheriylar tizimidir. Bu sheriylar tizimida yagona asarlarning metrikasini yoxud qisqa va cho'ziq hijolar ketma-ketlikda aniqlash bazida nihoyatda qiyin kechishi barobarida, ayrim tomonlari aniqlangan vaznni nomlashda ham muammolar kelib chiqadi. Zamonaviy filologiyaga oid ilmlar orasida istilohlar, atamalar miqdoriga va yetakchi bo'lish bilan birga, barcha atamalar arab tilidan olinganligi ularning arab tili sarfi (morfologiyasi) qonuniyatlari asosida shakllanganligi bir qator murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Aruz haqida tadqiq va tahlil etiladigan o'quv va ilmiy adabiyotlarda u yoki boshqa istilohning manosi muayyan tarixiy manba asosida beriladi. Natijada turli manbalarga tayangan olimlarning fikr va ma'lumotlarida ba'zi tafovutlar yuzaga keladi. Jumladan, ruboiy vaznlariga xos bo'lgan asosiy ruknlardan biri **fa'** Boburning "Muxtasar" ida "**axrami** majbuh" [1. 23], Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida esa "**abtar**" [2. 48] deb nomlanadi. Buning qaysi biri to'g'ri degan savolga javab berish uchun «**batr**» va "**abtar**" istilohlari atrofidagi fikr-mulohazalarni umumlashtirish, qiyoslash lozim bo'ladi.

Zamonaviy aruzshunoslikda, xususan, A.Hojjahmedovning kitoblarida Alisher Navoiy asaridagi malumotga hamohanglik bildiriladi:

Abtar. "*Mafoiylun*" aslining "**batar**" ("ildizidan ag'darish") zihof bilan o'zgartirilishi oqibatida hosil bo'lgan **fa'** (chizmasi: —) tarmoq ruknining nomi bo'lib, "ildizidan ag'darilgan" degan manonni ifodalaydi [3. 7].

"Batar" zihof nomi bo'lib, «ildizidan ag'darish» degan ma'noni ifodalaydi. Bu xil o'zgarishga duch kelgan *mafoiylun* aslining oldingi uch hijosi tushirilib, qolgan *lun* qismi o'ziga teng **fa'** tarmoq rukni bilan almashtiriladi va "ildizidan ag'darilgan" manosida **abtar** deb yuritiladi [3. 37].

"**Abtar**" so'zi arab tiliga oid bo'lib, "**batrun**" yoki "**batarun**" o'zagidan hosil bo'lgan. "Ruscha - arabcha lug'at"da ushbu so'z "*otdelu*

⁶³ Tohirov S. "Aruz terminologiyasiga oid bir jumboq haqida". Alisher Navoiy va XXI asr (Xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari). – T.: Navoiy universiteti NMU, 2019. 197-202 – betlar.

"*abrubat*" (ajratmoq, kesmoq, arralamoq) deb tarjima qilingan

"Farhangi zaboni tojikii" kitobida esa bu so'z quyidagicha

tanisadi:

Abtar a. ابتر dumburida (dumi kesilgan), ko'tohdum, kaltadum

(10)

U ma'lumotni arabshunos A. Rustamov ham tasdiqlaydi: *Batr*ning lug'aviy manosi cho'ntoq qilish, dumini kesishdir [4. 283].

Demak "*batr*" yoki "*abtar*" so'zlari "qo'porib tashlash" emas, "dumini kesish" degan manoni ifodalaydi. Buning muhim tomoni shundaki, aruz atamasi sifatida u ruknning bir tomondan (oxirdan, oldindan) qisqarishini nazarda tutadi.

Endi "*batar*" zihofi (ruknning o'zgarish usuli) va "*abtar*" funni (o'zgarish natijasi) haqida Alisher Navoiy va Zahiriddin Boburning fikrlarini qiyoslab ko'ramiz.

"Mezon ul-avzon"da quyidagilarni o'qiymiz:

"*Batar*" - "*jabb*" va "*xarm*" ijtimoidur (birgalikda qo'llanishi - 1), *mafoiylunda* bas *fo* qolg'ay, *fa* aning o'rnig'a qo'yarlar... "*Xarm*" *mafoiylun* "*mim*"ining isqoti (olib tashlanishi- S.T.)dur, to *foiylun* qolg'ay, va *mafuylun* aning o'rnig'a bitarlar... "*Jabb*" - ikki sababi xafif isqotidur, bas *mafoiylundin* *mafo* qolg'ay va *faul* aning o'rnig'a qo'yarlar [2. 48].

Demak, Navoiyning fikriga ko'ra "*mafoiylun*" ruknining "*batar*" holida qisqarishida dastlab oxirgi ikki cho'ziq *hijo* (sababi xafif - *iy* va *ha*), so'ngra boshidagi harakatli harf (*ma*) olib tashlanadi. Natijada, bitta cho'ziq *hijo* (*fo*) qoladi.

Boshqa bir o'rinda shunday izohni uchratamiz: "*Batar*" - *mafoiylunda* vatadi majmu isqotidur, *lun* qolur, *fa* aning o'rnig'a qo'yarlar [2. 51].

Shu o'rinda ikkita nomutanosiblik yuzaga keladi:

1. Ruknlarning o'zgarish shakllari (zihoflar) qaysi ruknda yuz bermasin, bir xil turdagi o'zgarishni nazarda tutadi. Biroq yuqoridagi ikki sharhda "*batar*" usuli ikki xil o'zgarishni ifodalamoqda. Bu esa aruzga oid nazariy tamoyillarga xilofdir.

2. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, lug'aviy manosiga ko'ra "*batr*" bir tomondan, aniqrog'i, oxirdan qisqarish (dumini kesish)ni nazarda tutadi. Yuqoridagi ta'rifda esa rukn bir o'rinda har ikki tomondan, bir o'rinda boshidan qisqarmoqda. Bu lug'aviy va istilohdagi mano o'rtasida nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Boburning "Muxtasar" asarida "batr" va "abtar" istihodida quyidagicha sharhlanadi:

"Batr - hazf bila qat'ning ijmoidur (birgalikda qo'llanilishi S.T.), nechukkim *fa'uvlun* - *fa'* bo'lur va *fo'ilotun fo'il* bo'lur, *fa'lan* fo'ilning yeriga qo'yalar, mug'ayyar(o'zgargan - S.T.)ni abtar derlar.

Hazf, sababi xafifning isqotidur ruknning oxirindin...

Qat', vatadi majmuning sokinining isqoti va ikkinchi mutaharrik (harakatli harf - S.T.)ining iskoni (sokinga aylantirilishi - S.T.)dir [1. 20].

Boburning fikriga ko'ra "batr" usulida dastlab ruknning oxirgi cho'ziq hijosi olib tashlanadi (hazf), so'ngra oxirgi sokin harf olib tashlanib, undan oldingi harakatli harf sokinga aylantiriladi. Hana "fa'uvlun" va "fo'ilotun" ruknlari misolida quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Fa'uvlun → *fa'uv* → *fa'u* → *fa*

Fo'ilotun → *fo'ilo* → *fo'ila* → *fo'il* = *fa'lan*

"Mafo'iylun"ni shu usulda qisqartirganda quyidagi rukn kelib chiqadi:

Mafo'iylun → *Mafo'iy* → *Mafaiy* → *Mafiy* = *falan*

(Izoh: *Fo'ilotun* ruknida vatadi majmu' "ilo", *mafo'iylun* ruknida esa "mafo").

Malum bo'ladiki, "Mafo'iylun"ni "batr" usulida qisqartirganda ham "falan" rukni kelib chiqadi. Biroq bunday rukn "mafo'iylun"dan hosil bo'ladigan bahrlarda, xususan, ruboiy vaznlarida qo'llanmaydi.

"Batr" zihofiga oid bu kabi ikki xillik tojik aruzshunosligida ham kuzatiladi. Jumladan, Bahrom Sirusning "Aruzi tojiki" risolasida shunday ma'lumot keltiriladi:

1. Batr - dar zihofi ajam ijtimoi jabb va xarm ast.

2. Batr - dar fauvlun ijtimoi salm va hazfro go'yand [5. 85].

Birinchi fikr Alisher Navoiy tarifi bilan aynan bir xil. Ikkinchi tarifi esa natija nuqtai nazaridan bir xil bo'lsa-da, qisqarish usuliga ko'ra farq qiladi. Zero "salm" usuli vatadi majmudagi dastlabki harakatli harfning olib tashlanishini ifodalaydi:

Bahrom Sirusda - *fa'uvlun* (salm) → *uvlun* (hazf) → *uv* = *fa'*

Navoiyda - *fa'uvlun* (vatadi majmu' tushiriladi) → *lun* = *fa'*

Bahrom Sirus mazkur zihofga oid chalkashliklar mavjudligini ham qayd etadi: "Batr yake az on zihofhost, ki 'aksaran boisi gumrohii xonandagon meshavad" (*Batr ko'pincha o'quvchilarni chag'itadigan zihoflardandir*) [5. 96].

Mazkur masalani oydinlashtirishga yordam beradigan manbalardan biri Atoulloh Husayniyning "Badoyiu-s-sanoyi" asaridir: "**Batr** - harf bila qat'ning jamidur. Chunonchi, *fa'uvlunni fa'* qilurlar; *foilotunni foil* qilurlar, o'mig'a *fa'lanni* qo'yarlar va o'zgargan juzvni *fo* derlar" [4. 16].

Malum bo'ladiki, bu borada Husayniyning fikri Bobur fikriga mosand.

Atoulloh Husayniyning asarida bitta qo'shimcha malumot ham mavjudki, u muammoning asl sababini aniqlashga yordam beradi:

"Shams-i Qays ("Al-Mu'jam" asarining muallifi Qays Roziy – T.) fauvlun zihoflarining bahsinda batr ajam ash'orida kelmas deptur. Mafoiylun zihoflarining bahsinda ersa, depturkim, batr ajam zihofida mafoiylun da jabb bila xarm jamidur, *fo* bo'lur, aning o'mig'a *fa'*ni qo'yurlar" [4. 16].

Demak "batr" atamasining ma'nosiga doir ikki xil fikr va qarash Shamsiddin Qays Roziyning asari tufayli yuzaga kelgan. Olim "batr" yoki "abtar" usuli arab shariatiga xos bo'lganligini inobatga olib ajam aruzidagi boshqa bir hodisani yani "xarm" bilan "jabb" usullarining birlashuvi ("axrami majbub")ni shu nom bilan atashga qaror qilgan. Bu esa bir tomondan qulaylik keltirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bitta atamaning ikki xil talqinini yuzaga keltirib ayrim aruziy tamoyillarning buzilishiga sabab bo'lgan. Zero Atoulloh Husayniy ta'biri bilan aytganda: "...foilotunda batr fors ashorinda ko'p voqe bo'lur, garchi ul anisalm deb ataptur".

Keltirilgan fakt va ma'lumotlar, fikr-mulohazalarni quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin:

"**Batr**" va "**abtar**" istilohlari arab tilidan olingan bo'lib, "kesib tashlangan" yoki "dumi kesilgan" degan lug'aviy ma'nolarni ifodalaydi. Binobarin, u ruknning bir tomondan, ya'ni oxiridan qisqarishini nazarda tutadi. Aruz ilmida "**batr**" zihofi "**hazf**" bilan "**qat**" zihoflarining birgalikda bajarilishini ifodalaydi (Zahiriddin Bobur, Atoulloh Husayniy). Bu usulda "*foilotun*"dan "*fa'lun*" rukni hamda "*fauvlun*"dan "*fa*" rukni hosil bo'ladi. Ruknning aynan shu tarzda qisqarishi so'zning lug'aviy ma'nosiga ham mos bo'lib, qisqarish bir tomondan – oxirgi juzvlardan boshlab yuz beradi.

Ruboiy janri uchun xos bo'lgan "*Mafo'iylun*" ruknini "**batr**" usulida qisqartirganda "*fa*" emas, balki "*fa'lun*" rukni kelib chiqadi. Biroq bunday rukn "*mafoiylun*"dan hosil bo'ladigan bahrlarda, xususan, ruboiy vaznlarida qo'llanmaydi.

Ruboiy vaznlarida qo'llanuvchi "fa" rukni "mafoiylun"ni va "jabb" usulida qisqartirish natijasida hosil qilingan. Binobarin, to'g'ri nomlanishi "axrami majbub". Uning o'rniga ko'pchilik etganidek, **abtar** atamasini qo'llash, bizningcha, ma'qul ish emas. Bu aruz ilmiga oid ikki tamoyilning buzilishiga sabab bo'ladi. Birinchidan, bunda rukn ikki tomondan qisqaradi. Bu esa so'zning lug'aviy ma'nosiga (dumi kesilgan) mutanosib emas. Ikkinchidan, **abtar** atamasi ikkita bir-biridan farqli hodisaning nomiga aylanadi. Bu esa tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Бобур. Мухтасар (Нашрга тайёрловчи С.Хасанов). - Т.: Фан, 1971.
2. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 16-том. - Т.: Фан, 1999.
3. Ҳоҷиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. - Т.: Шарқ, 1998.
4. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу - с - санойиъ (Форсчандов А.Рустамов таржимаси). - Т.: Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
5. Баҳром Сирус. Арузи тожики. - Душанбе, 1963.
6. Арабско-русский словарь (Составител Х.К.Баранов). - М., 1962.
7. Фарҳанги забони тожики. 2- жилд. - Москва: Советская Энциклопедия, 1969.

5-ilova

**Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tadqiqotchisi
Yusupova Dilnoʻz Rahmonovnaning “Temuriylar davridagi
erazga doir risolalarning qiyosiy tahlili” mavzusidagi 10.00.06 –
Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
ijtimoiyshunoslik ixtisosligi bo‘yicha Filologiya fanlari doktori (DSs)
Ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi
avtoreferatiga**

TAQRIZ⁶⁴

Aruz ilmiga oid qarashlar va tadqiqotlar nafaqat she'rshunoslik shaxsiy, balki umuman filologik tadqiqotlarning (albatta musulmonlar uchun) poydevorini tashkil etadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, agar bu bilim she'r vaznlari va ritmikasinigina emas, umuman yozma va og'zaki nutq qonuniyatlarini tadqiq etuvchi murakkab ilmlardandir. Demak, "Dunyo miqyosida she'rshunoslik va she'r tuzilishlarini o'rganish tarixan eng qadimgi davrdayoq boshlanganiga qaramay, u o'z metodikasi va mavzu qirralariga ko'ra (bugungi kunda ham) yangi yo'lchalardan sanaladi" (Avtoreferat, 5-bet). Darhaqiqat, "Sharq adabiyatining milliy adabiyotlari vaznlari, xususan, o'zbek aruzi va nasriy shunosligiga doir barcha muammolar ilmiy echimini topgan", deb bo'lmaydi. Ayniqsa, insoniyat tarixidagi yuksak tamaddun namunalari orasidan bo'lgan temuriylar davrida aruz ilmiga oid bir qator fundamental tadqiqotlar yaratilgan bo'lib, ularni o'zaro qiyosiy tadqiq qilish adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridandir. Buning bir necha misollari bor.

Birinchidan, aruz ilmiga oid manbalarning birontasi hozirga qadar mukammal tanqidiy matnga ega emas.

Aruz nazariyasi va amaliyotiga oid yaratilgan va yaratilayotgan adabiyotlarning aksariyati u yoki bu manba (ko'pincha "Mezon ul-avzon" yoxud "Muxtasar")ga tayanib yozilayotganligi uchun o'sha manbalardagi, ularning nashrlaridagi kamchiliklar takrorlanmoqda. Natijada, qoidalar, nomlanishlardagi tafovutlar yuzaga kelmoqda.

*) Ushbu dissertatsiya himoyasi 2019-yilning 30-noyabr sanasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent DO'TA universiteti huzuridagi DSc. 27.06.2017.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashda bo'lib o'tgan.

“Mezon ul-avzon”da:

“Batar” – “jabb” va “xarm” ijmoidur, mafoiylunda bas fo qolgʻay, faʼ aning oʻrnigʻa qoʻyarlur.

Demak ruboiy vaznlarining toʻrtinchi ruknlarida qatnashuvchi mazkur hodisa Navoiyning fikri boʻyicha ham zihof (batar) ham furuʼ (abtar), Bobur va Ahmad Taroziy maʼlumotlariga koʻra esa faqat furuʼ (axrami majbub yoxud axazzi mahzuf). Shunday ekan, ruboiy vaznini qanday nomlash kerak degan savol tugʻiladi. Avtoreferat matnidagi maʼlum boʻladiki, tadqiqotchi bu masalada Hazrat Navoiy fikrlariga tayangan. Biroq shu kabi holatlarga munosabat bildirilsa, tadqiqotning ilmiy qimmatini yanada oshgan boʻlar edi.

Umuman olganda, dissertatsiya avtoreferatining matni, unda ifodalangan fikr-mulohaza va tahlillar, himoyaga qoʻyilgan umumlashma xulosalar izchilligi, ilmiy asoslanganligi, ishonchlilik bilan eʼtiborga molik.

Avtoreferat bilan tinishish asnosida paydo boʻlgan ayrim mulohazalarni bildirishni joiz deb topdik:

1. Tadqiqotchining fikriga koʻra «Risolai aruz»da ham, «Mezon ul-avzon»da ham faqat 5 ta asliy ruknlarga mansub zihoflar taʼrifi beriladi, ikkala muallif ham arab aruziga xos boʻlgan ruknlarga toʻxtalmaydi (20-bet). Vaholanki, Boburning asarida arab sheʼriyatiga xos boʻlgan ruknlar (foilun, mafoilatun, mutafoilun)ning zihoflari ham qayd etilgan. Biroq ular alohida ruknlar tahlilida emas, umumiy nazariy qismda berilgan. Jumladan:

“Jamm aql bila xarmning ijmoidur, nechukkim **mafoilatun** foilun boʻlur, muni ajamm derlar”. Yoxud “Aqs naqs bila xarmning ijmoidur, nechukkim **mafoilatun** foʻaltu boʻlur, mafʼuvluni aning eriga qoʻyarlur, mugʻayyar ruknni aʼqas derlar” (21-bet) vahokazo.

2. Dissertatsiya avtoreferatining 24-betidagi (Bobur) “...ushbu baytni aruz tizimidagi **barcha bahrlar**(?)ga moslab oʻqish mumkinligi haqida soʻz yuritadi” jumlasini eʼtiroz tugʻdiradi. Zero barcha bahrlarda oʻqish mumkin boʻlgan sheʼr yoxud bayt mavjud emas. Bobur bu oʻrinda «Har kimning istilohdin vuqufi boʻlsa bilgaykim **necha vaznda** oʻqilur”, deb yozadi hamda shu baytni hazaj, ramal, rajaz, muzoreʼ va mujtass bahrlariga oid yigirmadan ortiq vaznga misol tariqasida keltiradi.

3. Aruz vaznini kvalitatif vaznlar, yaʼni urgʻuli vaznlar qatoriga qoʻshish (mutalavvin sanʼatiga tayangan holda) masalasi ham bizda

shubha uyg'otdi. Zero "urg'u" mohiyatan til birligidagi qismlardan birining boshqalariga ko'ra kuchliroq talaffuz etilishini nazarda tutadi. Aruzda esa rukndagi cho'ziq hijolar miqdori birdan ortiq bo'lishi mumkin.

Keltirilgan fikr-mulohazalar va juz'iy e'tirozlardan qat'i nazar ushbu tadqiqot bugungi adabiyotshunoslik, she'rshunoslik ilmi taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsata oladigan, birlamchi manbalar asosida olib borilgan fundamental izlanishlar mahsulidir. Uning muallifi filologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga munosib, deb o'ylaymiz hamda uning natijalari kengaytirilgan formatda ilmiy jamoatchilikning katta auditoriyasiga taqdim etilishini intiqlik bilan kutamiz.

SHAMS QAYSROZIY

Sharq she'rshunosligida muhim o'rin tutgan Shamsuddin Muhammad ibni Qays Roziy Eronning Ray shahrida tug'ilgan. U ilmi izlab Movarounnahr va Xurosonning bir qator shaharlarida, jumladan Xorazmda yashagan, 1205 yilda Buxoroga kelgan. «Al-Mo'jam'ul nashrga tayyorlovchi olim Urvatullo Toirovning fikricha, Buxoroga kelgan davrida Qays Roziyning yoshi 20-30 atrofida bo'lgan, binobarin XII asrning 80 yillarida tug'ilgan deb taxmin qilish mumkin»⁶⁵ Muhammad Xorazmshoh 1207 yili Buxoroni zabt etganida, Shams Qaysni saltanat poytaxti Xorazmga taklif etgan va 1207-1219 yillarda u Xorazmda shoh huzurida yashagan. Keyinchalik, mug'ullar istilosi ta'sirida 1219-1226 yillari Iroqqa hijrat qilgan. So'ngra Eronga kelib hukmdor Atobek Sa'd Zangiy xizmatida bo'lgan. Shams Qays donishmand va fozil inson bo'lganligi bois shohning yaqin kishisiga aylanadi. Sa'd Zangiy vafotidan keyin (1231) o'g'li Abubakr ibn Sa'd ham olimga zo'r ehtirom ko'rsatgani ma'lum.

Qays Roziy 1233-yilda «Al-Mo'jam fi ma'oyiri ash'or ul-ajami» («Ajam she'rlari andozalari lug'ati») asarini, keyinroq unga ilova tarzida «Tibyon ul-lug'ata-t-turki alo lison ul-ang'ali» («Turk tilining ang'ali tilidagi mufasssal bayoni»), «Al-uyub fi muqaffiy ash'oru-l-arab» («Arab qofiyasining ayblari») risolalarini yaratgan. Olimning barcha asarlari arab tilida bo'lgani uchun u Fors (Eron)ga kelgach, zamondoshlarining iltimosi bilan mashhur asari «Al-Mo'jam fi ma'oyiri ash'or ul-ajami»ni qo'shimchalar bilan fors tiliga o'giran.

Qays Roziy mazkur asarda she'riy ilmlar uchligi – aruz, qofiya va badiiy san'atlar haqida bahslashib, she'rning mezonini va uning vazifalari, qofiya va uning turlari, badiiy san'atlar va ularning tuslanishi, xillari haqida chuqur ilmiy-nazariy mulohazalar yuritgan. Mazkur asar muqaddima, ikki qism va xulosadan iborat. Asarning aruz ilmiga bag'ishlagan qismini muallif quyidagi 4 bobga ajratgan:

1. Aruz istilohining ma'nosi va ruknlar sharhi hamda ushbu fanga daxldor bo'lgan ilmiy ahli orasida amalda bo'lgan nomlar va laqablar haqida avvalgi bob.

⁶⁵ Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. Муаллифи сарсухану тавзеҳот ба хозиркунандан чоп Урватулло Тоиров. - Душанбе: Адиб, 1991. сах. 3. Ushbu manbadan olingan matnlarning sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

2. Aruz ruknlari tarkibidan hosil bo'ladigan ritmik bo'laklar va vuznlar zikrida ikkinchi bob.

3. Ritmik bo'laklardagi o'zgarishlardan hosil bo'luvchi foru'larning afo'iyli haqida uchinchi bob.

4. Qadimiy va yangi bahrlar zikri, doiralar naqshi, baytlarning taqte'i va bahr qismlarining bir-biridan farqlanishi to'g'risida to'rtinchi bob.

"Al-mu'jam"da muallif fors-tojik aruzining arab aruzidan farqli jihatlarini tadqiq va tahlil etadi. Jumladan, Xalil ibn Ahmad tomonidan yaratilgan beshta doiraning ba'zilar fors-tojik she'riyatiga xos bo'lmaganligi uchun, ularni qisqartiradi, xususan, tavi, madid, komil va volir bahrlaridan tuzilgan doiralarni fors-tojik aruzidan istisno qiladi. Uning fikricha, fors-tojik she'riyatini muayyan sistemaga solish uchun to'rtta aruz doirasi yetarlidir:

"Va chun bad-in muqaddimot bar ba'ze az tasarrufoti fosidi in jamoat dar taqriri buhur va sabti davoir vuquf aftod va tafsili xabtu g'ulati eshon dar in fann ma'lum shud, savob on ast, ki dar in abvob ba taqsimoti botilu tatviloti behosili eshon iltifot nanamoem va jumla buhuri ash'ori ajamro dar chahor doira nihem" [80]. (Bahrlar va doiralar zikrida oldingilarning ba'zi bir me'yor jihatdan buzilgan fikrlariga guvoh bo'lib, bu fan (aruz)da ularning xato va ko'r-ko'rona tavsiflari ma'lum bo'lganligi uchun, bu bobda ularning foydasiz uzundan-uzoq tasniflariga iltifot qilmaslik va barcha ajam she'riyatining bahrlarini to'rt doiraga joylashtirishni savob (foydali) deb bildik).

Taniqli aruzshunos Bahrom Sirus "Aruzi tojiki" kitobida arab va tojik aruzining munosabati haqida fikr yuritib, shunday yozadi: "Mazkur davr fors-tojik olim va shoirlari arab istilosidan oldingi she'riyat qonunlari saqlanib qolmaganligi sabab o'z tillarida she'r yozish uchun biror bir poetik qonuniyatlar tizimiga ega emasdilar. Shu sababdan ular istasa-istamasa o'sha davr yuqori tabaqa vakillari adabiyotida amalda bo'lgan, marsum (rasmiylashgan) va matbu' (ta'bga yaqin) bo'lgan arab aruzini yangidan, o'z tillarining fonetik xususiyatlariga muvofiqlashtirib qayta ishlab chiqishga majbur edilar. Ular arab aruziga ko'p o'zgartirishlar kiritib, hozirgi she'riyatimizga mos aruzni vujudga keltirdilarki, uni bu holatda arab aruzi emas, balki fors-tojik aruzi deb nomlash to'g'riroq bo'ladi".⁶⁶

⁶⁶ Баҳром Сирус. Арузи тоҷики. — Душанбе, 1963. Саҳ-16-17. (Matn o'zbek tiliga o'girildi).

Abdurauf Fitrat Bahrom Sirusdan 30 yillar oldin Shams Qays Roziy va uning aruzshunoslik maktabi fors-tojik she'riyatida o'ziga xos mustaqil aruz metrikasini joriy etganligini ta'kidlaydi: "Eronlilar arablardan nima olgan bo'lsa, aynan olmadi, o'zgartirib, unga o'z xususiyatlarini taqib oldi yoki olib taqdi...arab aruzining nisbatan umumiy qoidalarini, nazariy tomonlarini qabul qilishiga qaramasdan forsi(y) she'r vaznlarining muhim xususiyatlarini ham unga singdira boshladi. Shunday qilib, ayrim bir forsi(y) aruz maydonga qo'yuldi".⁶⁷

Abdurauf Fitrat fors-tojik aruzini arab aruzidan farqli ba'zi jihatlarini Shams Qaysning "Al-mu'jam" asariga tayangan holda ko'rsatib o'tadi va bu farqlar asosida Shams Qays birinchilardan bo'lib "ajam (fors-tojik) aruzi" atamasini ajratib adabiyotshunoslikda joriy etganini etirof etadi va turkiy adabiyotda aynan mana shu eroniy (fors)lar aruzi qabul qilinganini eslatib o'tadi: "O'rta Osiyo turkiy adabiyoti uchun qabul etilgan aruz mana shu eron adabiyotida ishlangan va Shams Qays kabi aruzchilar tomonidan "aruzi forsiy atalgan aruzdir".⁶⁸

Qays Roziy Xalil ibn Ahmad tomonidan yaratilgan Mushtabih doirasining o'rniqa fors-tojik bahrlaridan iborat bo'lgan ikki doira – Muxtalifa va Muntaziani yaratadi va o'zi ta'kidlagan 4 doiraga 14 bahrni joylashtiradi. Doiralarda bahrlar tasnifi shunday keltirilgan: Muxtalifa doirasi – munsarih, muzore', muqtazab, mujtass; Mo'talifa doirasi – hazaj, rajaz va ramal; Muttafiqa doirasi – mutaqorib va mutadorik; Muntazia doirasi – sare', g'arib, qarib, xafif, mushokil.

Qays Roziy ajam aruzida 35 zihofning mavjudligini, ulardan 22 tasi arab aruziga xos bo'lib, ajam she'riyati ham qo'llanishi, 13 tasi esa ajam aruziga xos ekanligini qayd etadi. Olim zihoflarning vujudga kelish usullarini izohlagan. Shuningdek, u "Al-mu'jam"dan oldingi kitoblarga kiritilmagan 16 zihofni alohida faslda sharhlaydi: "Va yana bir necha ism (atama) borkim, oldingi faslda ularning zikri va sharhi keltirilmagan edi, bu yerda sharhini keltiraylik. Ular o'n oltidir: xazm, muoqabat, sadr, ajz, turfon, bariy, muroqabat, solim, saheh, tom, mavfur, vofiy, mo'tadil, muarro, majzu, mashtur va manhuk" [60].

Qays Roziy ruboiy janrining kelib chiqish ta'rixi va vaznlari haqida ma'lumot bergan: "Va yake az mutaqaaddimoni shuaroai ajam ba

⁶⁷ Фитрат. Аруз хакида (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳамидулла Болтабоев). –Тошкент: Ўқитувчи, 1997. 25-26 бетлар.

⁶⁸ Shu kitob, 27-bet.

indoram Ro'dakiy az nav'i axramu axrabi bahr (Hazaj) vazne taxrij
ardaast, ki onro vazni ruboiy xonand" [95]. (Qadimgi ajam shoirlaridan
biri, fikrimcha, Ro'dakiy hazaj bahrining axram va axrab tarmoqlaridan
bir vaznni yaratganki, uni ruboiy vazni deb ataydilar).

Olimning fikricha, ikki shajara: axrab va axramdagi 24 xil vazn
ruboiy vaznlariga xosdir. Qays Roziy ruboiy vaznlarini Xalil ibn
Ahmaddan keyin paydo bo'lgan vaznlarning ichidan xushnavosi,
ko'ngilga yaqinrog'i deb hisoblaydi: "Darhaqiqat, Xalildan keyin
yaratilgan yangi o'lchov va vaznlar orasida hech biri bu kabi (ruboiy
vaznlari kabi) ko'ngilga yaqin va tab'ga xush yoquvchi emas. Va shunga
ko'ra, musiqa san'ati arboblari bu vaznda latofatli ohanglar yaratganlar"
[97]. Asarda muallif ruboiy vazni va uning shajaralarini chizmalarda
ko'rsatib, har bir vaznni o'zining va boshqa mumtoz shoirlarning ijodi
munmalari orqali ko'rsatib o'tadi.

Qays Roziy she'r yozishga azm etgan va shoirlik da'vosiga bel
bog'lagan kishi dastavval muxtasar aruz va qofiya ilmlarini mutolaa
qilishi, qadimiy va yangi vaznlardan voqif bo'lishi, vaznlarning
yoqimlisini yoqimsizidan farqlay olishi, mumkin va mumkin bo'lmagan
zihozlarni bilishi hamda sahiih (ishonchli, kamchiliksiz) baytni
nuqsonlisidan ajrata olishi lozim [354].

Ruboiy vaznlari.

Axrab shajarasi

	1 – rukn	2- rukn	3 – rukn	4 – rukn
1	Maf'uvlu	Mafo'ilun	Mafo'iylun	Fa'
	- - v	V - v -	v - - -	-
	Axrab	Maqbuz	Solim	Axrami majbul
2	Maf'uvlu	mafo'ilun	mafo'iylun	Fo'
	- - v	v - v -	v - - -	-
	Axrab	Maqbuz	Solim	Azall
3	Maf'uvlu	mafo'ilun	Mafo'iyu	Fa'ul
	- - v	v - v -	v - - v	v -
	Axrab	Maqbuz	Makfuf	Majbul
4	Maf'uvlu	mafo'ilun	Mafo'iyu	Fa'uv
	- - v	v - v -	v - - v	v -
	Axrab	Maqbuz	Makfuf	Axtam
5	Maf'uvlu	Mafo'iylun	Maf'uvlun	Fa'
	- - v	v - - -	- - -	-
	Axrab	Solim	Axram	Axrami majbul
6	Maf'uvlu	Mafo'iylun	Maf'uvlun	Fo'
	- - v	v - - -	- - -	-
	Axrab	Solim	Axram	Azall
7	Maf'uvlu	Mafo'iylun	Maf'uvlu	Fa'ul
	- - v	v - - -	- - v	v -
	Axrab	Solim	Axrab	Majbul
8	Maf'uvlu	Mafo'iylun	Maf'uvlu	Fa'uvl
	- - v	v - - -	- - v	v ~
	Axrab	Solim	Axrab	Axtam
9	Maf'uvlu	Mafo'iyu	Mafo'iylun	Fa'
	- - v	v - - v	v - - -	-
	Axrab	Makfuf	Solim	Axrami majbul
10	Maf'uvlu	Mafo'iyu	Mafo'iylun	Fo'
	- - v	v - - v	v - - -	-
	Axrab	Makfuf	Solim	Azall
11	Maf'uvlu	Mafo'iyu	Mafo'iyu	Fa'ul
	- - v	v - - v	v - - v	v -
	Axrab	Makfuf	Makfuf	Majbul
12	Maf'uvlu	Mafo'iyu	Mafo'iyu	Fa'uvl
	- - v	v - - v	v - - v	v ~
	Axrab	Makfuf	Makfuf	Axtam

Axram shajarasi

	1 – rukn	2- rukn	3 – rukn	4 - rukn
1	Maf'uvlun	Maf'uvlun	Maf'uvlun	Fa'
	- - -	- - -	- - -	-
	Axram	Axram	Axram	Axrami majbub
2	Maf'uvlun	Maf'uvlun	Maf'uvlun	Fo'
	- - -	- - -	- - -	~
	Axram	Axram	Axram	Azall
3	Maf'uvlun	Maf'uvlun	Maf'uvlu	Fa'ul
	- - -	- - -	- - v	v -
	Axram	Axram	Axrab	Majbub
4	Maf'uvlun	Maf'uvlun	Maf'uvlu	Fa'uvl
	- - -	- - -	- - v	v ~
	Axram	Axram	Axrab	Axtam
5	Maf'uvlun	Fo'ilun	Mafo'iylun	Fa'
	- - -	- v -	v - - -	-
	Axram	Ashtar	Solim	Axrami majbub
6	Maf'uvlun	Fo'ilun	Mafo'iylun	Fo'
	- - -	- v -	v - - -	~
	Axram	Ashtar	Solim	Azall
7	Maf'uvlun	Fo'ilun	Mafo'iylu	Fa'ul
	- - -	- v -	v - - v	v -
	Axram	Ashtar	Makfuf	Majbub
8	Maf'uvlun	Fo'ilun	Mafo'iylu	Fa'uvl
	- - -	- v -	v - - v	v ~
	Axram	Ashtar	Makfuf	Axtam
9	Maf'uvlun	Maf'uvlu	Mafo'iylun	Fa'
	- - -	- - v	v - - -	-
	Axram	Axrab	Solim	Axrami majbub
10	Maf'uvlun	Maf'uvlu	Mafo'iylun	Fo'
	- - -	- - v	V - - -	~
	Axram	Axrab	Solim	Azall
11	Maf'uvlun	Maf'uvlu	Mafo'iylu	Fa'ul
	- - -	- - v	v - - v	v -
	Axram	Axrab	Makfuf	Majbub
12	Maf'uvlun	Maf'uvlu	Mafo'iylu	Fa'uvl
	- - -	- - v	v - - v	v ~
	Axram	Axrab	Makfuf	Axtam

ARUZ ILMIGA OID MANBALAR

I. Ilk manbalar

1. Xalil ibn Ahmad «Kitob ul-ayn».
2. Mahmud Zamaxshariy «Al-qistos».
3. Abu Jaysh Andalusiy «Aruzi Andalusiy».
4. Abu Zikriyo Xatib Tabriziy «Al-kafi fil aruz val qavofiy».
5. Rashiddin Vatvot "Hadoyiq us-sehr".
6. Ibn Hojib "Ilm ul-aruz".
7. Shams Qays Roziy «Al-mo'jam fi maoyiri ash'oril ajam».
8. Sirojiddin Sakkokiy "Miftoh ul-ulum" (vaf. 1228 y). Atoulloh Husayniy ko'pincha shu manbaga murojaat etgan.
9. Nasiruddin Tusiy «Me'yor ul-ash'or».
10. Shayx Ahmad Taroziy «Funun ul-balog'a».
11. Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon».
12. Zahiriddin Muhammad Bobur «Muxtasar» («Aruz risolasi»).
13. Abdurahmon Jomiy «Risolai aruz».
14. Atoulloh Husayniy «Badoyi' us-sanoyi'».
15. Sayfiy Buxoriy «Aruzi Sayfiy».

II. Bosma manbalar

II.1. Xorijiy manbalar

1. Сирус Б. Арузи тоҷики. – Душанбе: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1963.
2. Стеблева И.В. О проникновении арабо-персидских метров в тюрко-язычную поэзию / Проблемы теории литературы и эстетики в странах Востока. – М.: Наука, 1964.
3. Курбатов Х.Р. Метрика «аруз» в татарском стихосложении // Советская тюркология. – № 6, 1973.
4. Жирмунский В. Введение в метрику. Теория стиха. – Л.: Советский писатель, 1975.
5. Жирмунский В. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. Избр. труды. – М.: Наука, 1979.
6. Чәфәр Ә. Әрузун нәзәри әсәсләры вә Азәрбајжан әрузу. – Бақы: Елм, 1977.
7. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X-XV вв.). – М.: Наука, 1989.

8. Фролов Д.В. Классический арабский стих. История и теория аруда. – М.: Наука. 1991.
9. Тоиров У. Фарҳанги истилоҳоти арузи аҷам. – Душанбе: Маориф, 1991.
10. Тоиров У. Становление и развитие аруза в теории и практике персидско-таджикской поэзии. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Душанбе, 1997.
11. Чалисова Н.Ю. Персидская поэзия на весах поэтики // Шамс Кайс Рази. Свод правил персидской поэзии. – М.: Восточная литература, 1997.
12. Солихов С. Аруз ва омузиши он. – Душанбе, 2005.
13. Наджибуллохи А. Аруз и соотношение метра и содержания в персидско-таджикской поэзии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2016.

II.2. O'zbek adabiyotshunosligi manbalari

1. Саъдий А. Амалий ва назарий адабиёт дарслари. – Т., 1925.
2. Фитрат А. Адабиёт коидалари / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изохлар муаллифи Ҳ. Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 1985.
3. Фитрат. Аруз ҳақида / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изохлар муаллифи Ҳ. Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 1997.
4. Султонов И. Навоийнинг «Мезон ул-авзон»и ва унинг критик тексти. Номз. ... дисс. – Т., 1947.
5. Мирзаев С. Навоий арузи. Номз. ... дисс. – Т., 1948.
6. Шомухамедов Ш.М. Форс-тожик арузи. – Т.: ТошДУ, 1970.
7. Рустамов А. Аруз ҳақида суҳбатлар. – Т.: Фан, 1972.
8. Талабов Э. Араб арузи. – Т.: ТошДУ, 1977.
9. Талабов Э. Араб шеърятисида аруз тизими. Филол.фан.докт. ... дисс. автореф. – Т., 2004.
10. Тўйчиев У. Арузшуносликка доир. – Т.: Фан, 1973. – Б. 42.
11. Тўйчиев У. Ўзбек шеър системалари. – Т.: Фан, 1981.
12. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т.: Фан, 1985.
13. Ҳасанов С. Бобурнинг «Аруз рисоласи». Филол.фан.номз. ... дисс. – Т., 1972.
14. Ҳасанов С. Бобурнинг «Аруз рисоласи» асари. – Т.: Фан, 1981.

15. Ҳоҷиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1978.
16. Ҳоҷиаҳмедов А. Аруз назарияси асослари. – Т.: 1982.
17. Ҳоҷиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарк, 1998.
18. Ҳоҷиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006.
19. Олимов М. Рисолаи аруз. – Т.: Ёзувчи, 2002.
20. Болтабоев Ҳ. «Рисолаи аруз» ва аруз ҳақида / Мумтоз суз
кадри. – Т.: Адабиёт ва санъат, 2004.
21. Болтабоев Ҳ. Шарк мумтоз поэтикаси. Манба ва талқини
– Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
22. Аъзамов А. Аруз. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси,
2006.
23. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz. – Sam.: SamDU nashri,
2010.
24. Shodmonov N. Aruz vazni asoslari. – Qarshi: Nasaf, 2012.
25. Зоҳидова Д. Аруз сабоқлари. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2016.
26. Yusupova D. Aruz alifbosi. – T., 2015.

**Fan bo'yicha nazariy ma'lumotlar va amaliy ko'nikmalarni
mustahkamlash uchun
TEST SAVOLLARI**

I. Aruzshunoslik, juzvlar, ruknlar

1. Aruz she'riy tizimining asoschisini aniqlang:
A. Xalil ibn Ahmad. B. Qutayba ibn Muslim.
S. Qays Roziy D. Alisher Navoiy
2. Turkiy tilda aruz nazariyasiga oid yaratilgan dastlabki manba:
A. "Me'yor ul-ash'or". B. "Funun ul-balog'a"
S. "Mezon ul-avzon" D. "Muxtasar".
3. Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida nechta bahr tahlil etilgan?
A. 16 ta. B. 18 ta. S. 19 ta D. 21 ta.
4. Boburning aruz nazariyasiga olib kirgan yangi bahrlarini belgilang:
A. Qarib va basit. B. Ariz va amiq.
S. Munsareh va muzore'. D. Mujtass va muqtazab.
5. Boburning "Muxtasar" asarini nashrga tayyorlagan olimni belgilang:
A. U.Toychiyev. B. S.Mitallibov. S. A.Hojiahmedov. D. S.Hasanov.
6. Navoiyning "Mezon ul-avzon" asari 20 tomlik MATning nechanchi tomida joylashgan?
A. 14-tomda. B. 15-tomda. S. 16-tomda. D. 17-tomda.
7. "O'zbek aruzi lug'ati" kitobining muallifini belgilang:
A. U.Toychiyev. B. S.Mitallibov. S. A.Hojiahmedov. D. S.Hasanov.
8. Aruz vaznida eng kichik juzv qanday nomlanadi?
A. Sabab. B. Vatad. S. Fosila. D. Hijo
9. Aruz vaznida eng katta juzv qanday nomlanadi?
A. Sabab. B. Vatad. S. Fosila. D. Hijo
10. Aruz vaznida necha xil juzv mavjud?
A. 2 xil. B. 3 xil. S. 4 xil. D. 5 xil
11. Fo'ilotun asl rukninig tarkibini belgilang:
A. Sababi xafif+vatadi majmu B. Vatadi majmu+sababi xafif+sababi xafif
S. Vatadi majmu+sababi xafif D. Sababi xafif+vatadi majmu+sababi xafif

12. Mafo'iyilun asl ruknining tarkibini belgilang:

- A. Sababi xafif+vatadi majmu B. Vatadi majmu+sababi xafif+sababi xafif
S. Vatadi majmu' + sababi xafif D. Sababi xafif+vatadi majmu+sababi xafif

13. Bayt so'zining lug'aviy ma'nosini toping

- A. Ustun. B. Uy. S. Qo'sh misra. D. Qism.

14. Rukn so'zining lug'aviy ma'nosini toping

- A. Ustun. B. Uy. S. Qo'sh misra. D. Qism.

15. Juzv so'zining lug'aviy ma'nosini toping

- A. Ustun. B. Uy. S. Qo'sh misra. D. Qism.

16. Ruknning o'lchovini ifodalovchi ma'nosiz so'zlar aruz ilmida nima deb nomlanadi?

- A. Paradigma. B. Afoiyl va tafoiylar. S. Juzvlar. D. Taqte'.

17. Hijolarning sifatini ifodalovchi shartli belgilar aruz ilmida nima deb nomlanadi?

- A. Paradigma. B. Afoiyl va tafoiylar. S. Juzvlar. D. Taqte'.

18. Asl ruknlarni belgilang:

- A. Fa'uvlun, mustaf'ilun, mufta'ilun. B. Fo'ilun, Foilotun, Maf'uvlotu.
S. Mafo'iyilun, Maf'uvlu, Fo'ilun. D. Barchasi asl ruknlar.

19. Asl ruknlarni belgilang:

- A. Fo'ilun, mustaf'ilun, mufta'ilun. B. Fa'uvlun, Foilotun, Mutafo'ilun.
S. Mafo'iyilun, Fa'ilun, Fo'ilun. D. Barchasi asl ruknlar.

20. Asl ruknlarni belgilang:

- A. Fa'uvlun, mustaf'ilun, mafo'ilatun. B. Fo'ilun, Foilotun, Mufta'ilun.
S. Mafo'iyilun, Maf'uvlun, Fo'ilun. D. To'g'ri javob yo'q.

II. Zihof va furu'lar, taqte'.

1. Asl ruknlarning o'zgarish usullari aruz ilmida qanday nomlanadi:

- A. Solim. B. Zihof. S. Furu'. D. Afoil.

2. Furu' nima?

- A. Asl ruknlarning o'zgarish usullari.
B. Asl ruknlarning o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan yangi ruknlar.
S. Ruknlarning paradigmasi.
D. Ruknlarning to'liq shakli.

1. "Solim" atamasini sharhlang:
 A. Asl ruknlarning o'zgarish usullari.
 B. Asl ruknlarning o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan yangi ruknlar.
 C. Ruknlarning paradigmasi.
 D. Ruknlarning to'liq shakli.
2. "Fa'ilotun" rukniga mos keladigan paradigmani aniqlang:
 A. V - - - B. V V - - C. - V - - D. V V V -
3. "Ma'f'uvlotu" rukniga mos keladigan paradigmani aniqlang:
 A. - V - - B. V - - V C. - - - V D. - V - V
4. "Mufta'ilun" rukniga mos keladigan paradigmani aniqlang:
 A. - V - - B. - V V - C. V V - - D. - - V -
5. "Foilotu" rukniga mos keladigan paradigmani aniqlang:
 A. V - - - B. - V - - C. V V - - D. - V - V
6. "Mafo'ilun" rukniga mos keladigan paradigmani aniqlang:
 A. V - - - B. V - V - C. - V - - D. V V - -
7. Baytdagi ruknlar soniga ko'ra farqlanuvcha aruz atamalarini belgilang:
 A. Mahzaf va maqsur. B. Hazaj yoki Ramal
 C. Musaddas yoki muxammas. D. Musaddas yoki musamman.
8. Quyidagi atamalardan qaysilari vazn nomida ishtirok etishi mumkin:
 1. Musallas 2. Murabba. 3. Muxammas. 4. Musaddas. 5. Musamman.
 A. 3, 4, 5. B. 1, 2, 4. C. 2, 4, 5. D. 3, 4, 5.
9. Shoir taxallusi baytning qaysi ruknida qo'llangan?
 G'rq etar bahri fano g'am zavraqin, ey piri dayr,
 Ilkiga chunkim Navoiy boda kishtisin olur.
 A. Sadr. B. Ibtido. C. Aruz. D. Hashv
10. Shoir taxallusi baytning qaysi ruknida qo'llangan?
 Ishq o'tida Lutfiy yuzi oltunni yashurdi,
 Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.
 A. Sadr. B. Ibtido. C. Aruz. D. Hashv
11. Shoir taxallusi baytning qaysi ruknida qo'llangan?
 Ey Navoiy boda birla xurram et ko'nglung uyin
 Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.
 A. Sadr. B. Ibtido. C. Ajuz. D. Hashv

14. Shoir taxallusi baytning qaysi ruknida qo'llangan?
Tilar el mansaboliy va lekin,
Atoyi sarvi ozodingga banda.
A. Sadr. B. Ibtido. S. Ajuz. D. Hashv
15. Ushbu baytda qaytarish usuli qaysi ruknlarda yuz berganligini aniqlang?
Zihi husnungning o'n sakkiz mingidin bir kelib olam,
Bu olam ichra bir uylik qulung Havvo bila Odam.
A. Sadr, Ibtido. B. Aruz, Ibtido. S. Aruz, Ajuz. D. Hashv, Ibtido
16. Ushbu baytda qaytarish usuli qaysi ruknlarda yuz berganligini aniqlang?
O'n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,
Ne ajab chun sarvinozim o'n sakiz yoshindadur.
A. Sadr, Ibtido. B. Aruz, Ibtido. S. Aruz, Ajuz. D. Sadr, Hashv,
17. Baytni ritmik bo'laklar – ruknlarga ajratish aruz ilmida nima deb nomlanadi?
A. Paradigma. B. Afoil va tafoillar. S. Juzvlar. D. Taqte'.
18. Bayt to'g'ri taqte' qilingan qatorni toping:
A. Ko'rgali hus / ningni zoru / muftalo bo'l / dum sango,
Ne balolig' / kun edikim / oshno bo'l / dum sango.
B. Ko'rgali / husningni / zoru mub / talo bo'l / dum sango,
Ne balo / lig' kun e / dikim osh / no bo'ldum / sango.
S. Ko'rgali hus / ningni zoru / muftalo bo'l / dum sango,
Ne balolig' / kun edikim / oshno bo'ldum / sango.
D. Ko'rgali / husningni zo / ru muftalo / bo'l dum sango,
Ne balo / lig' kun edi / kim oshno / bo'ldum sango.
19. Baytning boshi yoki o'rtasida kelgan o'ta choziq hijo qanday tahlil etiladi?
A. O'ta choziq belgisi (~) bilan belgilanadi.
B. Cho'ziq va qisqa (- V) hijoga ajratiladi.
S. Oxirgi harfi keyingi hijoga ko'chirilib choziq belgisi (-) bilan belgilanadi.
D. O'rni bilan B yoki S.
20. Undosh tovush bilan tugagan choziq hijoni qisqa hijoga aylantirish mumkinmi?
A. Mumkin emas.
B. Mumkin, agar keyingi hijo unli tovush bilan boshlangan bo'lsa.
S. Mumkin, agar keyingi hijo undosh tovush bilan boshlangan bo'lsa.
D. Har qanday holatda ham mumkin.

III. Bahrlar.

1. "Bahr" so'zining lug'aviy ma'nosini aniqlang:
A. Vaznlar to'plami. B. Dengiz. S. Bahra. D. O'lchov

4. Mustaf'ilun ruknining takrorlanishidan qaysi bahr hosil bo'ladi?
 A. Hazaj. B. Ramal. S. Rajaz. D. Mutaqorib.
5. Mafo'iyun ruknining takrorlanishidan qaysi bahr hosil bo'ladi?
 A. Hazaj. B. Ramal. S. Rajaz. D. Mutaqorib.
6. Fo'ilotun ruknining takrorlanishidan qaysi bahr hosil bo'ladi?
 A. Hazaj. B. Ramal. S. Rajaz. D. Mutaqorib.
7. Fa'uvlun ruknining takrorlanishidan qaysi bahr hosil bo'ladi?
 A. Hazaj. B. Ramal. S. Rajaz. D. Mutaqorib.
8. Sodda bahrlarni belgilang:
 A. Hazaj, Ramal, Sari' B. Rajaz, Mutaqorib, Ramal.
 B. Mujtass, Munsareh, Muzore'. D. Ramal, Mujtass, Hazaj,
9. Murakkab bahrlarni belgilang:
 A. Hazaj, Ramal, Sari' B. Rajaz, Mutaqorib, Ramal.
 B. Mujtass, Munsareh, Muzore'. D. Ramal, Mujtass, Hazaj,
10. "Fa'uvlun" rukni:
 A. Mutaqorib bahrining solim shakli. B. Hajaj bahrining mahzuf shakli
 B. Hazaj bahrining maqsur shakli. D. A va B javoblar to'g'ri.
11. "Fo'ilon" rukni:
 A. Mutadorik bahrining solim shakli. B. Ramal bahrining mahzuf shakli
 B. Ramal bahrining maqsur shakli. D. A va B javoblar to'g'ri.
12. Qaysi hukm to'g'ri:
 1. Myayyan asar ikki yoki undan ortiq bahrda yozilishi mumkin.
 2. Myayyan asar bir bahr doirasida ikki yoki undan ortiq vaznda yozilishi mumkin.
 3. Aruz tizimida she'rning barcha misralari doimo bir xil vaznda bo'ladi.
 A. 1, 2, 3. B. 1, 2. S. Faqat 3. D. Faqat 2.
13. Qaysi hukm noto'g'ri:
 1. Myayyan asar ikki yoki undan ortiq bahrda yozilishi mumkin.
 2. Myayyan asar bir bahr doirasida ikki yoki undan ortiq vaznda yozilishi mumkin.
 3. Aruz tizimida she'rning barcha misralari doimo bir xil vaznda bo'ladi.
 A. 1, 2, 3. B. 1, 3. S. Faqat 3. D. Faqat 1.
14. Mutaqorib bahrida yozilgan baytni aniqlang:
 A. Sango ul turrayi hindu,
 Mango solmish qaro qayg'u.

- B. Navosiz ulusning navobaxshi bo'l,
Navoiy yamon bo'l sa sen yaxshi bo'l.
- S. Nazmu nasrim kotibi taxminshunos,
Yozsa yuz ming bay-t etar erdi qiyos.
- D. Dayru haramda sar-basar ul yuzdin istarlar xabar,
Ko'p ham nizo' etma agar ul der samad, bul der sanam.

13. Hazaj bahrida yozilgan baytni aniqlang:

- A. Sango ul turrayi hindu,
Mango solmish qaro qayg'u
- B. Navosiz ulusning navobaxshi bo'l,
Navoiy yamon bo'l sa sen yaxshi bo'l.
- S. Nazmu nasrim kotibi taxminshunos,
Yozsa yuz ming bay-t etar erdi qiyos.
- D. Dayru haramda sar-basar ul yuzdin istarlar xabar,
Ko'p ham nizo' etma agar ul der samad, bul der sanam.

14. Ramal bahrida yozilgan baytni aniqlang:

- A. Sango ul turrayi hindu,
Mango solmish qaro qayg'u
- B. Navosiz ulusning navobaxshi bo'l,
Navoiy yamon bo'l sa sen yaxshi bo'l.
- S. Nazmu nasrim kotibi taxminshunos,
Yozsa yuz ming bay-t etar erdi qiyos.
- D. Dayru haramda sar-basar ul yuzdin istarlar xabar,
Ko'p ham nizo' etma agar ul der samad, bul der sanam.

15. Rajaz bahrida yozilgan baytni aniqlang:

- A. Sango ul turrayi hindu,
Mango solmish qaro qayg'u
- B. Navosiz ulusning navobaxshi bo'l,
Navoiy yamon bo'l sa sen yaxshi bo'l.
- S. Nazmu nasrim kotibi taxminshunos,
Yozsa yuz ming bay-t etar erdi qiyos.
- D. Dayru haramda sar-basar ul yuzdin istarlar xabar,
Ko'p ham nizo' etma agar ul der samad, bul der sanam.

16. Ushbu vazn afo'illari qaysi bahrga tegishli ekanligini aniqlang:

Ma'uvlu mafo'ilun fa'uvlun

Ma'uvlu mafo'ilun fa'uvlun

- A. Hazaj bahri. B. Ramal bahri. S. Rajaz bahri. D. Mutaqorib bahri.

17. Ushbu vazn afo'llari qaysi bahrga tegishli ekanligini aniqlang:
Fa'ilotun fa'ilotun fa'ilun
Fa'ilotun fa'ilotun fa'ilun
A. Hazaj bahri. B. Ramal bahri. S. Rajaz bahri. D. Mutaqorib bahri.
18. Ma'uvlotu asl rukni qaysi bahrlarni hosil qilishda ishtirok etadi?
A. Alohida bahr hosil qiladi. B. Ishtirok etmaydi
S. Munsarihi, Muqtazab, Sari` bahrlari D. Mujtass, Sari`, Xafif bahrlari
19. Asl ruknlardan nechitasi alohida bahrlar hosil qilishda ishtirok etadi?
A. Barchasi. B. 5 tasi. S. 6 tasi. D. 7 tasi
20. Ushbu vaznning afoili to'g'ri berilgan qatorni toping:
Hazaji musammani sadru ibtido axrab, hashvayn makfuf, aruz va zarb mahzuf
A. Ma'uvlu mafo'iylu mafo'iylu fa'uvlun
B. Ma'uvlu mafo'iylu mafo'iylu mafo'iyl
S. Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun fa'uvlun
D. Ma'uvlu mafo'ilun mafo'iylu fa'uvlun

IV. Aruz va mumtoz she'riy janrlar

1. O'zbek mumtoz she'riyatida qaysi janrlarning maxsus vaznlari mavjud?
A. G'azal, ruboiy, tuyuq. B. G'azal, ruboiy, mustazod.
S. Ruboiy, tuyuq, qit'a. D. Ruboiy, tuyuq, mustazod.
2. O'zbek mumtoz she'riyatida qaysi janrlarning maxsus vaznlari mavjud emas?
A. G'azal, ruboiy, qit'a. B. G'azal, qit'a, musammatlar.
S. Fard, tuyuq, qit'a. D. Ruboiy, tuyuq, mustazod.
3. Ruboiy janri qaysi vaznda yoziladi?
A. Hazaj bahrining istalgan vaznida
B. Hazaj bahrining axrab va axram ruknlari bilan boshlanuvchi istalgan vaznida
S. Hazaj bahrining axrab va axram ruknlari bilan boshlanuvchi 24 xil vaznida
D. Ruboiy janrining vazni chegaralanmagan.
4. O'zbek she'riyatida ruboiy janrining qaysi shajarasi ko'proq qo'llanadi?
A. Axrab shajarasi B. Axram shajarasi
S. Ikkala shajara ham. D. To'g'ri javob yo'q.
5. Mustazod janri qaysi bahrda yoziladi?
A. Hazaj. B. Ramal. S. Istalgan bahr. D. A va B.
6. Tuyuq janrining asosiy belgisi nima?
A. Vazn. B. Tajnisli qofiya. S. Mavzu. D. Misralar soni

7. Tuyuq janri qaysi vaznda yoziladi?

- A. Ramali musaddasi mahzuf. B. Ramali musammani maqsur
S. Ramali musaddasi maqsur. D. A va S.

8. Quyidagi she'rning janrini belgilang:

Qarilar xotiri nozuktur, ey tifi,
Shikastidin qilib vahm, o'lma gustoh.
Unuttungmuki, atfol o'ynag'anda,
Sinar oz mayl ko'rgandin qurug' shox.

- A. Ruboiy. B. Qit'a. S. Tuyuq. D. Murabba'

9. Quyidagi she'rning janrini belgilang:

No'sh aylar emish qadahni jonona to'la,
Soqiy, manga tut jomi harifona to'la,
Quy, gar xud erur sipehr paymona to'la,
Har nechaki, xoli etsam, et yona to'la.

- A. Ruboiy. B. Qit'a. S. Tuyuq. D. Murabba'

10. Quyidagi she'rning janrini belgilang:

Ul pariy ishqida bu devonani,
Eyki istarsen, kelib gulxanda ko'r.
Bir qadah ul gulni xandon ayladi,
Ey ko'ngul, nazzora qil, gul xanda ko'r.

- A. Ruboiy. B. Qit'a. S. Tuyuq. D. Murabba'

11. Quyidagi bayt Navoiy "Xamsa"sining qaysi dostoniga tegishli ekanligini aniqlang:

Kel ey toleyi sa'du baxti baland,
Ki sizdin bo'lur odamiy arjumand.

- A. "Hayrat ul-abror". B. "Farhod va Shirin".
S. "Layli va Majnun" D. "Saddi Iskandariy"

12. Quyidagi bayt Navoiy "Xamsa"sining qaysi dostoniga tegishli ekanligini aniqlang:

Ey ishq, ajiyb kimiyosen.
Bal oinayi jahonnamosen.

- A. "Hayrat ul-abror". B. "Farhod va Shirin".
S. "Layli va Majnun" D. "Saddi Iskandariy"

13. Quyidagi bayt Navoiy "Xamsa"sining qaysi dostoniga tegishli ekanligini aniqlang:

Ulki kishi o'lmagidin shod erur,
Go'rganu g'osilu jallod erur.

- A. "Hayrat ul-abror". B. "Farhod va Shirin".

S. "Sab'ayi sayyor"

D. "Saddi Iskandariy"

14. Quyidagi bayt Navoiy "Xamsa"sining qaysi dostoniga tegishli ekanligini aniqlang:

Ey siposing demakda el tili lol,

Elga til sendin o'ldi tilga maqol.

A. "Hayrat ul-abror".

B. "Farhod va Shirin".

S. "Sab'ayi sayyor"

D. "Saddi Iskandariy"

15. Quyidagi bayt Navoiy "Xamsa"sining qaysi dostoniga tegishli ekanligini aniqlang:

Kishi ishqida zor o'lmoq bu bo'lg'ay,

G'midin beqaror o'lmoq bu bo'lg'ay.

A. "Hayrat ul-abror".

B. "Farhod va Shirin".

S. "Sab'ayi sayyor"

D. "Saddi Iskandariy"

16. Quyidagi baytning manbaini aniqlang (vazni asosida):

Rasul "Erni o'tqa yuzun atquchi,

Til ul", dedi, yig' til, yul o'ttin o'zung.

A. "Muhabbatnoma".

B. "Lison ut-tayr".

S. "Yusuf va Zulayho"

D. "Hibat ul-haqoyiq"

17. Quyidagi baytning manbaini aniqlang (vazni asosida):

Nasr edi ul qissa dag'iy pors,

Erdi anga jon ko'zi nazzorasi.

A. "Muhabbatnoma".

B. "Lison ut-tayr".

S. "Yusuf va Zulayho"

D. "Hibat ul-haqoyiq"

18. Quyidagi baytning manbaini aniqlang (vazni asosida):

Umidim shuldurur sendin nigoro,

Unutma bandani bahri xudoro.

A. "Muhabbatnoma".

B. "Lison ut-tayr".

S. "Yusuf va Zulayho"

D. "Hibat ul-haqoyiq"

19. Quyidagi baytning manbaini aniqlang (vazni asosida):

Jon qushi chun mantiqi roz aylagay,

Tengri hamdi birla og'oz aylagay.

A. "Muhabbatnoma".

B. "Lison ut-tayr".

S. "Yusuf va Zulayho"

D. "Hibat ul-haqoyiq".

20. "Xamsa" tarkibida qaysi bahrlar mavjud?

A. Hazaj, Mutaqorib, Sari'.

B. Ramal, Xafif, Sari'.

S. Hazaj, Ramal, Sari'.

D. Mutaqorib, Sari', Ramal.

GLOSSARIY

(izohlli lug'at)

Abjad – I. Tarixiy sanalarni ifodalashning Sharq xalqlari orasidagi o'ziga xos usuli. Unda sanalar raqamlar bilan emas, harflar yoki harflar ishtirokida hosil bo'luvchi so'z va jumlar vositasida ifodalanadi. Abjad hisobida harflarning maxsus tartibi mavjud. 28 ta harf jami sakkierta so'zda jamlanadi. Bular: abjad, havvaz, huttiy, kalaman, sa'fas, qarashat, saxxaz, zazag'. Raqamlar 1 dan 9 gacha, 10 dan 90 gacha, 100 dan 1000 gacha har bitta harfga biriktiriladi.

II. Abjad hisobida harflar tartibidagi dastlabki to'rtta harfni (alif, be, jim va dol) ifodalovchi so'z.

Afo'iyl va tafo'iylar – Aruzda so'z va jumalarning vazmini ifodalash uchun qo'llanuvchi maxsus so'zlar. A. lar "fa'ala" so'zidan hosil qilinadi, lug'aviy ma'noga ega emas.

Ajuz – q. Zarb.

Amiq – aruz vaznlar tizimidagi bahlardan biri. *Mafo'iylun va fa'uvlun* ruknlarining takrorlanishidan hosil bo'ladi.

Ariz – aruz vaznlar tizimidagi bahlardan biri. *Fo'ilun va fo'ilotun* ruknlarining takrorlanishidan hosil bo'ladi.

"Yana ikki bahrkim Ariz bila Amiqdur, tavil doirasidin hosil bo'lur, ul g'ayri mashhurur".

"Muxtasar".

Aruz – I. She'riy vaznlar tizimi. VIII asrda arab filologi Xalil ibn Ahmad tomonidan asos solingan. O'zbek mumtoz she'riyatining asosiy vazni. O'zbek adabiyotiga XI asrdan boshlab kirib kelgan. Aruzda yozilgan dastlabki asar Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni. Aruz vaznida hijolar sifati ya'ni cho'ziq yoki qisqaligining muayyan tartibda takrorlanishiga asoslaniladi.

1. Arabiston yarim orolida jaylashgan bir vodiyning nomi bo'lib, u vodiydagi kishilarning asosiy mashg'uloti vaqtinchalik uy-chodir tikib sotishdan iborat. Aruz tizimidagi atamalarining ko'pchiligi shu vodiylar xalqining urf-odatlariga, ashyolari nomidan olingan.

2. Uyning (chodirning) asosini tashkil etuvchi ustunlar-ruknlardan birining nomi. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra vaznning nomi aynan shu so'zdan olingan.

3. Qays Roziy "Al-Mu'jam" asarida mazkur atamaning etimologiyasini "arz qilmoq" so'zi bilan bog'lagan.

II. Baytdagi ruknlardan birining maxsus nomi. Birinchi misraning oxirgi rukni.

Aruzvoriy - Navoiyning "Mezon ul-avzon"ida **hazaji musammani solim** vaznida yozilgan g'azallarga bitilgan qo'shiqlar (surud) shu atama bilan nomlanadi.

Asllar (ko'pligi **usul**) - Juzvlarni turli tartibda qo'shish natijasida Xalil ibn Ahmad tomonidan hosil qilingan dastlabki ruknlar. Asllar sakkizta: Fa'uvlun, Fo'ilun, Mafo'iylun, Fo'ilotun, Mustaf'ilun, Ma'uvlotu, Mutafoilun, Mafoilatun.

Bahr - (arabcha - dengiz, ko'pligi buhur) Aruz tizimida ruknlarning takroridan hosil bo'luvchi vaznlar turkumi. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida o'n to'qqizta, Boburning "Muxtasar"ida esa "ariz" va "amig" bahrlari bilan birga yigirma bitta bahr keltirilgan.

Bayt (ko'pligi **abyot**) - I. Arab tilida uy ma'nosini ifodalaydi. Xalil Ibn Ahmad she'rning eng kichik qismini ham shu so'z bilan nomlagan.

II. Ikki misradan iborat bo'lgan she'r bo'lagi.

Basit - aruz vaznlar tizimidagi bahrlardan biri. *Mustaf'ilun* va *fo'ilun* ruknlarining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Xalil ibn Ahmad tomonidan yaratilgan mazkur bahr arab she'riyatiga xos deb qaralgan.

Doira - Aruz metodikasida bahrlarni yaxshi tushunish va eslab qolish uchun bir-biriga yaqin bo'lgan bahrlar kiritiladigan chizma. Unda misra, uning afo'iylari hamda bahr nomlari kiritiladi. Misrani qaysi so'zdan boshlab o'qishga ko'ra turli bahrlar hosil bo'ladi.

"Aruziylar buhur (bahrlar)ning tafkiki uchun doira rasm qilurlar. Ul doiraning gardida vazn, vazn bahrikim o'zga buhur andin fakk bila hosil bo'lur, satrlar ul vaznning ruknlarining har qaysi juzvidin qaysi bahr hosil bo'lurini ko'rsaturlar".

"Muxtasar".

Doirai mujtaliba - Xalil ibn Ahmad yaratgan doiralardan biri (lug'aviy ma'nosi jalb etuvchi, o'ziga tortuvchi). Mazkur doira *hazaj*, *rajaz*, *ramal* bahrlarini birlashtiradi.

Doirai mujtamia - Aruz doiralaridan biri bo'lib, *sare'*, *jadid*, *qarib*, *munsareh*, *xafif*, *muzore'*, *muqtazab*, *mujtass*, *mushokil* bahrlarini birlashtiradi. Manbalarda bu doira Alisher Navoiy tomonidan yaratilganligi qayd etiladi.

"Bu mazkur bo'lgan to'qquz asl bahrning solimini...bir dairai azimada jam' qilib, har birining o'mig'a alohida misol kelturub,

to'qqiztasini yana bir misra'din ham istixroj qilib, ul "*Doirai muftamisa*" deyildi va bu doira rasmi zamon zurafosidin ba'zining xayoliy'a keldi erdi, ammo faqir anga tartib berdim".

"Mezon ul ayzen"

Biroq Boburning fikricha, bu doirani Xo'ja Nosir "Me'yor ul ash'or"da "*Doirai mushtabihai solim*" nomi bilan keltirgan.

Doirai munfarida - Xalil ibn Ahmad yaratgan doiralardan biri (lug'aviy ma'nosi yakka, yolg'iz, yagona). Mazkur doira *mutaqarib* bahridan tashkil topgan.

Doirai muntazi'a - Shams Qays Roziy tomonidan yaratilgan aruz doiralariidan biri. Mazkur doira *qarib*, *xafif*, *mushokil*, *sari'*, *jahid* bahrlarini birlashtiradi.

Doirai muttafiqa - Xalil ibn Ahmadning izdoshi Abulhasan Axfash Balxiy tomonidan yaratilgan aruz doiralariidan biri (lug'aviy ma'nosi birlashgan, hamroh bo'lgan). Mazkur doira *mutaqarib* (fa'uvlun), *mutadorik* (fo'ilun) bahrlarini birlashtiradi.

Doirai muxtalifa - Shams Qays Roziy tomonidan yaratilgan aruz doiralariidan biri. Bu doirada olim *munsarih*, *muzori'*, *muqtazab* va *mujtass* bahrlarini birlashtirgan.

Doirai mushtabiha - Xalil ibn Ahmad yaratgan doiralardan biri (lug'aviy ma'nosi o'xshash). Mazkur doira *sari'*, *munsarih*, *xafif*, *muzori'*, *muqtazab*, *mujtass* bahrlarini birlashtiradi.

Doirai mu'talifa - Xalil ibn Ahmad yaratgan doiralardan biri. Mazkur doira *vofir* va *komil* bahrlarini birlashtirgan.

Fosila - (arabcha maydon, palos) Aruz tizimidagi *juzv*lardan birining nomi. To'rt va besh harfli *juzv*. Fosila ikki xil bo'ladi:

1. Fosilai sug'ro (kichik fosila) - uch harakatli va bir sokin harfdan iborat.

2. Fosilai kubro (katta fosila) - to'rt harakatli va bir sokin harfdan iborat.

Fozila - ayrim manblarda ("Aruzi Sayfiy") aruz tizimidagi *juzv*lardan birining nomi. Ikki turga bo'linadi:

1. Fozilai sug'ro - besh mutaharrik (harakatli) va bir sokin harfdan iborat *juzv* bo'lib, to'rt qisqa bir cho'ziq *hijo* (VV VV -)ni ifodalaydi.

2. Fozilai kubro - olti mutaharrik va bir sokin harfdan iborat *juzv* bo'lib, besh qisqa, bir cho'ziq *hijo* (VVVVV -)ni ifodalaydi (Bu haqda qarang: Toirov U. Farhangi istilohoti aro'zi Ajam. - Dushanbe: Maorif, 1991. - S. 418.).

«Ikki harfli juzvni sabab deb, uch harfli juzvni vatad deb, to'rt harfli juzvni fosila deb va besh harfli juzvni *fozila* deb atadilar...».

“Aruzi Sayfiy”.

Furu' – aruz ilmida solim ruknlarning turli tarzda o'zgartirishi (*qur'ang zihof*) natijasida hosil bo'ladigan tarmoq ruknlar.

"Bilginki har tag'ayyurkim usul'ga kirar ani "zihof" derlar. Ul rukni mug'ayyarni muzohafu furu' derlar".

“Muxtasar”.

Hazaj – Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Hazaj** bahri **mafo'iy**lun ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning ikki shakli dostonchilikda qo'llanadi

I. Hazaji musaddasi mahzuf (maqsur) (Mafo'iy¹lun mafo'iy²lun fa'uv³lun (mafo'iy⁴l)). Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni tufayli shuhrat qozongan bu vazn "Xamsa"lardagi ikkinchi dostonlarga xos bo'lib, unda ishqiy-sarguzasht sujetlar bayon etiladi. Amir Xusrav Dehlaviyning "Shirin va Xusrav", Jomiyning "Yusuf va Zulayho", Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonlari ham shu vaznda yozilgan. Mazkur vazn turkiy adabiyotda keng iste'molda bo'lgan. Jumladan, Xorazmiy "Muhabbatnoma"si va uning naziralari, Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z" dostonlari shu vaznda yozilgan.

II. Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maqsur) (Ma'uv¹lu mafo'iy²lun fa'uv³lun (mafo'iy⁴l)). Xamsalarning uchinchi dostonlari shu vaznda bo'lib, ko'proq ishq iztiroblari, dard va mahzun ohanglarni ifodalashga mo'ljallangan. Nizomiy, Amir Xusrav, Jomiy va Alisher Navoiyning Layli va Majnun haqidagi dostonlari, Hoju Kirmoniyning "Gavharnoma"si shu vaznda yozilgan.

Harakatli harf – Qisqa unlilar (a, i, u) bilan qo'shib talaffuz qilinuvchi harflar. Masalan: ka-ra-mi, sa-ma-ra.

Hijriy yil hisobi – musulmon davlatlarida amalda bo'lgan yil hisobi. Muhammad (a.s.)ning Makkadan Madinaga hijrat qilgan (ko'chib o'tgan) yillaridan (melodiy 622-yil) boshlab hisoblanadi. *Hijriy yil hisobi* oy kalendariga, ya'ni Oyning Yer atrofidagi davriy harakatiga asoslanadi. Bunda Oyning bir aylanishi (29-30 kun) bir oy, 12 aylanishi bir yil deb hisoblanadi. *H. y. h.*da bir yil 354-355 kunga teng keladi. Shuning uchun har 33 yilda *H. y. h.* melodiy yil hisobidan 1 (bir) yil oldinga o'tadi. Hijriy sanani melodiy sanaga quyidagi amal bilan o'tkazish mumkin: $M = (H - H / 33) + 622$. Bunda H -hijriy, M -melodiy yil.

Hashv (hashvayn) - Aruz vaznida baytdagi ruknlarning nomi. Birinchi va ikkinchi misralarning o'rtadagi ruknlari.

Ibtido - (arabcha - boshlanish). Aruz vaznida baytdagi ruknlarning birining maxsus nomi. Ikkinchi misraning birinchi rukni.

Imola - Taqte' ilmida qisqa hijoni cho'ziq hijoga yoxud cho'ziq hijoni o'ta cho'ziq hijoga aylantirish uchun unli tovushni cho'ziq talaffuz etish hodisasi.

Juzv - Arab tilida qism ma'nosini bildirib, jonsiz predmetlarga nisbatan qo'llanadi. Aruz she'riy tizimida arab alifbosi'dagi harflar (fatha, kasra, zamma) yoki sokin harflarning birga qo'llanishidan hosil bo'ladigan *rukn*ning kichik bo'lagi. Juzvlar uch xil: *sabab*, *qasid* va *fosila*.

Jadid - (arabcha *yangi*) *Muttafiq ul-arkon* guruhiga kiruvchi qasid bahrilaridan biri bo'lib, *fo'ilotun fo'ilotun mustaf'ilun* ruknlaridan hosil bo'ladi. Mazkur bahr Xalil ibn Ahmadning izdoshi Abulhasan Ali ibn Balxiy tomonidan kiritilgan. Musaddas (oltilik) bahrilar tarkibiga kirib, Arab she'riyati (aruzi arab)ga xos bo'lgan bahlrlardan.

Komil - Xalil ibn Ahmad tomonidan yaratilgan *Muttafiq ul-arkon* bahlrlardan biri. *Mutafo'ilun* ruknining takrorlanishidan hosil bo'lgan Arab she'riyati (aruzi arab)ga xos bo'lgan bahlrlardan.

Kvantitativ vaznlar - (nemischa "miqdor"). Misralardagi harflar va qisqa hijolarning muayyan tartibda takrorlanishiga asoslaniladigan she'riy tizimlar. Bunday vaznlar manbalarda metrik (metri o'lchov) vaznlar nomi bilan ham yuritiladi. Hind, arab, fors-tojik, grek va yunon she'riyatidagi vaznlar, shu jumladan, aruz ham kvantitativ she'riy tizimlar sirasiga kiradi.

Kvalitativ vaznlar (lotincha "sifat, urg'uli"). Misralardagi hijolar miqdorining tengligi, urg'ularning muayyan tartibiga asoslaniladigan she'riy tizimlar. Shunga ko'ra ular uchta asosiy guruhni tashkil etadi.

1. Sillabik (bo'g'in) - bo'g'inlar yoki hijolar sonining tengligiga asoslanuvchi vaznlar.

2. Tonik (urg'u) - urg'uli bo'g'inlarning muayyan tartibiga asoslanuvchi vaznlar.

3. Sillabik-tonik (bo'g'in-urg'u) bo'g'in va urg'ularning miqdori hamda muayyan tartibiga asoslanuvchi vaznlar.

Rus, fransuz, polyak, serb va boshqa xalqlar she'riyati, shu jumladan, o'zbek she'riyatidagi barmoq she'riy tizimi kvalitativ she'riy tizimlar sirasiga kiradi.

Madid - Aruz vaznlar tizimidagi bahrlardan biri. *Fo'ilotun* va *Mustaf'ilun* ruknlarining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Xalil ibn Ahmad *Mustaf'ilun*dan yaratilgan mazkur bahr arab she'riyatiga xos deb qaralgan.

Masnaviy - (arabcha "ikki" sanoq sonini bildiruvchi "isnani" so'zidan yasalgan bo'lib ikkilik ma'nosini ifodalaydi). Sharq mumtoz she'riyatida har juft misra o'zaro butunlikni hosil qiluvchi, ya'ni qat'iyatlanuvchi she'riy shakl. O'rta asrlarda yirik hajmli dostonlarga nisbatan ham, ikkilik shaklida yozilgan kichikroq hajmdagi she'rlarga nisbatan ham masnaviy atamasi qo'llangan. Hozirgi adabiyotshunoslikda masnaviy janr va she'riy shakl ma'nosida qo'llanadi.

Mufrad zihoflar - (arabcha yakka, yolg'iz) faqat bir amal bilan o'zgarishga uchraydigan zihoflar. Bularga *qabz*, *qasr*, *hazf*, *salm*, *qat'*, *qab*, *kaff*, *xarm*, *hazaz*, *tash'is*, *tasbig'*, *tazyil*, *tayy*, *asb*, *tarfil*, *izmor*, *saql*, *kashf*, *ssalm*, *jabb*, *raf'*, *jazm* (*xazm*), *g'azb* kiradi.

Muhabbatnoma - "Va yana ham turk ulusida bir surud (qo'shiq)durkim, ani "Muhabbatnoma" derlar va ul hazaji musaddasi ushbu bahridadur va holo matrukdur".

"Mezon ul-avzon".

Mujtass - aruz tizimidagi *muxtalif ul-arkon* bahrlardan biri fors-turk va turkiy she'riyatda eng ko'p qo'llangan bahrlardan biri. *Mustaf'ilun* va *fo'ilotun* ruknlarining qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Munsareh - aruz tizimidagi *muxtalif ul-arkon* bahrlardan biri. *Mustaf'ilun* va *maf'uvlotu* ruknlarining qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Muqtazab - aruz tizimidagi *muxtalif ul-arkon* bahrlardan biri. *Munsareh* bahrining teskari tartibi ya'ni *maf'uvlotu* va *mustaf'ilun* ruknlarining qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Murabba' - (arabcha to'rtlik) 1. Baytdagi ruknlar soniga ko'ra farqlanuvchi vazn shakllaridan biri. Bir baytda to'rtta rukn qo'llanadigan vaznlarning nomi.

4. Banddagi misralar soniga ko'ra farqlanadigan *musammata* she'riy shakllaridan biri. Har bandi to'rt misradan iborat.

Murakkab bahr - *muxtalif ul-arkon* ya'ni ikki xil asl ruknning qo'shilishidan hosil bo'ladigan bahrlarga nisbatan qo'llanadigan atama.

Murakkab zihoflar - (arabcha tarkibli) ikki va undan ortiq amal bilan o'zgarishga uchraydigan zihoflar. Masalan: *sarm*, *xarb*, *shatr*, *hajf* (*jahf*), *shakl*, *kabl*, *xabl*, *aql*, *naqs*, *qatf*, *xazl*, *vaqs*, *xatm*, *batr*, *rab'*, *saxl*, *jad'*, *qasm* zihoflari.

Musaddas - (arabcha oltilik) 1. Baytdagi ruknlar soniga ko'ra farqlanuvchi vazn shakllaridan biri. Bir baytda oltita rukn qo'llanadigan vaznlarning nomi.

2. Banddagi misralar soniga ko'ra farqlanadigan *musamman* shakllaridan biri. Har bandi olti misradan iborat.

Musamman - (arabcha sakkizlik) 1. Baytdagi ruknlar soniga ko'ra farqlanuvchi vazn shakllaridan biri. Bir baytda sakkizta rukn qo'llanadigan vaznlarning nomi.

2. Banddagi misralar soniga ko'ra farqlanadigan *musamman* shakllaridan biri. Har bandi sakkiz misradan iborat.

Mustazod - bir misrasi g'azalning bir yarim misrasiga teng bo'lgan yagona vaznda yoziladigan she'riy janr. Uning to'liq misralari *harun musammani sadru ibtido axrab, hashvayn maktuf*, aruz va zarb *mahzuf* yoki *maqsur* vaznida, orttirilgan misralari esa *harun murabbai sadru ibtido axrab, aruz va zarb mahzul* yoki *maqsur* vaznida yoziladi. Boshqacha qilib aytganda, misradagi *sadu* va *ibtido* *aruz* va *zarb* orttiriladi.

Mutadorik - Xalil ibn Ahmad tomonidan yaratilgan *Mutadrik* *arkon* bahrlardan biri. *Fo'ilun* ruknining takrorlanishidan hosil bo'lgan Arab she'riyati (aruzi arab)ga xos bo'lgan bahrlardan.

Mutalavvun - arabcha so'z bo'lib, «rang-barang», «turli-tarflilik» ma'nolarini ifodalaydi. Istiloh sifatida esa bu atama she'rni bir necha vaznda o'qish san'atini nazarda tutadi. Bunga bayt tarkibidagi hijolarni cho'ziq yoki qisqa talaffuz etish, hijolarni ajratib yoki qo'shib o'qish orqali erishiladi.

«...bu aningtek bo'lurkim, she're ayturlarkim, ikki vazn bitta o'qusa bo'lur».

«Funun ul-balag'»

Mutaqorib - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Mutaqorib** bahri **fa'uvlun** ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning **Mutaqoribi musammani mahzuf (maqsur)** (fa'uvlun fa'uvlun fa'ul (fa'uvl)) shakli dostonchilikda qo'llanadi. Bu vazn Firdavsiyning "Shohnoma" asari tufayli mashhur bo'lib, keyinchalik, Nizomiyning "Iskandarnoma" dostonidan boshlab "Xamsa"lardagi beshinchi doston vazni maqomiga ega bo'ldi. Amir Xusravning "Oinai Iskandariy", Jomiyning "Xiradnomai Iskandariy", Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlari ham shu vaznda yaratilgan. Mazkur vazn jangnoma dostonlarga xos deb qaraladi. Biroq didaktik ruhdagi qator asarlar ham shu vaznda yaratilgan. Xususan, turkiy

...dagi ilk dostonlar - "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib) va "Qutadg'u bilig" (Ahmad Yugnakiy), Sa'diyning mashhur asari "Gharib" shular jumlasidan.

Muttafiq ul-arkon – bir xil asl ruknlarning takrorlanishidan hosil bo'lgan to'dda bahrlarga nisbattan qo'llanadigan atama. Masalan: musaddas, hazaj, ramal va hokazo.

Muzore' – aruz tizimidagi *muxtalif ul-arkon* bahrlardan biri fors-tojik va turkiy she'riyatda musta'mal bo'lgan bahrlardan biri. *Mafo'iyun va fo'ilotun* ruknlarining qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Mushokil - aruz tizimidagi *muxtalif ul-arkon* bahrlardan biri. *Mafo'iyun mafo'iyun mafo'iyun* ruknlarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Musaddas (oltilik) bahrlar sirasiga kiradi. Arab she'riyatiga xos.

Noma – (fors-tojikcha xat maktub). Adabiyotshunoslik atamasi sifatida bu so'z ikki xil istilohiy ma'noga ega:

1. Yirik hajmli epik asarlar tarkibidagi timsollarning bir-birlariga yozgan maktublari. "Xamsa" (Nizomiy, Amir Xusrav, Jomiy, Navoiy) tarkibidagi dostonlarning ko'pchiligida bunday kompozitsion unsumi uchratish mumkin. Xususan, Xusravning (Farhodning) Shiringa maktubi, Shirinning javob maktubi, Majnun va Laylining o'zaro porishmalari va hokazo.

2. Oshiqning o'z ma'shuqasiga turli ruhiy holatlarda yozgan ishqiy maktublari mazmunidagi asarlarga nisbatan "noma" janr atamasi sifatida qo'llanadi. Mazkur janrning ilk nishonalari arab va fors-tojik adabiyotida ko'rinsa-da, uning to'la ma'nodagi dastlabki namunasi Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asaridir.

Paradigma – (yunoncha - shartli belgilar). Aruzda hijoning vazni, o'lchovi, ya'ni qisqa, cho'ziq yoki o'ta cho'ziq ekanligini ko'rsatuvchi shartli belgilar.

Qarib – (arabcha *yaqin*) Aruz tizimidagi *Muxtalif ul-arkon* bahrlardan birining nomi. *Mafo'iyun mafo'iyun fo'ilotun* ruknlaridan hosil bo'ladi. Mazkur bahr Xalil ibn Ahmad tomonidan yaratilgan. Musaddas (oltilik) bahrlar tarkibiga kiradi. Arab she'riyati (aruzi arab)ga xos bo'lgan bahrlardan.

Radd – (arabcha *qaytarish*) Baytning yoki she'rning muayyan bir o'rnidagi so'z, birikma yoki jumlani boshqa bir o'rinda qaytarish, takrorlash usuli. Raddul matla', raddus sadr ilal ibtido vahokazo.

Masalan:

Zihi husnang/ zuhuridin / tushub har kim/ga bir savda

Bu **savdolar** / bila kavnay/n bozori/da yuz g'avg'o.

Raddul *aruz* ilal *ibtido*.

Rajaz - Aruz tizimidagi *Muttafiq ul-arkon* bahrlardan birtan nomi. **Rajaz** bahri **mustafilun** ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Mazkur bahr asosan she'riyatda qo'llanadi. O'rta asrlarda ilmiy she'rlar shu bahrda yozilganligi uchun "urjuza" deb nomlangan.

Ramal - Aruz tizimidagi *Muttafiq ul-arkon* bahrlardan birtan nomi. **Ramal** bahri **fo'ilotun** ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning ikki shakli dostonchilikda qo'llanadi:

I. Ramali musaddasi mahzuf (maqsur) (Fo'ilotun fo'ilotun fo'ilon (fo'ilon)). Bu vazn ko'proq tasavvufiy dostonlarda qo'llanadi. Uning shuhrat qozonishi Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" hamda Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" dostonlari bilan bog'liq. Alisher Navoiy "Lison-ut tayr" dostonini mazkur vaznda yaratgan. Jomiy esa bu vaznni "Salomon va Absol" dostonida qo'llagan.

II. Ramali musaddasi maxbuni abtar (Fo'ilotun fa'ilotun fa'lon (fa'lon, fa'ilun, fa'ilon)). Boburning qayd etishicha bu vazn "g'oyat latif" bo'lsa-da, masnaviyalarda ko'p qo'llanmaydi. Xusrav Dehlaviyning "No'h spehr" asaridagi bir fasl (spehr) hamda Jomiyning "Sabhat ul-abror" dostoni shu vaznda yozilgan.

Ruboiy - She'riy janr nomi. Tort misradan iborat bo'lgan mustaqil she'r. Aruz tizimining hazaj bahriga tegishli bo'lgan 24 xil vaznda yoziladi. Bu vaznlar qaysi rukn bilan boshlanishiga ko'ra shartli ravishda axram (maf'uvlun, - - -) va axrab (maf'uvlu - - V) shajaralariga bo'linadi. Har bir *shajarada* 12 tadan vazn mavjud bo'lib, ularda mafo'iylun aslining solimi hamda quyidagi zihof va furu'lar ishtirok etadi: maf'uvlu - axrab; maf'uvlun - axram; mafo'ilun - maqbuz; mafo'iylu - makfuf; fo'ilun - ashtar; fa' - axrami majbub; fo' - azall; fa'ul - majbub; fa'uvl - axtam. Ruboiy qofiyalanishiga ko'ra *xosa* va *tarona* kabi turlarga bo'linadi. Ruboiy asosan falsafiy, ba'zan ishqiy va didaktik mavzularda yoziladi.

Rukn - (arabcha - ustun). Aruzda *juzv*larning qo'shilishidan hosil bo'luvchi baytning ritmik bo'laklari. Ruknlar baytda to'rtta (murabba'), oltita (musaddas) va sakkizta (musamman) bo'lishi mumkin.

Sabab - (arabcha qoziq) Aruzda eng kichik *juzv*ning nomi. Sabab - ikki harfli *juzv*. Sabab ikki xil bo'ladi:

Sababi xalif (yengil sabab) - bir harakatli va bir sokin harfdan

Sababi saqiyl (og'ir sabab) - ikki harakatli harfdan iborat.

Sadi - (arabcha – rais). Aruz vaznida baytdagi ruknlardan birining nomi. Birinchi misraning birinchi rukni.

San'at - (arabcha sun' (صنع) o'zagidan, yaratmoq degan ma'noni ifodalaydi. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da hunar, ustalik, mohirlik ma'nolarida sharhlangan "San'at" so'zi Navoiy asarida, shuningdek, san'atgar, san'atgariy, san'atnamoy, san'atoyin, san'atfosh kabi lug'aviy va grammatik shakllarda ham uchraydi. "Farhangi zaboni tojiki" kitobida "san'at" so'zining quyidagi ma'nolari ham sharhlangan:

1. Takalluf dar suxan, suxanoroyi, hunarnamoyi dar nazmu nasr.

Mazmuni: so'zda lutf (go'zallik, nozik ma'no) yaratish, nasr va shu ma'no so'zni mahorat bilan qo'llash, hunar ko'rsatish.

"San'at" so'zi zamonaviy adabiyotshunoslik atamasi sifatida muvofiqlikni obrazlar va yorqin manzaralar orqali badiiy ifodalashdan iborat hodisani ifodalaydi.

Sari' - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Sari'** bahri Mustaf'ilun Mustaf'ilun Maf'uvlotu ruknlarining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning **Sari'i musaddasi matviyi makshuf** (Mufta'ilun mufta'ilun fo'ilun) shakli dostonchilikda qo'llanadi. Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoni tufayli bu bahr xamsanavislikdagi dastlabki doston vazni sifatida qat'iy maqomga ega bo'ldi. "Matla' ul-anvor" (Amir Xusrav), "Tuhfat ul-Ahror" (Jomiy) va "Hayrat ul-abror" (Navoiy) dostonlari ham shu vaznda. Turkiy adabiyotda yaratilgan mashhur dostonlardan Mavlono Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" hamda Durbekning "Yusuf va Zulayho"si shu bahrda yaratilgan. Mazkur vazn falsafiy-didaktik mavzularni ifodalash uchun qulay deb hisoblanadi.

Segona ilm ("uchlik ilm") – Qadimda filologiyaga oid ilmlar uchligi. Bular "Ilmi aruz" (aruz vazni qonuniyatlari va shakllari haqidagi ilm), "ilmi qofiya" (qofiya va uning turlari, qofiya tarkibi haqidagi ilm) hamda "ilmi bade'" (she'riy san'atlar haqidagi ilm).

Sokin harf - shu harf (tovush)dan keyin qisqa unlilarning yo'qligini yoxud bo'g'in tugashini bildiradi. Misol uchun "maktab" so'zi arab yozuvida to'rtta harf bilan ifodalanadi - مکتب ("mim", "kof", "le", "be"). Bunda "k" va "b" harflari sokin harflardir.

Suboiy – (arabcha *yettilik*) Yetti harfdan iborat bo'lgan ruknlarga nisbatan ishlatiladigan atama. Masalan: *fo'ilotun, mafo'ylun, mustaf'ilun* vahokazo.

Taqte' – (arabcha – “qata'a” fe'lidan yasalgan bo'lib, bo'linib parchalamoq degan ma'noni ifodalaydi) Aruz istilohlaridan biri. Baytni ritmik bo'laklar-ruknlariga ajratish qonuniyatlarini ifodalovchi yoxud o'rgatuvchi fasl.

Tarix moddasi – 1. Mumtoz adabiy manbalarda tarixiy sonlar *abjad* hisobi yordamida ifodalash usuli. 2. Tarix – tarixiy voqealarni ifodalash uchun yozilgan maxsus she'rga nisbatan qo'llanuvchi janr atamasi.

Tarona – *ruboiy* janrining shakliy xillaridan biri. To'rtta misra ham qofiya qo'llanadigan (a, a, a, a) ruboiylar.

Tavil – 1. Aruz vaznlar tizimidagi bahrlardan biri. *Fa'vvalun va mafo'ylun* ruknlarining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Xalil ibn Ahmad tomonidan yaratilgan mazkur bahr arab she'riyatiga xos deb qaralgan.

2. Mutatavval - uzaytirilgan vaznlar, ya'ni bir baytda sakkiztaqtiq ortiq rukn qo'llanadigan vaznlarga nisbatan qo'llanadigan atama.

3. Bahri tavil - uzaytirilgan vaznlarda yozilgan she'rga nisbatan qo'llanuvchi janr atamasi,

Turkiy (turkona) – G'azalchilikdagi uslublardan biri. Navoiyning “Mezon ul-avzon”ida **ramali musammani mahzuf (maqsur)** vaznida yozilgan g'azallar shunday atalgan. Asosan mazmunga e'tibor beriladigan, soda, xalqona uslubda yoziladigan g'azallar.

“Yana surudedurkim, ani “turkiy” debdurlar... ul g'oyatdin tashqori dilpisand va ruhafzo va nihoyatdin mutajoyiz aysih ahliq'a sudmand va majolisoro suruddur... ramali musammani maqsur vaznida voqe'dur”.

“Mezon ul-avzon”

Tuyuq – Turkiy she'riyatga xos bo'lgan janr nomi. Aruzning ramali musaddasi maqsur (mahzuf) yoki foilotun, foilotun, foilon (foilun) vaznida yoziladigan to'rt misrali she'riy janr. Odatda tuyuqlarda qofiya o'rnida *tajnis* (omonim) so'zlar qo'llanadi. Navoiy va Boburning fikriga ko'ra tajnis qo'llanishi, qo'llanmasligi yoki ularning soni tuyuqning alohida turlarini tashkil etadi. Tuyuq asosan ishqi mavzularda yoziladi.

Uxti – Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog'a” asarida bir-biriga yaqin bo'lgan (bir xill *juzvlardan* tashkil topgan) *asl ruknlarga* nisbatan qo'llangan atama.

Va shart uldurkim, ul ikki juzvnikim, tarkib etib, bahr qilurlar, qat'iyatun o'vli kerak. Agar begona bo'lsa, bu toifaning qoshinda ravo bo'ladi.

"Funun ul-balog'a".

Vaol - (arabcha ulash) 1. *Taqte'* ilmida cho'ziq hijoni qisqaga qisqartirish yoki o'ta cho'ziq hijoni cho'ziq hijoga aylantirish uchun zaruriy undosh tovush (*sokin harf*)ni keyingi hijoga ko'chirish usuli.

2. Qofiya ilmida qofiyalangan so'zlar tarkibidagi raviydan keyin takrorlanuvchi harfning nomi.

Vatad - (arabcha ustunlarni bog'laydigan arqon) Aruzda juzvning qat'iyat. Uch harfli juzv. Vatad ikki xil bo'ladi:

1. Vatadi majmu' (jamlangan vatad) - ikki harakatli va bir sokin harfdan iborat.

2. Vatadi mafruq (ajratilgan vatad) - bir harakatli, bir sokin va yana bir harakatli harfdan iborat.

Vofir - Xalil ibn Ahmad tomonidan yaratilgan *Muttafiq ul-arkon* kitoblaridan biri. *Mafo'ilatun* ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Arab she'riyati (aruzi arab)ga xos bo'lgan bahrlardan.

Xalif - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Xafif** bahri Fo'ilotun Mafo'iylun Foilotun ruknlarining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning **Xafifi musaddasi maxbuni abtar** (Fo'ilotun mafo'ilun fa'lan) shakli dostonchilikda qo'llanadi. Bu vaznda yozilgan bu masnaviylardan biri mashhur so'fiy shoir Sanoiyning "Hadiqat ul-haqoyiq" dostonidir. Falsafiy-tasavvufiy pandnoma ruhidagi bu doston Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoniga ilhom bag'ishlagan deb aytiladi. Biroq bu vaznda Nizomiy o'zining to'rtinchi dostoni "Haft paykar"ni yaratdi. Shundan boshlab, Bahrom haqidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar shu vaznda yoziladigan bo'ldi. Xususan, "Hasht bihisht" (Amir Xusrav), "Sab'ayi sayyor" (Navoiy), "Haft avrang" (Ashraf) vahokazo. Abdurrahmon Jomiy esa Sanoiy izidan borib, bu vaznda yana bir falsafiy-didaktik dostoni "Silsilat uz-zahab"ni yaratdi.

Xumosi - (arabcha beshlik) Besh harfdan tashkil topgan asl ruknlar (fa'uvlun, fo'ilun)ga nisbatan qo'llanuvchi maxsus atama.

Zarb (ajuz) - Aruz vaznda baytdagi ruknlardan birining maxsus nomi. Ikkinchi misraning oxirgi rukni.

Zihof va furu'lar - Aruz she'riy tizimida *asl ruknlarning* turli tarzda o'zgarishi (zihof) hamda o'zgarish natijasida hosil bo'lgan yangi ruknlar (furu').

Zubahrayn - (arabcha ikki bahr egasi) ikki bahrda yozilgan she'r.

Zulbuhur - (arabcha bir necha bahr egasi) she'r vaznda o'qish san'ati, yoki bir necha bahrda o'qish mumkin tarzda she'r yoki bayt yaratish usuli. Bunda bayt tarkibida cho'ziq yoki qisqa talaffuz etish, hijolarni ajratib yoki qo'shish orqali bir necha bahr hosil qilinadi.

She'r (ko'pligi ash'or) - (arabcha bilim, bilmoq) vazn va ma'nosini berur va istilohiy jihatdan ma'nosi tartibga soling qismlarga bo'linuvchi (vazn-o'lchovga ega) va oxirgi harflariga monand keluvchi (qofiyalangan) suxandir".

Chinga - turkiy xalqlar orasida mashhur bo'lgan surud to'janlaridan biri.

"Yana "chinga" durkim, turk ulusi zufof va qiz ko'churur to'janlari ayturlar, ul surudedur bag'oyat mutaassir va ikki nav'dur. Bu hech vazn bila rost kelmas va bir nav'ida bir bayt aytilurkim muqamatviyi mavquf bahridur va yor-yor lafzini radif o'rniq'at qilurlar...".

"Mezon ul-ayn"

Foydalanilgan ilmiy va o'quv adabiyotlari

1. Абдураҳмон Жомий. Рисолайи аруз (Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муваффиқи Д.Юсупова). – Т.: Tamaddun, 2014.
2. Абдурауф Фитрат. Аруз ҳақида. – Т.: Ўқитувчи, 1997.
3. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 1998.
4. Абулаллох Ҳусайний. Бадойиъу - с - санойиъ (Форсчадан а Рустамов таржимаси). – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
5. Азизл Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002 й., 1-6 сонлар; 2003 й., 1-6 сонлар.
6. Баҳром Сирус. Арузи тожики. – Душанбе, 1963.
7. Бабури. Мухтасар (Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов). – Т.: Фан, 1971.
8. Болтабоев Ҳ. Шарҳ мумтоз поэтикаси. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 427 б.
9. Болтабоев Ҳ., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 1-жилди, Қадимги давр. –Т.: Mumtoz so'z, 2012. – 400 б.
10. Валихўжев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. Т.: Ўзбекистон, 1993.
11. Насируддини Тўсий. Меъёр-ул-ашъор. – Душанбе: Ориёно, 1992.
12. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. 287-331-бетлар.
13. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т.: Фан, 1985. 51-53-бетлар.
14. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz. – Sam.: SamDU nashri, 2010. – B. 66.
15. Tohirov S. "Aruz terminologiyasidagi "batr" va "abtar" atamallari haqida // Terminologiya va terminografiya masalalari (Ilmiy anjuman materiallari). --Sam.: SamDU nashri, 2011.
16. Tohirov S. "Aruz terminologiyasiga oid bir jumboq xususida". Alisher Navoiy va XXI asr (Xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari). – Т.: Navoiy universiteti NMU, 2019. 197-202 – betlar.
17. Tohirov S. Mumtoz g'azallar vaznini o'rganishning ayrim jihatları. Til va адабиёт муаммолари. – Сам.: СамДУнашри, 2010. 21-26-бетлар.
18. Юсупова Д. Алишер Навоий "Ҳамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2011.

19. Yusupova D. Aruz alifbosi. – Toshkent: Akademknashr, 2019.
20. Юсупова Д. “Темурийлар давридаги аруз рисола-ларнинг киёсий тахлили”. Филология фанлари доктор диссерт. автореферати. – Т., 2019.
21. Шамси Қайси Розӣ. Ал-Муъҷам. - Душанбе: Адиб, 1991.
22. Ҳасанов С. Бобурнинг «Аруз рисоласи» асари. - Т., 1981.
23. Ҳоҷиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998.
24. Арабско-русский словарь (Составител Х.К.Баранов). – М. 1962.
25. Фарҳанги забони тоҷики. 2- жилд. - Москва: Советская Энциклопедия, 1969.

MUNDARIJA

MAVZU: Kirish, she'riy vazn tushunchasi,	3
MAVZU: "Aruz" va uning tarkibiy qismlari, juzv va ruknlar	15
MAVZU: Asl ruknlarning o'zgarishi, zihof va furu'lar	28
MAVZU: Aruz bahrlari	39
MAVZU: Taqte' - aruz amaliyotining asosi sifatida	51
MAVZU: Turkiy shariyatning asosiy bahrlari:	
raja (mafo'iyun), ramal (foilotun) va rajaz (mustaf'ilun)	64
MAVZU: Masnaviy vaznlari va variatsiyalari	72
MAVZU: Aruz va mumtoz she'riy janrlar	86
Bavalar	99
Test savollari	123
Glossariy	132
Foydalanilgan ilmiy va o'quv adabiyotlari	145

Tohirov S.Q.

Aruz vazni qoidalari

O'quv qo'llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2019. – B. 148.

Muharrir
Musahhah
Texnik muharrir

J. Bozorova
L. Xoshimov
N. Isroilov

ISBN – 978-9943-6298-1-3

2019 yil 25 dekabrda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.

2019 yil 30 dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 60x84_{1/16}. "Times new roman" garnituras.

Offset qog'oz. Shartli bosma tabog'i – 9,0.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 01/5.

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



ISBN 978-9943-6298-1-3



9 789943 629813